O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM KAFEDRASI

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARI UCHUN MUTAXASSISLIK MODULIDAN

BOSHLANG’ICH TA’LIMNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

(Oliy va I-toifali o’qituvchilar uchun)

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

ANDIJON-2025

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“TASDIQLAYMAN”

Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi direktori:

_____T.T.Turg‘unov

“____”_____2025 yil

MAKTABGACHA, BOSHLANG‘ICH VA MAXSUS TA’LIM

CHIQARISHDAN AJRALGAN HOLDA TA’LIM OLISH

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARI MALAKA OSHIRISH

“FANNNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR” BLOKI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

“KIRITILDI”

“Maktabgacha,boshlang‘ich maxsus ta’lim metodikalari”kafedrasi mudiri

- yil «____ » yanvar

“KELISHILDI”

O‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

_____ O‘.Qurbonov

- yil «____» yanvar

Mazkur ishchi o‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 15-dekabrdagi 70-XDFU-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv dasturi asosida tayyorlangan hamda Andijon viloyati pedagogika markazi Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasining 2025-yil 4-yanvardagi 1-sonli yig‘ilishida ma’qullangan va Ilmiy-metodik kengashining 2025-yil 5-yanvardagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

N.Karimova Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri

O‘.Qurbonov - Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari

	Boshlang'ich ta'limni o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	**48**	**48**	**8**	**40**
3.1	**Boshlang'ich ta'limning DTS va yangi avlod darsliklari tahlili**	**6**	**6**	**2**	**4**
3.1.1	Boshlang'ich ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi va zamonaviy darsliklar bilan ishlashga oid uslubiy tavsiyalar		4	2	2
3.1.2	Boshlang'ich ta'limning yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalari tahlili		2		2
3.2	**'ich ta'lim samaradorligini xalqaro baholash dasturlari (PIRLS,**	**8**	**8**	**2**	**6**
3.2.1	larini (PIRLS, TIMSS) o'tkazishning maqsad va vazifalari		**2**	2	
3.2.2	PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullari		**2**		2
3.2.3	O'qish darsliklaridagi matnlar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash		**2**		2
3.2.4	TIMSS xalqaro dasturi asosida savol va topshiriqlar ishlab chiqish va ular ustida ishlash yo'llari		**2**		2
3.3	**O'qish savodxonligi va ona tili darslarida XXI asr ko'nikmalari**	**6**	**6**		**6**
3.3.1	Boshlang'ich sinflarda savodxonlik darslarini zamonaviy yondashuv orqali tashkil etish.		**2**		2
3.3.2	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish usullari.		**2**		2
3.3.3	Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni badiiy asarni tahlil qilishga o'rgatishda interfaol usullardan foydalanish.		**2**		2
3.4	**Matematika fani va mantiqiy fikrlash**	**6**	**6**	**2**	**4**
3.4.1	Matematika darslarida algebraik va geometrik materiallar ustida ishlash.		**2**	2	
3.4.2	murakkab mavzularni o'yin texnologiyalari orqali tushuntirish.		**2**		2
3.4.3	Matematika darslarida ma'lumotlar (jadval, sxema, diagramma) bilan .		**2**		2
3.4.4	Matematika darslarida mantiqiy topshiriqlarni kichik guruhlarda ishlash orqali tushuntirish.				
3.6	**iy (SCIENCE) fanlarda innovatsiya vaintegratsiya**	**6**	**6**	**2**	**4**
3.5.1	h		**2**	2	
3.5.2	tabiatni muhofaza qilishga doir "O'quv loyihasi" ishlab chiqish		**2**		2
3.5.3	amaliy tajribalar orqali o'quvchilarning ekologik savodxonligini rivojlantirish		**2**		2
3.6	**Boshlang'ich ta'limda amaliy ishlarni rejalashtirish va tashkillashtirish**	**6**	**6**		**6**
3.6.1	Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini		**2**		2
3.6.2	Tasviriy san'at darslarida ijodiy topshiriqlar yaratish.		**2**		2
3.6.3	Informatika va axborot texnologiyalari darslari orqali o'quvchilarni		**2**		2
3.6.4	Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari .		**2**		2
3.6.5	Boshlang'ich ta'limda sinf rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlarni i.		**2**		2
3.7	**Tanlov moduli**	**4**	**4**		**4**
3.7.1	Boshlang'ich ta'limda inkluyuziv ta'lim yondashuvlari		**2**		2
3.7.2			**2**		2

3.1. “BOSHLANG‘ICH TA’LIMNING DTS VA YANGI AVLOD DARSLIKLARI TAHLILI” MODULI

3.1.1-mavzu. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha davlat standarti, o’quv dasturi va zamonaviy darsliklar tahlili

(2 soat ma’riza)

O‘quv bloki	3.Boshlang’ich ta’limda zamonaviy yondashuvlar				
O‘quv modul	3.1 Boshlang’ich ta’limning DTS va yangi avlod darsliklari tahlil				
Mavzu	1. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha davlat ta’lim standarti, o’quv dasturi va zamonaviy darsliklar bilan ishlashga oid uslubiy tavsiyalar				
	daqiqa				
Mashg’ulotning	DTSning mazmun- mohiyati, tarkibiy qismlari, o’quv dasturlari, o’quv rejalarining mazmuni, ularning tuzulishi haqida ma’lumot berish. Pedagogik faoliyati davomida ta’limga oid hujjatlar bilan ishlash ko’nikmalari rivojlantirish. Amaliy mashg’ulot jarayonida o’quv dasturi talablari mazmuni haqida bilim, ko’nikmalari takomillashadi.				
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Mavzu, darsning maqsadi, rejasi bilan tanishtirish Mashg’ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	Taqdimot	O’qituvchilar mashg’ulotga tayyor bo’lishadi.
2. Motivatsiya	Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	Savolli kartochka	O’qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag’batlanadi.
3. Nazariy qism	Kichik guruhga boshlang’ich sinf darsliklari bo’yicha nazariy ma’lumot yig’ish va taqdimot tayyorlash vazifasi beriladi Slaydlar bilan tushuntirish	15	Taqdimot, tayyorlash	A3 formatdagi qog’oz	O’qituvchilar darsliklarga oid ma’lumotlarni nazariy jihatdan o’rganadi.
4. Amaliy mashg’ulot	Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish Darslikllarda keltirilgan murakkab mavzular bo’yicha muhokama tashkil qilinadi	30	Guruhlarda ishlash,	A3 formatdagi qog’ozda taqdimot tayyorlaydi.	O’qituvchilarda darsliklar bilan ishlashga oid amaliy ko’nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo’yicha taqdimotlar	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O’qituvchilar o’z tajribalarini

	- Mashg'ulot jarayoni bo'yicha fikr-mulohazalar olish				o'rtoqlashadi va yangi g'oyalarni o'zlashtiradi.
6. Refleksiya	"Aqliy hujum" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	Ish varag'i	O'qituvchilar o'z faoliyatini baholaydi va o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg'ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg'ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O'qituvchilar mashg'ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo'naltiriladi.

Reja:

1. **Boshlang'ich ta'lim bo'yicha davlat standarti.**
2. **O'quv reja va o'quv dasturining tavsifi**
3. **Fanlar kesimida darsliklar va ularning tahlili**

Davlat ta'lim standarti umumiy o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim uchun alohida-alohida ishlab chiqarildi. "Standart" so'zi inglizcha bo'lib, "nusxa", "o'lcham", "me'yor" degan ma'nolarni anglatadi.

Umimiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi printsiplar asos qilib olingan:

-davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;

-o'quv dasturlari mazmunining jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liqligi;

-umumiy o'rta ta'limning uzluksiz ta'limning boshqa turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;

- umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

-ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitliligi;

- umumiy o'rta ta'lim mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga tayanish;

’

’ **’lim standartining maqsadi**

’

;

;

;

’

’

Davlat ta’lim standartining vazifalari

-umumiy o’rta ta’lim mazmuni va sifatiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

-milliy, umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlar asosida o’quvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

-o’quv-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, umumiy o’rta ta’lim muassasalarining o’quvchilari va bitiruvchilarining malakasiga qo’yiladigan talablarni belgilash;

-kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

-ta’lim va uning pirovard natijalari, o’quvchilarning malaka talablarini egallaganlik darajasini tizimli baholash tartibini, shuningdek ta’lim-tarbiya faoliyati sifatini nazorat qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, davlat ta’lim standartlari talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo’yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash

Umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlari

- umumiy o’rta ta’limning tayanch o’quv rejasi;
- umumiy o’rta ta’limning o’quv dasturi;;
- umumiy o’rta ta’limning malaka talablari;
- baholash tizimi.

Umumiy o’rta ta’limning tayanch o’quv rejasi

▸ Umumiy o’rta ta’limning tayanch o’quv rejasi umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’qitiladigan o’quv fanlari nomi, o’quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo’yicha taqsimoti belgilangan hujjat hisoblanadi.

▸ Tayanch o’quv reja umumiy o’rta ta’lim muassasalarining dars jadvalini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

▸ Tayanch o’quv reja umumta’lim fanlari bo’yicha belgilangan ta’lim mazmunini o’quvchiga etkazish uchun ajratilgan o’quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi.

O’quv rejasi tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi.

▸ Oquv rejasi o’quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad - ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarni hayotda qo’llay olishga o’rgatish.

▸ Maktablarning birligi o’z qoidalariga asoslanadi. (ya’ni: boshlang’ich maktab –1-4 sinflar, to’liqsiz maktab-5-9 sinflar, umumiy ta`lim maktabining 10-11 sinflarining o’zaro bog’liqligi).

▸ To’liqsiz va o’rta maktablarda o’quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi.

▸ O’quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi sinfda o’qitilishi, ajratilgan soati, bollarning yosh va bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi, og’ir-yengilligi, didaktik-ahamiyati ham e’tiborga olinadi. O’quv rejasiga kiritilgan fanlar umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir. Unda ta`limning ilmiyligi g’oyaviylik hamda O’zbekistonning

kelajagiga munosib barkamol insonning tarbiyalab, voyaga yetkazish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san’at va jismoniy tarbiya, sog’lom avlodning manaviy qiyofasi asosiy o’rinni egallaydi.

▸ Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 26-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida” 94-sonli buyrug’iga ko’ra tasdiqlandi.

Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga TUSHUNTIRISH XATI

I. O‘quv soatlarining taqsimlanish

1. **“Ona tili va adabiyot”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o‘quv yilining 1-2-choraklarida 4 soat “Alifbe”, 4 soat “Yozuv”, 3-4-choraklarida 4 soat “Ona tili”, 4 soat “O‘qish savodxonligi” fani; 2-4-sinflarda 4 soatdan “Ona tili”, 3 soatdan “O‘qish savodxonligi” fani;

2. **Chet tili** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi: 1-sinfda 1 soatdan; 2-4-sinflarda 2 soatdan;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitishda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida ushbu fan bo‘yicha malakali fan o‘qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari *(sinflar kesimida)*											Haftalik umumiy soat
		1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*	*9*	*10*	*11*	
I.	**Filologiya fanlari**	**9**	**11**	**11**	**11**	**12**	**12**	**10**	**10**	**10**	**9**	**8**	**113**
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	6	6	5	5	5	4	4	**64**
2	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**20**
3	Chet tili	1	2	2	2	4	4	3	3	3	3	2	**29**
II.	**Ijtimoiy fanlar**	**1**	**1**	**1**	**1**	**3**	**3**	**4**	**5**	**5**	**4**	**4**	**32**
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	**17**
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	**4**
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	**11**
III.	**Aniq fanlar**	**6**	**6**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**6**	**7**	**7**	**7**	**67**
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	**55**
8	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1			1	1	1	1	2	2	2	**12**
IV.	**Tabiiy va iqtisodiy fanlar**	**1**	**1**	**2**	**2**	**2**	**3**	**8**	**8**	**8**	**8**	**8**	**51**
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	3	**11**
10	Kimyo							2	2	2	2	2	**10**
11	Biologiya							2	2	2	2	2	**10**
12	Geografiya va iqtisodiyot							2	2	2	2	1	**9**
13	Tabiiy fan (Science)	1	1	2	2	2	3						**11**
V.	**Amaliy fanlar**	**4**	**5**	**5**	**5**	**6**	**6**	**6**	**4**	**4**	**3**	**3**	**51**
14	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					**7**
15	Tasviriy san’at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			**9**
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			**12**
17	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	**21**
18	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik										1	1	**2**
Jami		**21**	**24**	**24**	**24**	**29**	**30**	**34**	**33**	**34**	**31**	**30**	**314**

Mazkur qaror asosida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfida chet tili fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Matematika”** faniga ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi: 1-6-sinflarda “Matematika” fani haftasiga 5 soatdan;

4. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi: 1-2- va 5-8-sinflarda 1 soatdan;

5. **“Tabiiy fan (Science)”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi: 1-2-sinflarda 1 soatdan; 3-5-sinflarda 2 soatdan; 6-sinfda 3 soatdan o‘qitiladi;

6. **“Tasviriy san’at va chizmachilik”** faniga ajratilgan haftalik o‘quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi: 1-7-sinflarda “Tasviriy san’at” fani haftasiga 1 soatdan o‘qitiladi.

Umumiy o’rta ta’limning malaka talablari

bilim — o’rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;
ko’nikma — o’rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo’llay olish;
malaka — o’rganilgan bilim va shakllangan ko’nikmalarni notanish vaziyatlarda qo’llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;
kompetensiya — mavjud bilim, ko’nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo’llay olish qobiliyati.

O’quv dasturi va darslik. Har bir o’quv fani uchun o’quv dasturi tuziladi. O’quv dasuri o’quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O’quv dasturi har bir oquv fanini o’qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g’oyaviy-siyosiy yo’nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir. O’quv dasturida o’quv yili davomida har qaysi sinfda alohida fanlar bo’yicha o’quvchilarga beriladigan ilmiy bilim, ko’nikma va malakalarning hajmi belgilab beriladi. Dasturda har qaysi fanlarning mazmuni izchillik bilan yoritiladi va ma’lum mavzular orqali ko’rsatiladi. Ma’lum mavzu yuzasidan o’quvchi o’zlashtirishi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar qisqacha ifodalab beriladi. O’quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi.

1. Dasturning qat’iyligi. O’quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotning har bir bosqichda fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Bu ular har yili ko’rib chiqilishi kerak, degan gap emas, aksincha, hamma o’quv fanlariga oid dasturlarning bir nech yillar mobayninda qat’iy bo’lishiga erishmoq darkor. Dasturining qat’iyligi qat’iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egaki, bu darsliklar uzoq yashashi va o’quv jarayonida uzoq foydalanishi kerak.

2. O’quv dasturida ilmiylik qoidasi. Dasturga borliqni aniq, haqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiyallar kiritiladi. Ilmiy bilimlarning tobora rivojlanib borishi va uni ishlab chiqarishda tadbiq etilishiga doir ma’lumotlar maktab o’quv fanlariga ham o’zgarishlar kiritishiga olib kelganidek, o’quv dasturidagi ayrim eskirgan massalalar o’quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

3. O’quv materiallari mazmunini to’g’ri tanlash, fan materiyallarini tanlashda unda isbotlar, misollar mantiqiy umumlashma va xulosalarning to’g’ri uyg’unlashuviga alohida e’tibor beriladi. Aniq misollar bo’lmasa o’rganilayotgan hodisalarni nazariy jihatdan tushunish mumkin emas.

4. Nazariyaning amaliyot bilan birlik qoidasi. O’quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi, birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarni turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida tutgan o’rni ko’rsatib beriladi. Ilmiy bilim ko’nikma va malakalarning o’zaro mustahkam bog’liq bo’lishi hamda ta’lim

jarayonidagi nazariy ma’lumotlarni amalda qo’llab borish jarayonida o’z aksini topadi.

5. O’quv dasturlarida tarixiylik qoidasi. O’quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda tuziladi. Bunda o’quv fanlarining nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o’qitishda tarixiy voqealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, infarmatika, fizika va boshqa qator fanlarni o’qitishda fan olamidagi ma’lum bir ilmiy hodisa, qoida va qonunlarni paydo bo’lishi, uning kelajak istiqboliga oid ma’lumotlar berib o’tiladi.

6. Dastur ikki usul bilan: ketma-ket (muntazam) va konsertik (markazlashgan) tarzda joylashtirilishi mumkin.

Darslik ma’lum predmet bo’yicha dasturda ko’zda to’tilgan o’quv materialini o’z ichiga olgan, ta’lim mazmunini o’zlashtirishga imkon beradigan vositadir. Darsliklar o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalarni egallashlarida bosh manba, o’qituvchining o’quv jarayoniga rahbarlik qilishining muhim qo’llanmasi, o’quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, bilimga qiziqishni rivojlantirishi, mustaqil ishlash malakasi, xotira, tafakkur, nutk va til estetik tarbiya kabilarning muhim vositasi hisoblanadi.

Darsliklarga qo’yiladigan pedagogik talablar quyidagilardan iborat:
1.Material bayonining qat’iy ilmiyligi va hozirgi zamon fan va texnika rivojiga mosligi.

2.Yuksak g’oyaviylik va o’quvchilarni axloqiy tarbiyalash vazifalariga bo’ysunishi.

3.Darslik mazmunining hayot bilan bog’liqligi har bir nazariy masalalar yetarlicha asosli misollar, ko’rsatmalar bilan bo’lishi va ularning hayotiy ahamiyati ko’rsatilgan bo’lishi lozim.

4.O’quvchilarning yosh va bilish xususiyatlarini hisobga olib, materialni izchil va tizimli joylashtirilishi.

5.O’quvchilarning mustaqil ishlash malakasiga muvofiq ko’rsatma va ma’lumotlarning mavjudligi, darslik mazmuniga kuzatish va mashq uchun topshiriqlar, o’z-o’zini tekshirish uchun savollar, takrorlash uchun savollar bo’lishi.

6.Materialni o’zlashtirishni yengillashtirish uchun bayonning oddiy, badiiy va obrazli bulishi.

7.Materialni o’zlashtirishni yengillashtirish uchun chizma, diagramma, rasm va illustratsiyalarning mavjudligi.

8.Darsning tashkiliy ko’riniishi yaxshi bo’lishi.

Boshlang’ich ta’lim sharoitida darsliklar tuzishda o’ziga xosliklar va qiyinchiliklar bo’ladi.

Maktab va hunar-texnika bilim yurtlari dasturning tuzilishi uch bo’limdan iborat bo’lib, birinchi bo’limda mazkur dasturga amal qilish yuzasidan yo’l-yo’riqlar – qisqacha o’qittirish xati; ikkinchi bo’limda – o’quv materiallarining mazmuni; uchinchi bo’limda esa o’quvchilarning qo’shimcha ravishda o’rganishlari lozim bo’lgan adabiyotlar ro’yxati beriladi

Yangi 2023-2024 -o’quv yilidan boshlab boshlang’ich sinf o’quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim olmoqda. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya’ni

bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o’qish-yozishni o’rgatish bilan cheklanilmaydi. O’quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo’lgan hayotiy ko’nikmalarni ham o’rganadi.

Darliklardan biri boshlang’ich sinflar uchun “O’qish savodxonligi” darsligidir. O’qish savodxonligi nafaqat ta’lim tizimida, balki boshqa sohalarda ham yutuqlarga erishish uchun asos hisoblanadi. Eng asosan Xalqaro dasturlar PISA, PIRLS,TIMSS,TAILS kabi tadqiqotlar talabiga javob beradigan va ular asosiga qurilgan dastur va darsliklar yaratildi. Matematika fani boshlang’ich sinflardan boshlab inson hayotining mazmuni ekanligi ko’rsatib boriladi. Matematika haqiqiy olamning miqdoriy munosabatlari va fazoviy formalari haqidagi fandir. Matematikadan masalalar yechish o’quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. To’rtinchi sinf bitiruvchilari uchun TIMSS masallaridan namuna keltiramiz. Masala. Tohir nonning qismini yedi , ukasi esa qolgan nonning qismini yedi. Ular ikkalasi jami qancha nonni yedi? Darsliklar kesimida boshlang’ich sinflar matematika darsligini oladigan bo’lsak, avvalgi darsliklardan tubdan farq qiladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Boisi, darslikda berilgan topshiriqlar o‘quvchini nafaqat hisob-kitobga, balki, mavzularni oson anglashga, mantiqiy va tanqidiy fikrlashga undaydi. Darslikda berilgan rasmlar, chizmalar va jadvallar juda ham qiziqarli, shu bilan birgalikda o‘quvchining tushunishi uchun sodda va aniq shaklda berilganligi o’quvchi hamda pedagoglar uchun qulaylik tug’diradi.

Masalan matematika darsining yetakchi mavzusi hisoblangan “Ko‘paytirish jadvali” mavzusini ko’radigan bo’lsak, o‘quvchiga to‘liq tushuntirishga harakat qilinadi. Boisi, bu mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi juda ko‘p mavzularni o‘zlashtirishda, turli misol va masalalarga yechim topishda hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydi. Bu darslikda “Sonlarni ko‘paytirish” mavzusi uchun berilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilarga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni berilishi mumkin. Bunda bizga darslikda berilgan rasmli ko‘rgazmalarning turli shaklda sifatli va mazmunli qilib ifodalanishi katta yordam beradi. Ayniqsa, karraning son nurida ifodalanishi yoki narsalarning guruhlar shaklida ko‘rinishi o‘quvchilarning karrani shunchaki yod olishi uchun emas, balki, ongli tushunishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqotlarga ko‘ra, hisob-kitobni yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchidan ko‘ra, matematik mushohada hamda mantiqiy fikrlash ko‘nikmasiga ega o‘quvchi hayotda ko’proq muvaffaqiyat qozonar ekan. Bu ko’nikma orqali odam matematik bilimlarini hayotda qo’llaydi, turli vaziyat va muammolarga tez yechim topadi. Shuni hisobga olib, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va milliy tajriba asosida tayyorlangan Milliy o‘quv dasturida ham o’quvchining matematik tafakkurini rivojlantirishga e’tiborni qaratilgan. Shuningdek, ilg’or o’quv dasturi asosida yaratilgan 1-sinf Matematika darsligida ham ilk bor farzandlarimizni matematik mushohadaga chorlaydigan mashg’ulot va topshiriqlarga keng o’rin berildi. 1-sinf matematika darsligining I bob, 5-darsida narsalarning miqdori haqida tushuncha berilgan bunda oldingi darslik asosidan ko’ra yuqori pog’onada darslik tuzilganini ko’rishimiz mumkin. Endi bunda o’quvchilar miqdorlarni sanab taqqoslashdan foydalanmay, ko’rib fikrlab sifatlar orqali yechim topadi. Masalan katta-kichik, keng-tor, baland-

past, qisqa-uzun, og’ir- yengil kabi javoblar berishi mumkin. Tabiiy fan kesimida ham ko’radigan bo’lsak ham, bu darsliklardagi mavzular avvalgiga qaraganda biroz murakkab berilgan bo‘lsa-da, lekin, juda ham qiziqarli, tushunarli va amaliy mashg‘ulotlarning ko‘p berilganligi o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham zavqli bo‘ladi. XXI asr bolalari bu mavzularni hech qanday qiyinchiliklarsiz, balki, katta qiziqish bilan o‘rganadilar. Darslikda berilgan mavzular o‘quvchilarni real hayotni o‘rganishga, anglashga undaydi. Darslikning 2-bobidagi “O‘simlik organlari” mavzusi uchun berilgan “O‘simlik qanday oziqlanadi?”, “Olmaning hayot sikli”, “Qoqi o‘tning hayot sikli” kabi rasmli ko‘rgazmalar o‘quvchilarning oson o‘zlashtirishi uchun manba bo‘lmoqda. Ayniqsa, “Urug‘ning unib chiqish jarayonini o‘rganish” mavzusida berilgan amaliy mashg‘ulot barcha o‘quvchilarda yorqin taassurot qoldirdi.

Bu ma’lumotlardan shuni hulosa qilishimiz mumkinki, avvalo o’quvchilarga faqatgin bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlari asosida yuksaltirish va ularni mantiqiy, tanqidiy fikrlashga chorlash, o’rgangan narsalarini hayotda tadbiq qila olish qobiliyatiga ega qilib tarbiyalash, ularda yetuk va barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo’yilgan.

. 3.1.1.2-mavzu. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha davlat standarti, o’quv dasturi va zamonaviy darsliklar tahlili (2 soat amaliy)

O‘quv bloki	3.Boshlang’ich ta’limda zamonaviy yondashuvlar				
O‘quv modul	3.1 Boshlang’ich ta’limning DTS va yangi avlod darsliklari tahlil				
Mavzu	1. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha davlat ta’lim standarti, o’quv dasturi va zamonaviy darsliklar bilan ishlashga oid uslubiy tavsiyalar				
	daqiqa				
Mashg’ulotni	- DTSning mazmun- mohiyati, tarkibiy qismlari, o’quv dasturlari, o’quv rejalarining mazmuni, ularning tuzulishi haqida ma’lumot berish. Pedagogik faoliyati davomida ta’limga oid hujjatlar bilan ishlash ko’nikmalari rivojlantirish.				
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Maqsad va reja bilan tanishtirish Mashg’ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	Taqdimot	O’qituvchilar mashg’ulotga tayyor bo’lishadi.
2. Motivatsiya	Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	Savolli kartochka	O’qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag’batlanadi.
3. Nazariy qism	DTSning mazmun-mohiyati, tarkibiy qismlari, o’quv	15	Taqdimot, ko’rgazmali tushuntirish	1-6-slaydlar	O’qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan

	dasturlari, o’quv rejalarini tushuntirish Slaydlar bilan tushuntirish				o’rganadi.
4. Amaliy mashg’ulot	Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish Misollar va vaziyatlarni muhokama qilish	30	Guruhlarda ishlash,	Tarqatmalar	O’qituvchilar interfaol vositalar yordamida amaliy ko’nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo’yicha taqdimotlar Qiyinchiliklarni muhokama qilish Mashg’ulot jarayoni bo’yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O’qituvchilar o’z tajribalarini o’rtoqlashadi va yangi g’oyalarni o’zlashtiradi.
6. Refleksiya	"Klaster" usuli orqali xulosa qilish "Assisment" orqali o’z-o’zini baholash	5	Refleksiya usullari	Ish varag’i	O’qituvchilar o’z faoliyatini baholaydi va o’rganilgan ma’lumotlarni qayta ko’rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg’ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg’ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O’qituvchilar mashg’ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo’naltiriladi.

Informatika darsida o’quvchilar kompyuter bilan to’g’ridan-to’g’ri ishlashi shart emas. Darsliklarda asosan axborot nimaligi, algoritm tushunchasi, amallar ketma-ketligi kabi bazaviy bilimlar aks etgan. Ya’ni yuqori sinflarda informatika fanini tushunish uchun kerak bo’ladigan boshlang’ich tushunchalar berilgan.

Yangi avlod darsliklarining afzalliklari-yangi avlod darsliklari o’quvchilarning yosh xususiyatlari va psixologik ehtiyojlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Masalan, darsliklar qismlarga bo’lingan bo’lib, bu o’quvchilarga qo’shimcha qulaylik yaratadi. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi direktori Vohid Hamidovning ta’kidlashicha, yangi darsliklarni yaratishda bolalar psixologiyasi ham hisobga olingan.

O’quv qo’llanmalari va metodik yondashuvlar-boshlang’ich ta’limda yangi avlod darsliklari bilan bir qatorda, o’qituvchilar uchun turli o’quv qo’llanmalari ham ishlab chiqilgan. Masalan, "Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi" nomli qo’llanma boshlang’ich sinf o’qituvchilari, tarbiyachi-pedagoglar va ijtimoiy soha xodimlari uchun mo’ljallangan bo’lib, unda zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlar haqida ma’lumotlar berilgan. Integratsiyalashgan yondashuvning ahamiyati-yangi avlod darsliklarida juda katta. Bu usul o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, o’z fikrini erkin ifoda etish va jamoada ishlash ko’nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Mamlakatimizdagi boshlang’ich sinflarda amalga oshirilayotgan yangi tajribada o’quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o’z fikrini erkin bayon eta olishiga ko’proq ahamiyat berilmoqda. Yangi avlod darsliklari va o’quv qo’llanmalari boshlang’ich ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim qadamdir. Ular o’quvchilarning qiziqishini oshirish, bilim olish jarayonini yengillashtirish va o’qituvchilarning samarali ishlashiga ko’maklashadi.

Yangi avlod darsliklari 4K modeliga asoslangan. Bu metodologiya bolalarning rivojlanishiga qaratilgan bo’lib, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ va tanqidiy fikrlash kabi asosiy kompetentsiyalarni qamrab oladi.

Ushbu kompetentsiyalar asosidan tasavvur etish, g’oyalarni ilgari surish, dalillar keltirish, ma’lumot yetishmasligini ta’kidlash va izlash, o’z g’oyalarini shakllantirish va boshqalarning g’oyalarini rivojlantirish, taxmin va mulohazalarini baholay olish, guruh maqsadlarini qabul qilish va umumiy natijani baholash kabilar o’rin oladi. Ular maktab o’quvchilariga mustaqil o’qish va boshqalar bilan birgalikda tadqiqot olib borish, o’zini ko’rsatishga imkon beradi. Ushbu muhim kompetentsiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasak, o’quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirish zarur. Maktabdagi har bir dars o’quvchilar faqat fan mazmunini o’zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini mustaqil rivojlantiradigan jarayondir.

Kollaboratsiya o’quvchilarning biror maqsadga erishish uchun jamoada ishlash ko’nikmasidir. Bu orqali o’quvchilarda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va bir-birini qo’llab-quvvatlash o’rgatiladi. Shu tariqa o’quvchilarning jamoada ishlash qobiliyati rivojlantiriladi.

Biror masalani hal qilishda jamoaviy hamkorlik asosida fikr bildirish, bir-birini qo’llab-quvvatlash, tushunish muhim rol o’ynaydi. Darsliklardagi mazmun aynan mana shu 4K modelining birinchi jihati — kollaboratsiyaga asoslangan holda berilgan. Ko’pgina topshiriqlarni bajarishda o’quvchilar jamoaviy fikrlab, xulosa chiqarishi mumkin.

Kommunikativlik o’quvchilarning boshqalar bilan muloqotga kirishish qobiliyatini anglatadi. Yangi darsliklar yordamida bolalar fikrini aniq-ravshan

ifodalash, suhbatdoshni tinglash, tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o’rganadi. Shuningdek, o’rinli savol berish, fikrlarni aniq-tiniq ifodalay olish, mulohazasini to’g’ri talqin etish va himoya qilish ham muhim.

Kreativ fikrlash ijodiy tafakkur va yangilik qilish qobiliyatini bildiradi. O’quvchilar maqsadiga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo’llashni o’rganadi. Innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi va ijodiy muammolarni hal qilish ko’nikmasiga ega bo’ladi. Masalan, bolalar kreativ yondashib, darsliklardan o’rin olgan topshiriqlarni nostandart usulda hal etish ko’nikmasini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlash o’quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, shaxsiy fikr-mulohazalarni shakllantirish ko’nikmasidir. Bolalar muammolarga tahliliy nuqtai nazardan yondashishni o’rganadi. Mantiqiy fikrlash asosida nuqtai nazarini shakllantiradi.

Darsliklarda statistik ma’lumotlarni sintez, analiz qilib, axborot to’g’ri yoki noto’g’ri berilayotganini anglash, aynan tanqidiy fikrlash kompetentsiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratilgan. Ya’ni qaysidir ma’lumot noto’g’ri talqin etilayotganini anglab olish qobiliyatini rivojlantirish ko’zda tutilgan Har bir yangi darslik zamonaviy dizayn tendetsiyalariga muvofiq bo’lishi shart. Bu nafaqat jozibali vizual muhit yaratadi, balki materialni samarali o’zlashtirishga yordam beradi. Shu nuqtai nazardan darsliklarda quyidagi yangiliklar kiritildi. Kitoblar mutlaqo boshqacha dizaynda yaratilgan. Bunda bolalarning yoshi hisobga olingan. Ishlatilgan grafika, ranglar palitrasidan tortib, tasvirlar, obrazlar, foto, portretlar barchasi ilmiy yondashuv, bolalarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda berilgan. Yangi darsliklardan rang-barang illyustratsiyalar o’rin olgan. Ular nafaqat o’rganish jarayonini qiziqarli qiladi, balki mavzularni yaxshiroq tushunish va tasavvur etishga yordam beradi.Darsliklarni tayyorlashda vazni ham e’tiborga olindi. Kitoblarning qalinligi, o’quvchining yoshiga mosligi, bolaning fiziologik holati hisobga olingan. Darsliklarda qalinlik va og’irlikning optimal kombinatsiyasi mavjud bo’lib, bu, ayniqsa, kichik yoshdagi o’quvchilar uchun tashish va ishlatish jarayonini osonlashtiradi.Ilgari ma’lumot manbai asosan darslik bo’lgan. Hozir internet rivojlangani tufayli ko’plab ma’lumot manbalari vujudga keldi. Yangi darsliklarning boshqa manbalardan afzalligi o’quvchi kitob bilan yuzma-yuz muloqot qila oladi. Darslik o’quvchining emotsional intellektidan kelib chiqqan holda, yoshiga mos ravishda u bilan o’zining tilida suhbatlashadi. Darsliklarda bosh qahramon sifatida 6 personaj 3 o’g’il va 3 qiz tasvirlangan. Ular butun o’quv jarayonida o’quvchiga hamroh bo’lib, sinfdan sinfga, darslikdan darslikka birga ko’chadi, do’stlik va yaqinlik hissini paydo qiladi. Bosh qahramonlar orasida har ikki jins vakillarining namoyon bo’lishi o’quvchilarning gender xilma-xilligiga hurmat ko’rsatish, o’zini teng va hurmatli his qiladigan

o’quv muhitini yaratishga yordam beradi.Bola personajlar bilan 1-sinfdan boshlab 4-sinfgacha birga ulg’ayadi. Kerak bo’lsa, fikrlashadi, musobaqalashadi. Hamkorlikda qaysidir masalalarni hal qiladi. Bu personajlar o’quvchilarni hamjihat ishlashga o’rgatadi.Yangi o’quv qo’llanmalarda bitiruvchining munosib portreti, ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu darsliklar har bir o’quvchining muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, uzluksiz kasbiy o’sishi va barkamol rivojlanishi uchun zarur bo’lgan asosiy ko’nikmalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan.

Shu bilan birga, darslikdagi topshiriqlar o’quvchi shaxsiga yo’naltirilgan ta’lim kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda bolalarning bilimi, o’zlashtirish darajasiga moslashtirilgan. Ya’ni topshiriqlar osondan murakkabga qarab boradi. Bu yerda fanni o’zlashtirish imkoniyatidan kelib chiqqan holda har bir o’quvchiga alohida topshiriq berish mumkin. O’qituvchining boshqa qo’shimcha metodik qo’llanmalar, topshiriqlarga murojaaat qilishiga zarurat qolmaydi. Darslikning o’zida bu masala keltirilgan.

Yangi o’quv qo’llanmalarda bitiruvchining munosib portreti, ta’lim muhitini yaratishga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu darsliklar har bir o’quvchining muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, uzluksiz kasbiy o’sishi va barkamol rivojlanishi uchun zarur bo’lgan asosiy ko’nikmalarni rivojlantirishga yo’naltirilgan.

Kasbiy faoliyatni rivojlantirishda individual va hamkorlik faoliyatini tashkil etish metodikasi

Topshiriqlar ***1-topshiriq.*** “Tushunchalar tahlili” usuli. Tushunchalarni tanlang, ’at maqolasi yozing. Har bir tushunchaning ma’nosi haqida o’ylab ko’ring.

Tushunchalar	**Izohi**
DTS	
O’quv dasturi	
O’quv reja	
Darslik	

2-topshiriq. “Klaster” usulida tahlil qiling.



3- topshiriq



4 – topshiriq. Darsliklarni tahlil qiling.



. **3.1.2-mavzu. Boshlang‘ich ta’limning yangi avlod darsliklari va o’quv qo’llanmalari tahlili**

(2 soat amaliy)

O‘quv bloki	3.Boshlang’ich ta’limda zamonaviy yondashuvlar

O‘quv modul	3.1 Boshlang’ich ta’limning DTS va yangi avlod darsliklari tahlil				
Mavzu	Boshlang‘ich ta’limning yangi avlod darsliklari va o’quv qo’llanmalari tahlili				
	daqiqa				
Mashg’ulotni	Boshlang‘ich ta’limning yangi avlod darsliklari va o’quv qo’llanmalari tahlili haqida ma’lumot berish. Pedagogik faoliyati davomida yangi avlod darsliklaridagi topshiriqlar bilan ishlash ko’nikmalari rivojlantirish. Alifbe, ona tili, o‘qish savodxonligi, matematika, tabiiy fanlar, tarbiya, informatika va axborot texnologiyalari, tasviriy san’at, texnologiya fanlari darsliklarining tahlili, muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.				
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Maqsad va reja bilan tanishtirish Mashg’ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	Taqdimot	O’qituvchilar mashg’ulotga tayyor bo’lishadi.
2. Motivatsiya	Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol "Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	Savolli kartochka	O’qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag’batlanadi.
3. Nazariy qism	- Yangi avlod darsliklaridagi o’zi xos xususiyatlari haqida - Slaydlar bilan tushuntirish	15	Taqdimot, ko’rgazmali tushuntirish	1-6- slaydlar	O’qituvchilar yangi avlod darsliklarning nazariy jihatdan o’rganadi.
4. Amaliy mashg’ulot	Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish - Darslikdagi yutuq va kamchiliklarni muhokama qilish	30	Guruhlarda ishlash,	Tarqatmalar	O’qituvchilar interfaol vositalar yordamida amaliy ko’nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo’yicha taqdimotlar - Qiyinchiliklarni muhokama qilish - Mashg’ulot jarayoni bo’yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O’qituvchilar o’z tajribalarini o’rtoqlashadi va yangi g’oyalarni o’zlashtiradi.
6. Refleksiya	"T jadvali" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	Ish varag’i	O’qituvchilar o’z faoliyatini baholaydi va

	"Assisment" orqali o'z-o'zini baholash				o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg'ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg'ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O'qituvchilar mashg'ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo'naltiriladi.

Darsliklar ta'lim uzviyligi printsipi asosida ishlab chiqilgan.Maktabgacha ta'lim muassasalarida berilgan dastlabki bilimlar uzviyligi ta'minlangan. Shu bilan birga, darslikdagi topshiriqlar o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda bolalarning bilimi, o'zlashtirish darajasiga moslashtirilgan. Ya'ni topshiriqlar osondan murakkabga qarab boradi. Bu yerda fanni o'zlashtirish imkoniyatidan kelib chiqqan holda har bir o'quvchiga alohida topshiriq berish mumkin. O'qituvchining boshqa qo'shimcha metodik qo'llanmalar, topshiriqlarga murojaat qilishiga zarurat qolmaydi. Darslikning o'zida bu masala keltirilgan.

Differentsial yondashuvga ega darsliklar individual ta'lim uchun noyob imkoniyat. Ushbu darsliklar asosida yaratilgan metodika o'quvchilarning o'rganish sur'ati va uslublari turlichaligini hisobga oladi. Shunday qilib, har bir o'quvchi o'z sur'atida rivojlanishi, o'z tushunchasini chuqurlashtirishi va o'quv vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Ushbu yondashuv to'siqlarni olib tashlash va har bir bola uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, uning muvaffaqiyatga erishishi va o'zini-o'zi rivojlantirishiga imkon beradi.

Yangi darsliklar asosida sifatli dars o'tish uchun pedagoglar malakasini oshirish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarni kasb etadi. Darslikni o'quvchiga yetkazishda o'qituvchi, shubhasiz, asosiy rol o'ynaydi. Agar pedagog bunga tayyor bo'lmasa, u ma'lumot, bilimni o'quvchiga yetkazolmasa, darslik qanchalik mukammal yaratilgan bo'lmasin, undagi bilimni o'zlashtirish, ta'lim sifati kutilgan

natijani bermasligi mumkin. Shuni ko’zda tutib, shu yil 14–17 avgust kunlari Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti hamkorligida “Boshlang’ich sinflarda o’qitishning zamonaviy metodikasi” mavzusida boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun malaka oshirish kursi tashkil etildi.

Kursda yurtimizning barcha hududidan taklif etilgan 300 dan ortiq ilg’or pedagog va metodistlar hududiy trener sifatida o’z malakalarini oshirdilar. Aynan ular joylarda yangi darsliklar bilan ishlash bo’yicha o’qituvchilarni zamonaviy kaskad usulida tayyorladilar. To’rt kunlik kursda boshlang’ich sinflarda fanlarni o’qitish metodikasi, o’quvchilar natijalarini baholash, fanlararo integratsiyani ta’minlash kabi mavzularda mashg’ulotlar tashkil etildi.

O‘qituvchi o‘z ustida ishlab, uni o‘quvchiga to‘g‘ri tushuntira olishi, zamonaviy darsliklardagi g’oyalarni o’quvchiga yetkazib bera olsagina, o’quvchilarning bilim olishga qiziqish va ishtiyoqlari o’sib boradi.

01 Darsliklar tubdan mazmun va shakl jihatidan o’zgartirildi.

02 Unda tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritib qaror qilinishi kerak bo‘lgan jihatlar ham bor.

03 Amaliyotga bog’lash

Yangi darsliklar XXI asr ko’nikmalarini shakllantirishda 4K modelini qo’llash orqali o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko’nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kurs davomida trenerlar o’qitishning 4K modeli va uni boshlang’ich sinflarda qo’llash, o’quvchilarda hayotiy ko’nikmalarni shakllantirishning pedagogik yechimlari bo’yicha mashg’ulotlarda ham ishtirok etib, tajriba oshirmoqda.Shu bilan birga, pedagogika yo’nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo’lajak mutaxassislarga ham bu darsliklar asosida dars berish usullari singdirib boriladi.

Zamonaviy va xalqaro talablar asosida yaratilgan 1-4-sinflar uchun maktab darsliklari 4K modeliga asoslangan innovatsion yondashuv taqdim etilgan. Ushbu metodologiya bolalarning har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan bo’lib, quyidagi asosiy kompetensiyalarni o’z ichiga oladi:

Kollaboratsiya, kommunikatsiya, kreativ fikrlash va kritik fikrlash o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko’nikmalarini shakllantiradi.

Darsliklardagi tanqidiy fikrlashga qaratilgan topshiriqlar orqali o’quvchilarda tahlil qilish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish, ma’lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash, mustaqil xulosalar chiqarish, muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirishga asoslangan.

Shu bilan birga, pedagogika yo’nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo’lajak mutaxassislarga ham bu darsliklar asosida dars berish usullari singdirib boriladi.

Kreativlik (ijodkorlik) ko’nikmasini shakllantirish o’quvchilarning

qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko’proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o’rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o’z savollariga javob topish,tasavvur – ko’plab original va nostandart g’oyalarni ishlab chiqish, optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish, g’oyalarni rivojlantirish hamda turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o’zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo’lishida o’z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyatini rivojlanishiga olib keladi.

Muloqot qilish ko’nikmasi bolalarni muloqotdan cho’chimaslik va muloqotni uyushtira bilishi, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik,muloqot maqsadi hamda mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish, muloqot qoidalari ma’nosini tushunish, ishonch darajasini oshirish,boshqa odamlarning fikrini tinglashni o’rganish, o’zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash,o’z fikr va his-tuyg’ularini ifodalash, taqdim etish, qabul qilish, qayta aloqani aks ettirish, katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash ko’nikmalarini amaliyotga bog’lagan holda rivojlanishiga zamonaviy darsliklardam keng imkoniyat yaratib berilgan .

Jamoaviy ishlash ko’nikmasi o’sib kelayotgan yosh avlodni umumiy maqsadlarni o’z maqsadidek qabul qilish, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo’nalishini qurish, ijtimoiy o’zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olib borish, o’z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish, o’z rejalari va g’oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko’nikmalarini va o’z jamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish,o’z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishni o’rgatadi.

Bu ko’nikmalarni rivojlantirish darsliklar bilan ishlash jarayonida amalga oshirib boriladi.Darsliklarda berilgan topshiriqlar, qiziqarli ma’lumotlar, mantiqiy topshiriqlar o’quvchilarni fanlarga bo’lgan qiziqishlarini ortirib boradi.

Darsliklarni ishlab chiqishda bolalar ruhiy holati ham hisobga olinadi. Ularda ijodkorlar va fikrlash qobiliyatini oshirish uchun rasmlar va illyustratsiyalardan keng foydalanilgan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, bola matnlarga nisbatan, tasvirlar orqali ma’lumotni tezroq qabul qiladi. Shu bois yangi darsliklarni yaratishda matnlar bilan birga, rang tasvirlarga ham alohida e’tibor qaratilgan.

1-4-sinf darsliklarda oltita grafik qahramonlar bor. Ular dars jarayonida o’quvchilar bilan g’oyibona suhbatlashadi,qiziqarli o’yin va topshiriqlarni bajarishda o’quvchilarga hamrohlik qiladilar.

Boshlang’ich ta’limda avvalgi darsliklar matematika fanidan 1-2 sinflarda mavzular juda sodda bo’lsa, 3-4 sinflarda qator muammo va qiyinchiliklarga tug’dirar edi. Yangi matematika darsligidagi misol va masalalar tabaqalashtirish ko’rinishida berilgan, ya’ni ular osondan bosqichma-bosqich murakkablashib boradi. Tabiiyki, o’quvchilarning bilim darajalari turlicha bo’ladi. Oson ko’rinishidagi masalalar ko’p bo’lgani uchun o’zlashtirishi yaxshi bo’lgan iqtidorli o’quvchilar uchun qo’shimcha adabiyotlardan foydalanishga to’g’ri kelardi. Yangi chop etilgan matematika darsligida esa o’qituvchi o’quvchisining bilim darajasiga qarab, misollarni taqsimlab berishi mumkin. Har bir o’quvchi barcha misol va masalalarni yechimini topishi shart emas.O’quvchilar ularni darsdan tashqari, bo’sh vaqtlarida yoki matematika fan to’garaklarida mustaqil bajarsa ham bo’ladi.

2. Sonlarni xatjildga soling. Qaysi sonlar qoldi?

2 9 1 10 3 5 4 0 6 7

Natural sonlarga kirmagan sonlar

Ikki xonali sonlar

Toq sonlar

IQTIDORLI O‘QUVCHILAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Ularni alohida o‘quvchilar bilan darsda yoki matematika to‘garagida yechish mumkin.

7. Komil kompyuteriga parol kiritib qo‘ydi. Shu raqamlarni toping. Har bir katakka bittadan raqam yozish kerak.



Parol: ☐☐☐

IQTIDORLI O‘QUVCHILAR UCHUN TOPSHIRIQLAR



5 bilan 7 oralig‘idagi son 6 ga teng.

IQTIDORLI O‘QUVCHILAR UCHUN TOPSHIRIQLAR

Xonqizining 6 oyog‘i bor



O‘rgimchakning 8 oyog‘i bor

6 bilan 8 oralig‘idagi son 7 ga teng.

VENN DIAGRAMMASI





Differensial ta’lim, o‘quvchilarni yoshi, qobiliyati, ishtiyoqi, o‘ziga xosligi, qiziqishlari, o‘zlashtirish darajalarini inobatga olgan holda ularga yondashuv qilingan ta’lim. Ya’ni yakka tartibdagi ta’lim. Darsliklardagi topshiriqlar aynan differensial ta’lim asosida tuzilgan.Aslida matematikada faqat misol va masalalar yechishdan iborat emas, balki to’g’ri qaror qabul qilish ham muhim ahamiyatga ega. Buning uchun o’quvchi mantiqiy va tanqidiy fikrlashi kerak. Darsliklarda shunday o’yinlar borki, ular o’quvchini jamoaviy bo’lib ishlashga o’rgatadi. Jamoada o’z fikrini ifodalay olishi esa bolada liderlik qobiliyatini oshiradi.

Undagi masalalar hayotiy misollar bilan berilgani esa o’quvchini yanada fanga bo’lgan qiziqishi va bilimini orttiradi. Ma’lumki bugungi kunda iqtidorli o’quvchilar ko’payib boryapti.Boshlang’ich sinf o’qituvchisi ilgari darslikdan tashqari, yana boshqa adabiyotlardan foydalanishga majbur bo’lardi.Bu iqtidorli o’quvchilarni 45 daqiqalik dars davomida cheklanib qolmasdan,bir qancha misol va masalalar bilan ishlash imkoniyati yaratilgan. Chunki yaxshi o’zlashtiruvchi o’quvchilar, boshqa bolalarga qaraganda ko’proq mustaqil ishlashga intiladilar, darsliklardagi misol va masalani son jihatdan ko’p kiritilgani iqtidorli o’quvchilarni talablariga mos keladi.Boshlang’ich ta’lim o’qituvchilari yangi darsliklar bilan ishlash jarayonida, unda berilgan topshiriqlarni o’zi yaxshi anglab,keyin o’quvchilarga tushuntirishlari lozim. Darsliklar tubdan mazmun va shakl jihatidan o’zgartirildi. Unda tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritib qaror qilinishi kerak bo’lgan jihatlar ham bor. Darsliklardagi topshiriqlar o’quvchilarni amaliyotga bog’lash bilan bir qatorda hayotga ham tayyorlab borish kabi dolzarb masalalarni hal qilishga qaratilgan bo’lib,o’quvchini har tomonlama rivojlanishiga

keng imkoniyatlar yaratilgan,faqatgina o’qituvchi o’z ustida ishlab, uni o’quvchiga to’g’ri tushuntira olishi, zamonaviy darsliklardagi g’oyalarni o’quvchiga yetkazib bera olsagina, o’quvchilarning bilim olishga qiziqish va ishtiyoqlari o’sib boradi.

Boshlangich ta`lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarshi, kommunikativ savodxonligi va o’z-o’zini anglash salohiyatini shakllantirishga jismonan sog’lom bo’lishga moddiy borliq go’zalliklarni xis eta olishga, g o’zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o’zida singdirish va ardoqqash, ularga rioya qilishga o’rgatadi. Boshlangich ta`lim bosqichi oldiga qo’yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta`lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta`lim standarti asosida davlat boshlangich sinf o’quvchilaridan standartda belgilab qo’yilgan ko’rsatkichlarga erishishni talab qiladi va o’z navbatida bu ko’rsatkichlarga erishish uchun zarur bo’lgan ta`limiy xizmatlar va vositalar bilan ta`minlaydi. Boshlang’ich ta`lim davlat standarti o’quv predmeti bo’yicha emas, balki ta`lim sohalari bo’yicha belgilandi. Ta`lim sohalari bo’yicha standart ko’rasatkichlari 7(6)-11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqozo qilgan ta`lim mazmunining miqdoriga asoslanib belgilanadi. Boshlang’ich ta`lim davlat ta`lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta`lim mazmuni ko’lamini chegaralash, ta`lim sohalarini integratsiyalash imkonini beradi. Davlat ta`lim standartini belgilash boshlang’ich ta`lim mazmunini konseptual asosga tayangan holda modernizatsiyalashni ko’zda tutadi. Davlat ta`lim standarti boshlang’ich ta`lim jarayoni oldiga qo’yilgan ijtimoiy talabga asoslangan holda o’quvchilar egallashlari lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarga qo’yiladigan talablarni belgilab beradi. Bu esa o’z navbatida o’quvchilarning egallagn bilim, ko’nikma va malakalarni baholash mezonlarni belgilashga imkon yaratadi. Boshlangich ta`lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda ayni shu boshlangich sinf o’quvchilarida ko’nikama va malaka hosil qilishga qaratilgan ta`lim sohalarining mujassamlashgan predmentlari tashkil qiladi. Boshlangich ta`lim standarti mazkur ta`lim bosqichining har bir ta`lim sohasi uchun belgilangan standart predmentlari mazkur ta`lim sohasining modernizatsiyalashtirilishi shu mazmunning tarkibiy qismlari, ta`lim jarayonining vosita va metodlari hmda umumpedagogik, psixologik, texnologik tizimi va darajasini belgilab berishga xizmat qiladi. Bunda butun e`tibor boshlangich ta`lim berishning maqsadi yuzasidan butunlik, uzviylik, tadrijiylik va to’laqonlilikni saqlab qolishga qratiladi. Boshlangich ta`lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan qo’yildigan talabda ta`lim sohalari bo’yicha o’zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uygunlik to’la ta`minlangan bo’lmogi kerak. Shu jihatdan boshlangich ta`lim standartini belgilash ta`lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponetlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlangich ta`lim jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani qo’llash imkonni beradi. quyidagi pedagogik omillar ta`lim jarayonida yangi

texnologiyalarni qo’llash uchun asos yarata oladi: - boshlangich ta`lim jarayoniga kiritilgan har bir ta`lim sohasi bo’yicha belgilanadigan ta`lim mazmuniga o’quv materiallarning tadrijiy tarzda berilishini ta`minlash;

- ta`lim jarayonini ta`lim sohalarning maqsadiga bo’ysundirish va ta`lim sohalararo maqsadlarga mutanosibligini ta`minlash; Boshlangich ta`lim standarti ta`lim sohalariga qo’yilgan standart ko’rsatkichlarini mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini ta`lim sohalarida belgilab qo’yilgan ta`lim standartining ko’rsatkichlari tashkil etadi. Ta`lim sohalari bo’yicha ta`lim natijasining sifati xuddi mana shu ko’rsatkichlarga asoslangan holda aniqlanadi. Bu o’rinda belgilab qo’yilgan ko’rsatkichlar umumlashtiriladi hamda aniq o’lchov birliklarida ifodalanadi. Davrning dolzarb talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta`lim tamoyillariga asoslanib jahon tajribasiga tayangan holda O’zbekiston Respublikasidagi boshlang’ich ta`lim tayanch o’quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta`limi sohalari kiritiladi. Boshlang’ich ta`lim bosqichida xorijiy tillarni o’rganish ixtiyoriy bo’lib, u maktab komponetidagi soatlar hisobiga amalga oshirilishi mumkin. O’zbek maktablari uchun rus tili, o’qishlar boshqa tillarda (rus, qozoq, turkman, tojik, qirgiz va boshqa) olib boriladigan maktablarda davlat tili (o’zbek tili) ni o’qitish konsepsiyasidan hamda "Ta`lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o’zbek tili davlat ta`lim standarti" da o’z ifodasini topadi. Shuning uchun ham bu sohalarda olib boriladigan ta`lim mazmuni mazkur standart talablariga tayangan holda belgilanishi lozim. “Ta’lim to’g’risida”gi qonunda “Maktabning birinchi sinfiga bolalar yetti yoshdan qabul qilinadi. Buni uchun yetti yoshli bolalar, maktabning moddiy-texnik bazasi o’qituvchilar pedagogik va psixologik talablar asosida qat’iy diagnostika qilishi shart”.Boshlang’ich ta’lim o’qish, yozish, sanash, o’quv faoliyatining asosiy malaka va ko’nikmalarini, ijodiy fikrlash, o’zini-o’zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiena va sog’lom turmush tarzi asoslarini egallab olishni ta’minlaydi.

Hozirgi davrda umumiy o’rta ta’lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun darsliklar tayyorlashda anchagina muammolar mavjud. Bu muammolar O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonunida uzluksiz ta’lim dasturi mazmuni tizimi uchun o’quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib hal etishni taqozo etadi. Davlat ta’lim standartlari asosida ilmiy, o’quv darsliklar, o’quv qo’llanmalar hamda zamonaviy elektron darsliklar, masofaviy o’qitish, internet tizimi bilan bog’liq axborot texnologiyalarini yaratish, tayyorlash kabi pedagogik muammolar amalga oshirilishi kerak. Darsliklar yaratishda mualliflararo raqobat, sog’lom muhitni yuzaga keltirish, ularning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ta’limning o’quv moddiy, nashriyot bazasini rivojlantirishda muammolar hal etilsa, darsliklarning barqaror tizimi yaratiladi. Oqibatda barcha tipdagi ta’lim

muassasalarida ta’lim oluvchilarning bilim darajalarini takomillashtirib borishga erishiladi.

O’quv-metodik qo’llanmalar-umumta’lim maktablari o’qituvchilariga mo’ljallangan va O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan o’quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan kitob shaklidagi o’quv nashri.

Yo’nalishi va hal qilinadigan vazifalariga ko’ra o’quv qo’llanmalarni quyidagilarga bo’lish mumkin:

- o’quv materialini chuqurlashtiruvchi va uning eslab qolishiga yordam beruvchi qo’llanmalar (xrestomatiyalar, mashqlar to’plami, ma’lum fan bo’yicha o’qish kitob kontur kartalar);
- o’rganilgan masalalarni illyustratsiyalovchi va bu bilan ancha aniq tasavvur hosil qilishga yordam beruvchi qo’llanmalar: (mulyajlar, rasmlar, plakatlar, diagrammalar,atlaslar),
- ko’nikma va malakalarni hosil qilishga yordam beruvchi qo’llanmalar (bosma asosdagi daftarlar, topshiriqlar kartochkasi);
- ma’noni tushunishni yengillashtiruvchi qo’llanmalar (lug’atlar);
- ko’p maqsadda ishlatiluvchi qo’llanmalar: kinofilmlar, ensiklopediyalar va h.k.

Hozirgi davrda umumiy o’rta ta’lim, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari o’quvchilari uchun darsliklar tayyorlashda anchagina muammolar mavjud. Bu muammolar O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonunida uzluksiz ta’lim dasturi mazmuni tizimi uchun o’quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish konsepsiyasi talablaridan kelib chiqib hal etishni taqozo etadi. Davlat ta’lim standartlari asosida ilmiy, o’quv darsliklar, o’quv qo’llanmalar hamda zamonaviy elektron darsliklar, masofaviy o’qitish, internet tizimi bilan bog’liq axborot texnologiyalarini yaratish, tayyorlash kabi pedagogik muammolar amalga oshirilishi kerak. Darsliklar yaratishda mualliflararo raqobat, sog’lom muhitni yuzaga keltirish, ularning sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ta’limning o’quv moddiy, nashriyot bazasini rivojlantirishda muammolar hal etilsa, darsliklarning barqaror tizimi yaratiladi. Oqibatda barcha tipdagi ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilarning bilim darajalarini takomillashtirib borishga erishiladi.

B
u
g
u
n
g
i
k
u
n
d
a

1.Yangi avlod darsliklari bilan avvalgi darsliklarning faqi nimadan iborat?
2.Yangi avlod darsliklarining avzallik tomonlarini misollar asosida izohlang.
3. Boshlang’ich ta’lim o’qituvchisining bugungi kun muammosi nimalardan iborat?
4.Siz faoliyat olib borayotgan sinfingizdagi o’quvchilarning darsliklarga munosabati qanday?

5. “Informatika va AT” fanining afzalliklarini izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 26-martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida” 94-sonli buyrug’i.

2. O’qish savodxonligi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3- sinfi uchun darslik. IV qism. U.B.Aydarova, N.K. Azizova. – Toshkent: “Novda Endutainment”, 2023. – 80 b.

3. Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar: O’quv qo’llanma/ T.Gaffarova. – T.: Tafakkur, 2011.-160 b.

4. “Boshlang‘ich sinflarda o‘qitishning zamonaviy metodikasi” dasturi doirasida trening ishtirokchisi qo‘llanmasi. Toshkent – 2023

5. M.E.Toirova. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

6. Sh.Tahmetova, N.R.Normatova. Ozbek tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

7. I.V.Repyova. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

8. I.V.Repyova. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 2-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

9. I.V.Repyova. Matematika. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

mumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

11. Y.V.Malikova. Tabiiy fanlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.

12. R.R.Ismailova. Tasviriy san’at. Umumiy orta ta’lim maktabining maktablarining 1-sinf uchun darslik. –Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023

IV. Elektron ta’lim resurslari

1.www.uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb sayti

2.www.yaklass.ru – Maktab o‘quvchilari uchun ta’limiy internet resursi.

3. www.google.com – ommabop axborot-qidiruv tizimi

3.2. BOSHLANG’ICH TA’LIM SAMARADORLIGINI XALQARO BAHOLASH DASTURLARI (PIRLS, TIMSS) ASOSIDA OSHIRISH MODULI

’tkazishning maqsad va vazifalari.

(2soat ma’ruza)

O‘quv bloki	**III.** Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar				
O‘quv modul	3.2. Boshlang’ich ta’lim samaradorligini xalqaro baholash dasturlari (pirls, timss) asosida oshirish				
Mavzu	3.2.1.Xalqaro baholash dasturlarini (PIRLS, TIMSS) o’tkazishning maqsad va vazifalari.				
	daqiqa				
Mashg’ulotnin	Ta’limiy maqsad: PIRLS va TIMSS tadqiqotlari doirasida turli ta’lim tizimiga ega bo’lgan davlatlarning 4-sinf bitiruvchilarining o’qish sifati va o’qilgan matnni tushunish, matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha. bilim darajasi o’rganish. Tarbiyaviy maqsad: O’qituvchilarga o’z o’quvchisini darsda mustaqil fikrlash va jamoa bo’lib ishlashga erishish yo’llarini ko’rsatish. Rivojlantiruvchi maqsadi: O’qituvchilarning Xalqaro baholash dasturlarini (PIRLS, TIMSS) ga doir bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish.				
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Mavzu bilan tanishtirish. 1. O’tilayotgan mavzu nazariy tarzda tashkil etilishi, topshiriqlar mazmuni e’lon qilinadi. 2. O’qituvchilarning mavzuga oid bilimlari aniqlanadi. 3. Mashg’ulot qoidalari e’lon qilinadi.	5	Suhbat, tushuntirish, Savol-javob	1-slayd	O’qituvchilar mashg’ulot mavzusi bilan tanishadilar
2. Motivatsiya	“Debatlar” metodi. Guruhlarga muaommoli savol beriladi, guruhlar o’zaro munozaraga kirishadi. Masalan: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xalqaro tadqiqotlarda qatnashishi nima uchun muhim?	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama qilish	“Debatlar” metodi uchun tayyorlangan savollar	O’qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag’batlanadi.
3. Nazariy qism	Xalqaro baholash dasturlarini (PIRLS,	20	Taqdimot, ko’rgazmali	2-15-slaydlar	O’qituvchilar yangi texnologiyalarni

	TIMSS) o’tkazishning maqsad va vazifalari taqdimot orqali tushuntiriladi.		tushuntirish		nazariy jihatdan o’rganadi.
4. Amaliy mashg’ulot	Xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, TIMSS) o’tkazishning maqsad va vazifalari yuzasidan test sinovi o’tkaziladi.	10	Test, savol-javob	Test varaqalari	O’qituvchilar Xalqaro baholash dasturlari haqida ko’nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo’yicha taqdimotlar Test savollarini muhokama qilish Mashg’ulot jarayoni bo’yicha fikr-mulohazalar olish	15	Test bo’yicha muhokama, tahlil	Test varaqalari	O’qituvchilar o’z tajribalarini o’rtoqlashadi va yangi g’oyalarni o’zlashtiradi.
6. Refleksiya	“Feedbek” usuli orqali xulosa qilish	10	“Feedbek”	“Feedbek” varag’i	O’qituvchilar o’z faoliyatini baholaydi va o’rganilgan ma’lumotlarni qayta ko’rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg’ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg’ulotlar uchun tavsiyalar berish	10	Suhbat	Rag’bat varaqalari	O’qituvchilar mashg’ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo’naltiriladi.

’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil g’risida

Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o’rnatish, o’quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g’oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo’llab-quvvatlash hamda rag’batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi (keyingi o’rinlarda Ta’lim inspeksiyasi deb ataladi), Xalq ta’limi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi hamda Moliya vazirligining:

a) quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni (keyingi o’rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etish:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang’ich 4-sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish uchun;

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazini (keyingi o'rinlarda Milliy markaz deb ataladi) tashkil etish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin:

xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etish;

ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash;umumiy o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etgan natijalarini boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg'or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta'lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo'llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;o'qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV
Toshkent sh.,2018-yil 8-dekabr,997-son (2-slayd)

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 29-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonni imzoladi.

Farmon bilan Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish uchun yo'l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada O'zbekistonning 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment), **PIRLS** (***Progress in International Reading and Literacy Study)***

Xalqaro miqyosda o’quvchilarni baholash dasturi reytingi bo’yicha jahonning birinchi 30 ta ilg’or mamlakati qatoriga kirishiga erishish ko’zda tutilgan.

O’quvchilarda ta’lim sifatini nazorat qilish va baholash bo’yicha xalqaro tadqiqot dasturlari quyidagicha nomlanadi:

PISA (*The Programme for International Student Assessment*) –turli davlatlarda 15 yoshli o’quvchilarning savodxonligini (o’qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo’llash qobiliyatini baholovchi dastur.

PIRLS (***Progress in International Reading and Literacy Study)*** – boshlang’ich sinf o’quvchilarining matnni o’qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot.

TIMSS (***Trends in International Mathematics and Science Study***) – 4, 8-sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan o’zlashtirish darajasini aniqlovchi xalqaro monitoring. . **(3-4-slayd)**

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study — xalqaro o’qish savodxonligini o’rganishdagi yuksalish) — bu turli mamlakatlarda boshlang’ich sinfda tahsil oluvchi o’quvchi yoshlarning matnni o’qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir.

Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi butun dunyo bo’ylab ta’limni baholash, tushunish va yaxshilash bo’yicha ish olib boradigan milliy tadqiqot institutlari, tadqiqot agentliklari, olimlar va tahlilchilarning xalqaro hamkoridir. Mazkur notijorat va mustaqil tashkilot tarmog’ida 60 dan ziyod mamlakatlar hamda 100 dan ortiq ta’lim muassasalari ishtirok etmoqda. 1958-yildan buyon IEA o’quvchilarning matematika, tabiiy fanlar hamda o’qish salohiyati bo’yicha savodxonliklarini baholash jarayonida ta’lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish bo’yicha chora-tadbirlar hamda maqbul tavsiyalar yaratishi bilan boshqa xalqaro tashkilotlardan ajralib turadi.

PIRLS tadqiqotlari Xalqaro ta’lim institutlari assotsiatsiyasi **(IEA)** tomonidan muvofiqlashtiriladi. PIRLS loyihasi boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash bo’yicha xalqaro tadqiqotlar orasida yetakchi hisoblanib kelinmoqda. **(5-slayd)**

PIRLS Xalqaro tadqiqotining maqsad va vazifalari, o’tkazish tartibi

PIRLS Ta’limni sinovdan o’tkazish xizmati (AQSh), Kanada statistika markazi (Kanada), Ta’lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma’lumotlarni qayta ishlash markazi (Germaniya) va Boston kollejining xalqaro markazi (AQSh) kabi dunyoning yetakchi ilmiy markazlari ishtirok etmoqda) Ushbu tashkilotlarning eksperimental ravishda sinovdan o’tgan xalqaro standartlar asosida maktab o’quvchilarining o’quv yutuqlarini baholash bo’yicha pedagogik o’lchovlarni ishlab chiqishda ishtirok etishi PIRLS tadqiqotlarini tashkil etish va o’tkazishning yuqori sifatini ta’minlashga imkon beradi.

PIRLSni o’rganish maqsadi dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan to’rtinchi sinf o’quvchilari tomonidan matnni tushunish darajasini taqqoslash, shuningdek, milliy ta’lim tizimlarida o’qish savodxonligi o’rtasidagi tafovutlarni aniqlash.

Tadqiqotning xalqaro lug’atiga ko’ra, “o’quvchi savodxonligi” - bu insonning hayotda o’zini to’liq namoyon qilishi va o’z maqsadlariga erishish uchun zarur

bo’lgan turli yozma tillarni tushunishi va mantiqiy ravishda anglash qobiliyatidir. **(6-slayd)**

Tadqiqot ishtirokchilarining o’quv va o’qishdagi yutuqlarini baholash o’quvchilarning o’qish ko’nikmalarining muayyan darajalariga asoslangan holda maktab ta’limi sifatini baholash sohasidagi xalqaro ekspertlarning ko’rsatmalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu darajalar ishda taklif qilingan matn bilan ishlashda turli murakkablikdagi o’quvchilarning o’quv faoliyatini tavsiflaydi. Aniq darajadagi mezonlar sizga bolalarning natijalarini statistik jihatdan alohida guruhlarga ajratish imkonini beradi, ularning tayyorgarligini o’qish savodxonligi jihatidan ma’lum darajani tavsiflovchi aniq vazifalar yordamida tasvirlash mumkin.

Bajarilgan ishlarni baholash tizimi sifatli va miqdoriy baholashni birlashtiradi. PIRLSni baholash 1000 balli shkala bo’yicha amalga oshiriladi (asosan davlatlar natijalari 300 dan 700 ballgacha).

O’rtacha qiymat - 500 ball, standart og’ish - 100 ball. Har bir topshiriq uchun topshiriqning qiyinligiga qarab ma’lum ball beriladi. Xalqaro ekspertlar o’qish savodxonligini badiiy va axborotli matnlarni o’qish sifatini va o’qish qobiliyatining individual guruhlarini baholash ko’lamiga muvofiq baholaydilar.

PIRLS tadqiqotlarida xalqaro miqyosda hammasi bo’lib, to’rtta daraja ko’rsatilgan**:**

Eng yuqori daraja 625 ball

Yuqori daraja 550 ball

O’rtacha daraja - 475 ballga

Past daraja - 400 ballga to’g’ri keladi **(7-slayd)**

TIMSS – The Trends in International Mathematics and Science Study

TIMSS tadqiqotlari ta’lim yutuqlarini baholash Xalqaro assotsiatsiyasi tashabbusi bilan 1990 yilda tuzilgan. Tadqiqot doirasida matematik va tabiiy bilimlar sifati baholanadi. 1995-2011 yillar mobaynida ushbu tadqiqotning 5 sikli o’tkazilgan. Unda 50 dan ortiq mamlakatlar ishtirok etgan.

TIMSS (TIMSS - Trends in Mathematics and Science Study) maktab matematikasi va tabiatshunoslik ta’limining sifatini xalqaro monitoring o’rganish Xalqaro IEA akademik yutuqlarni baholash assotsiatsiyasi tomonidan tashkil etilgan dasturdir. Ushbu tadqiqot dunyoning turli mamlakatlarida boshlang’ich maktabning 4-sinf o’quvchilari va 8-sinf o’quvchilarining matematik va tabiiy-tabiat ta’limi darajasi va sifatini taqqoslash, shuningdek milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga imkon beradi.

TIMSS tadqiqotlari uchun "TIMSS baholash asoslari va texnik shartlari" maxsus qo’llanma ishlab chiqilgan bo’lib, faoliyatda mazkur hujjatidan foydalaniladi. Bu matematika va fan bo’yicha ta’lim yutuqlarini baholash, testlar va test topshiriqlarini ishlab chiqishda umumiy yondashuvlarni belgilaydi, shuningdek matematika va tabiatdagi tekshiriladigan tarkibni tavsiflaydi, topshiriqlarni bajarishda talabalar ko’rsatishi kerak bo’lgan bilim faoliyati turlari, talabalar, o’qituvchilar va ta’lim muassasalarini tavsiflovchi asosiy omillarni sanab o’tadi, ularni tahlil qilish uchun anketa jarayonida ma’lumotlar to’planadi.

TIMSS xalqaro tadqiqot qo’llanmasi quyidagilarni o’z ichiga oladi:

Harakat testlari;

anketalar (talabalar, o’qituvchilar, ta’lim muassasasi ma’muriyati, ta’lim bo’yicha mutaxassislar, tadqiqotlar sifatini kuzatuvchilar uchun);
uslubiy qo’llab-quvvatlash (tadqiqotlarni tashkil etish va o’tkazish bo’yicha milliy koordinatorlar uchun ko’rsatmalar, namuna olish bo’yicha ko’rsatmalar, maktab koordinatorlari uchun ko’rsatmalar, test o’tkazish uchun ko’rsatmalar, bepul javoblar bilan narsalarni tekshirish bo’yicha ko’rsatmalar, ma’lumotlarni kiritish bo’yicha ko’rsatmalar va boshqalar);
dasturiy ta’minot (sinflar va talabalarni tanlash uchun, ma’lumotlarni kiritish uchun).
Xalqaro testlar quyidagi printsiplar asosida ishlab chiqilgan:
sinovdan o’tgan o’quv-bilim faoliyati turlarini yetarli darajada qamrab olish;
xalqaro testlar tarkibining qatnashgan mamlakatlarning ko’pchiligida o’rganilayotgan materialga maksimal darajada muvofiqligi;
testlarning aloqasi;
matematika va tabiiy ta’limni rivojlantirish nuqtai nazaridan tekshirilayotgan tarkibning ahamiyati;
yutuqlarini baholash uchun test sinovi ishlab chiqilgan talabalarning yosh xususiyatlariga muvofiqligi;
ommaviy tadqiqotlar uchun talablarga muvofiqligi**. (9-slayd)**

TIMSS yordamida o’quvchilarning quyidagi ta’limiy yutuqlari baholanadi

Singapurda

O’qish va matematik savodxonlikning mustahkam poydevorini yaratishga alohida e’tibor qaratilishi;

O’quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlash va hayotiy ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilgan qo’shimcha fanlarni tanlov asosida o’qitilishi;

O’quv dasturlarida o’quvchilarning muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishning beshta o’zaro bog’liq komponentlari qo’llab-quvvatlanadi: tushunchalar, ko’nikmalar, jarayonlar, metakognitivlik va ustanovkalar. Ushbu tizim matematikani o’qitish, o’rganish va baholash yo’nalishlarini ta’minlab beradi.
Ta’limning xalqaro talablarga javob bera oladigan (xalqaro tadqiqotlarda birinchi 3 likda mustahkam joylashgan) ko’nikmalarni rivojlantirishga yo’naltirilganligi.
(10-slayd)

Janubiy Koreyada

Oliy ma’lumotli bo’lish va kelajakda ijtimoiy - iqtisodiy farovonlikka intilish zaruriyatini madaniyat darajisida tan olinish;

O’quv dasturlari mazmunining o’quvchilar hayotiy ko’nikmalarini rivojlantirishga yo’naltirilganligi;

Mamlakat muntazam ravishda aholi savodxonligi darajasi va maktab ta’limi sifati (97,9%) etakchi hisoblanadi;

O’quvchilar o’quv faoliyati natijalarini baholashning differensiallashgan tizimining joriy etilganligi;

O’quvchilarning qiziqishlariga ko’ra individual yondashuv asosida fanlarni tanlash imkoniyatining yaratilganligi;
Jamiyatda o’qituvchi mavqeining yuksakligi va ularning kasbiy rivojlanishga motivatsiyasi yuqoriligi va boshqalar.

Xulosa. Xalqaro PIRLS va TIMSS tadqiqoti eng yaxshi o’quv dasturlari va yosh o’quvchilarning o’qish qobiliyatlarini rivojlantirish tajribasi haqida noyob axborot materiallarini taqdim etadi. PIRLS va TIMSS ga qatnashish O’zbekistonga boshlang’ich sinf o’quvchilari orasida o’qish qobiliyatlari darajasini mustaqil ravishda obyektiv baholash imkonini beradi. Bundan tashqari, O’zbekiston ta’limining ochiqligi va integratsiyalashuvi dunyoning yetakchi ta’lim tizimlarining xalqaro hamjamiyatiga integratsiyalashuvini ta’minlaydi.

Refleksiya.

1. Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etilishi yuzasidan qanday ma’lumotlarga ega bo’ldingiz?
2. Xalqaro PIRLS tadqiqotining eng yaxshi o’quv dasturi ekanligini isbotlovchi 2 ta fikr bildiring.
3. TIMSS tadqiqotining ahamiyatli jihatlarini sanab bering**.**

1. Xalqaro tadqiqotlarda qatnashib, muvaffaqiyatlarga erishish uchun eng avvalo…..

A) O’quvchilar ko’proq kitob o’qishlari kerak

B) O’qituvchilar tadqiqotlarning mazmun-mohiyatini anglab olishlari kerak

C) Darsliklar mazmunini tadqiqotlar mazmuni bilan uzviylashtirish lozim

D) O’quvchilarni tadqiqotlarga tayyorlash lozim

2. PIRLS tadqiqotlari qachondan boshlab, necha yil oralig’ida boshlang’ich ta’lim miqiyosida o’tkazib kelinmoqda?

*a) 2001-yildan boshlab, 5 yil oralig’ida

b) 2000-yildan boshlab, 5 yil oralig’ida

c) 2001-yildan boshlab, 3 yil oralig’ida

d) 2000-yildan boshlab, 4 yil oralig’ida

’zbekistonning xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishi va bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilandi”

’g’risida”gi 997-sonli qarorida

B) Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb –hunar ’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida “gi 187-sonli qarorida

C) “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da

D) “2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI”da aniqlash;

matematika va tabiiy fanlarni o’rganish natijasida olgan bilim va ko’nikmalarini baholash

’qtish bo’yicha xalqaro an’analar deb nomlangan xalqaro tadqiqotlar

’qituvchilar uchun mavzu bo’yicha o’qitish vaqtini uzaytiradi.

’quvchilarga maktabda o’rganilgan materialni mustahkamlash imkonini beradi

5. TIMSS dasturiga ko’ra sinfdagi o’quvchilar soni qancha belgilangan?

*a) 16 nafar
b) 10 nafar
c) 15 nafar
d) 22 nafar

’quvchilari bilimlarini baholashga mo’ljallangan?

-sinf
-sinf va 5-sinf
-sinf va 9-sinf
-sinf

3.2.2.mavzu: PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullari (2 soat amaliy)

O‘quv bloki	**III.** Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar
O‘quv	3.2. Boshlang’ich ta’lim samaradorligini xalqaro baholash dasturlari (pirls, timss) asosida oshirish
Mavzu	2. PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullari
	daqiqa
Mashg’ulotn	Ta’limiy maqsad: boshlang’ich ta’lim o’qish fanidan PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullarini o‘rganish. Tarbiyaviy maqsad: O’qituvchilarga o’z o’quvchisini darsda mustaqil fikrlash va jamoa bo’lib ishlashga erishish yo’llarini ko’rsatish.

	Rivojlantiruvchi maqsadi: O’qituvchilarning PIRLS Xalqaro baholash dasturiga doir bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish.				
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Mavzu bilan tanishtirish. 1. O’tilayotgan mavzu amaliy tarzda tashkil etilishi, topshiriqlar mazmuni e’lon qilinadi. 2. O’qituvchilarning mavzuga oid bilimlari aniqlanadi. 3. Mashg’ulot qoidalari e’lon qilinadi.	5	Suhbat, tushuntirish, Savol-javob	1-slayd	O’qituvchilar mashg’ulot mavzusi bilan tanishadilar
2. Motivatsiya	“Moslashtiring”. metodi So‘zlar va shu so’zlarning izohlari yozilgan varaqalar aralashtirgan holda ishtirokchilarga tarqatiladi, har bir ishtirokchi o’z so’zining izohini topishi lozimligi tushuntiriladi. O’qituvchi tomonidan xato va kamchiliklar tuzatib boriladi.	10	“Moslashtiring”	“Moslashtiring” metodi uchun tayyorlangan so’zlar	Tinglovchilar bajarayotgan ishlarida o’zlari uchun tanish bo’lgan so’zlarning ma’nosini nechog’lik bilishi yoki bilmasliklarini aniqlash orqali, o’quv jarayoniga kirishib ketishadi
3. Nazariy qism	PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullari taqdimot orqali tushuntiriladi.	10	Taqdimot, ko’rgazmali tushuntirish	2-10-slaydlar	Taqdimot natijasida olingan bilimlar boyitiladi
4. Amaliy mashg’ulot	Boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan matnlar uchun PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash	30	Amaliy ish. Matn asosida topshiriq tayyorlash	Matnlar	Mavzu asosida o’rgangan ma’lumotlaridan eng optimal variantlarni tanlashni, natijalarni umumlashtirishni va amaliyotda qo’llashni

					o’rganishadi. O’qituvchilar Xalqaro baholash dasturlari haqida ko’nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo’yicha taqdimotlar. Darsliklarda berilgan matnlar uchun tuzilgan PIRLS topshiriqlari namunalari ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi	15	Amaliy ish. Matn asosida topshiriq tayyorlash	Matnlar	O’qituvchilar o’z tajribalarini o’rtoqlashadi va yangi g’oyalarni o’zlashtiradi.
6. Refleksiya	Olingan natijalar “RUBRIKA” metodi orqali umumlashtirilib, eng faol guruhlar rag’batlantiriladi. “RUBRIKA” natijalari bilan tanishish va kamchiliklarni bartaf etish, takliflar bo’yicha ishlash tushuntiriladi.	5	“RUBRIKA”	“RUBRIKA” varag’i	O’qituvchilar o’z faoliyatini baholaydi va o’rganilgan ma’lumotlarni qayta ko’rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg’ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg’ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	Rag’bat varaqalari	O’qituvchilar o’z faoliyat natijalari bilan tanishadilar, mavzu yuzasidan yangi ma’lumotlarga ega bo’lishadi..

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilashda ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan tahlillarni taqdim etadi. Hozirgi vaqtda PIRLS ta’rifiga ko‘ra, o‘qish savodxonligi jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish, shuningdek, matnlardan turli shakllarda ma’no hosil qila olish qobiliyati hamdir[1].

O‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega

bo‘lishi mumkin. Bular an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi.

PIRLS tadqiqotida o‘quvchilarning dars vaqtida va maktabdan tashqari vaqtlarida o‘qishini ikki turi baholanadi:

1. O‘quvchining adabiy tajribasini baholash maqsadida o‘qish;
2. Ma’lumotni o‘zlashtirish va undan foydalanish maqsadida o‘qish**.(2-slayd)**

Tadqiqot qoidalariga muvofiq, badiiy va informatsion matnlarni o‘qiyotganda o‘qish qobiliyatining to‘rtta guruhi baholanadi:

1. *Aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish;*
2. *Xulosalarni shakllantirish;*
3. *Ma’lumotlarni talqin va sintez qilish;*
4. *Mazmuni, til xususiyatlari va matn tuzilishini tahlil qilish va baholash.* **(3-slayd)**

Tadqiqotdagi matnlar murakkabligiga ko‘ra, o‘rtacha 500 dan 800 tagacha, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi darajasi past bo‘lgan mamlakatlar uchun 400–500 ta, PIRLSda esa, taxminan 1000 ta so‘zdan iborat bo‘ladi.

Matnning mazmuni 9-10 yoshdagi o‘quvchilarga mos, ayrim madaniyatlarga juda xos bo‘lgan mavzulardan chetlashgan, shuningdek, qiziqarli hamda o‘quvchiga unchalik tanish bo‘lmaydi.

PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligining darajalari quyidagicha tavsiflanadi:
Eng yuqori daraja (625 ball va undan yuqori) – O‘quvchilar matnni yaxlit o‘zlashtira oladi va ayni paytda uning alohida qismlarini bir-biri bilan bog‘liq holda tushunadi. Muallifning g‘oyasini izohlashda o‘z fikrini asoslash uchun matnga tayana oladi.

Yuqori daraja (550 ball) – O‘quvchilar matnning ahamiyatli xabarlarini tushunadi, matnga asoslanib o‘z xulosalarini chiqaradi, matn mazmuniga ham, shakliga ham baho bera oladi, uning ayrim til xususiyatlariga e’tibor qarata oladi.

O‘rta daraja (475 ball) – O‘quvchilar matndan axborot topa oladi, matn shakli va tilining ba’zi xususiyatlaridan foydalanib, matnga asosan o‘z xulosalarini chiqaradi.

Quyi daraja (400 ball) – O‘quvchilar matnda aniq berilgan va cheklash oson bo‘lgan xabarni ajratib oladi. **(4-slayd)**

Natijalarni baholash tartibi

PIRLS da bajarilgan ishlarni sifatli va miqdoriy baholash uchun quyidagi tizim qo‘llanadi:

- javobni tanlash usulidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- mavzu ketma-ketligini belgilash borasidagi to‘g‘ri javoblar 1 ball bilan baholanadi;
- erkin javob berishg kerak bo‘lgan topshiriqlar vazifaning murakkabligiga qarab 1 balldan 3 ballgacha baholanadi.

Natijalarni yakuniy qayta ishlash uchun zamonaviy sinov nazariyasi qo‘llanadi.

PIRLS tadqitotlarida o’quvchilar bilimini baholash mezonlari

1. **Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o’qish**.

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	**400 - 474**	1. Matnning muayyan qismlarini ajratib ko’rsatish. 2. Ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.
O’rta	**475 – 549**	1. Voqealar o’rtasidagi o’zaro aloqalarni ko’rsatish. 2. Matnning umumiy g’oyasini aniqlash. 3. Matn tarkibining elimentlarini ochib berish. 4. Qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish
Yuqori	**550 – 624**	1. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his – tuyg’ularini taqqoslash va qiyoslash. 2. Ularning o’zaro aloqalarini tushuntirish. 3. Matnda qo’llangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil o’tkazish.
Oliy	**625 va undan yuqori**	1. Matnning asosiy g’oyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish. 2. Matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuyg’ularini izohlash orqali javob berish. 3. Matndan misollar keltirgan holda, javoblarni asoslash.

(5-slayd)

2. Axborotni o’zlashtirish va foydalanish maqsadida o’qish

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	**400 - 474**	1. Matda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash. 2. Kerakli axborotni o’zida mujassamlashtirgan gapni ajratish. 3. Xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish.
O’rta	**475**	1. Matnda yaqqol taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish. 2. Matnning turli qismlarini tahlil qilish va kerakli

		axborotni ajratish.
Yuqori	**550 – 624**	1. Matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash. 2. Matndagi alohida gaplar o'rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash. 3. Matn mazmunini izohlab berish. 4. Turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash.
Oliy	**625 - 1000**	1. Matnning turli qismlaridagi murakkab ma'lumotlarni anglash va asoslash. 2. Matndagi ma'lumotlarni tushunish uchun aniq va noaniq elimentlarni baholash va ahamiyatini tushuntirish. 3. Matnlar, xaritalar, illuystrasiyalar,diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma'lumotlarni umumlashtirish.

(6-slayd)

"Do'stlik" hikoyasi uchun topshiriqlar tayyorlash

Topshiriqlar

1. Hikoya mazmunini ochib beruvchi 3 ta eng asosiy gaplarni tartib bilan yozing. . **(7-8-slayd)**
2. Hikoyadagi voqealar ketma-ketligini raqamlarda tartiblang.

(Katakchalarga yozing)

Qorong'i tushib, ko'z ko'rmay qolguncha quyonni quvlashdi.

Bir nafasdan so'ng xat ham tayyor bo'lgan edi.

O'sha kuni Abduqodir Vova bilan durustgina tanishib oldi.

«Esingdami, Vova», deb boshladi.

Bu voqea 4-sinfda o'qiyotganlarida yuz bergan edi. **(9-slayd)**

3. "Chiyabo'rining chaqaloqning ingalashiga o'xshash ovozi!" Ushbu jumlani ta'riflab yozing?
4. Hikoyada bolalarning haqiqiy do'stligi qaysi jumlalarda ayon bo'lgan?

(Katakchalarga yozing)

Kerak bo'lsa, olaver.

Ular birga dars tayyorlashar, birga o'ynashar!

Bir nafasdan so'ng xat ham tayyor bo'lgan edi.

Ular olma keltirish uchun bog'ga borishdi.

Ikkovlarini ham cho'chitib yubordi.

5. Bolalar qo‘rqmasliklari uchun nimalar qlishdi?
6. Sizning ham Vovadek yaqin do’stingiz bormi? U haqida yozingchi.
7. Asar qahramonlarini xarakterlarini yoriting.

Vova:

Abduqodir: **(10-slayd)**

8. Abduqodir xatida Vovaga nimalar haqida yozdi?
9. Siz o‘zingizni haqiqiy do‘stman deb ayta olasizmi? Fikringizga 3 ta sabab yozing.
10. Sadoqatli do‘st bo‘lish uchun insonda qanday fazilatlar bo‘lishi lozim deb o‘ylaysiz?
11. Do’stlik haqidagi maqollardan yozing. **(11-slayd)**

Xulosa. Bugun mamlakatimizda ta‘lim sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizim shakllanmoqda. Ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizim bilan qiyosiy va har tomonlama tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro loyihalarni joriy qilish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim sanaladi. **(12-slayd).**

Refleksiya.

1. PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqishda nimalarga e’tibor berish kerak?
2. PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli qatnashish uchun takliflaringiz?
3. PIRLS tadqiqotining ahamiyatli jihatlarini sanab bering**. (13-slayd)**

“Moslashtiring”

PISA	Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) — 4 va 8-sinf o’quvchilarining matematika va tabiiy yo’nalishdagi fanlardan o’zlashtirish darajasini baholash dasturi
PIRLS	ICILS- kompyuter va axborot savodxonligini xalqaro o’rganish dasturi

TALIS	The Teaching and Learning International Survey (TALIS) — rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish dasturi
ICILS	The Programme for International Student Assessment (PISA) — 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash dasturi
TIMSS	Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholashdasturi

3.2.3 O‘qish darsliklaridagi matnlar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash (2soat amaliy)

O‘quv bloki	**III.** Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar				
O‘quv	3.2. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini xalqaro baholash dasturlari (pirls, timss) asosida oshirish				
Mavzu	3.2.3 O‘qish darsliklaridagi matnlar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash (2soat amaliy)				
	daqiqa				
Mashg'ulot	Ta'limiy maqsad: boshlang'ich ta'lim o‘quvchilarning o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish. topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullarini o‘rganish. Tarbiyaviy maqsad: O'qituvchilarga o'z o'quvchisini darsda mustaqil fikrlash va jamoa bo'lib ishlashga erishish yo'llarini ko'rsatish. 'quvchilarni PIRLS tadqiqotlarga tayyorlash jarayoniga doir bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish.				
Mashg'ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Mavzu bilan tanishtirish. 1. O'tilayotgan mavzu amaliy tarzda tashkil etilishi, topshiriqlar mazmuni e'lon qilinadi. 2. O'qituvchilarning mavzuga oid bilimlari aniqlanadi.	5	Suhbat, tushuntirish, Savol-javob	1-slayd	O'qituvchilar mashg'ulot mavzusi bilan tanishadilar

	3. Mashg’ulot qoidalari e’lon qilinadi.				
2. Motivatsiya	“Moslashtiring”. metodi So‘zlar va shu so’zlar-ning izohlari yozilgan varaqalar aralashtirgan holda ishtirokchilarga tarqatiladi,	10	“Moslashtiri ng”	“Moslas htiring” metodi uchun tayyorla ngan so’zlar	Tinglovchilar bajarayotgan ishlarida o’zlari uchun tanish bo’lgan so’zlarning ma’nosini nechog’lik bilishi yoki bilmasliklarini aniqlash orqali, o’quv jarayoniga kirishib ketishadi
3. Nazariy qism	topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullari taqdimot orqali tushuntiriladi.	10	Taqdimot, ko’rgazmali tushuntirish	2-10-slaydlar	Taqdimot natijasida olingan bilimlar boyitiladi
4. Amaliy mashg’ulot	Boshlang‘ich sinf darsliklarida berilgan mavzular uchun PIRLS topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash	30	Amaliy ish. Matn asosida topshiriq tayyorlash	Matnlar	Mavzu asosida o’rgangan ma’lumot-laridan eng optimal variantlarni tanlashni, natijalarni umumlash-tirishni va amaliyotda qo’llashni o’rganisha-di.O’qituvchilar Xalqaro baholash dasturlari haqida ko’nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo’yicha taqdimotlar. Darsliklarda berilgan mavzular uchun tuzilgan PIRLS topshiriqlari namunalari ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi	15	Amaliy ish. Matn asosida topshiriq tayyorlash	Matnlar	O’qituvchilar o’z tajribalarini o’rtoqlashadi va yangi g’oyalarni o’zlashtiradi.
6. Refleksiya	Olingan natijalar “BBB” metodi orqali umumlashtirilib, eng faol guruhlar rag’batlantiriladi.	5	“BBB”	“BBB” varag’i	O’qituvchilar o’z faoliyatini baholaydi va o’rganilgan ma’lumotlarni qayta ko’rib chiqadi.

	“BBB” natijalari bilan tanishish va kamchiliklarni bartaf etish, takliflar bo’yicha ishlash tushuntiriladi.				
7. Yakunlash va baholash	Mashg’ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg’ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	Rag’bat varaqalari	O’qituvchilar o’z faoliyat natijalari bilan tanishadilar, mavzu yuzasidan yangi ma’lumotlarga ega bo’lishadi..

Quyida o‘qish darsliklaridagi matnlar uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash metodikasi bo‘yicha batafsil, amaliy qo‘llanma beraman. Agar sizga aniq bir matn uchun topshiriqlar kerak bo‘lsa — matnni yuboring, tayyorlab beraman.
O‘qish darsliklaridagi matnlar bilan ishlash jarayoni odatda quyidagi 4 bosqichga asoslanadi:
Matnni idrok etishga tayyorlash (motivatsiya bosqichi).Bu bosqichda o‘quvchilar matnni o‘qishga ruhiy tayyorlanadi.Tavsiya etiladigan topshiriqlar:

Savol-javob: “Nima haqida bo‘lishi mumkin?”, “Sarlavha sizga nima haqida gapirmoqda?”

Rasmlar asosida taxmin qilish

Kalit so‘zlar bilan ishlash: matndan olingan 3–4 so‘z bo‘yicha mazmunni taxmin qilish

Muammo vaziyat yaratish: “Agar sen shu holatda bo‘lsang, nima qilarding?”

Matnni o‘qish (idrok etish bosqichi)
Bu jarayonda o‘quvchilar matnni tushunish uchun aqliy faoliyatni ishga soladi.
Tavsiya etiladigan topshiriqlar:

Matnni ovoz chiqarib,o‘z ichida o‘qish
Matndan asosiy g‘oyani topish
Qahramonlarni aniqlash va ta’riflash
Vaqea ketma-ketligini belgilash
Savollarga javob topish (matnga tayangan holda)

Matn ustida ishlash (tahlil va izoh bosqichi)
Bu bosqich darsning eng muhim qismi. Matn mazmuni chuqur tahlil qilinadi.
Topshiriqlar:Tahliliy topshiriqlar

Matnning qismlarini topish va nomlash
Qahramonlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish
Muammo va yechimni aniqlash

Voqealarni vaqt ketma-ketligiga joylashtirish

“Nima uchun?” savollariga javob berish

Lug‘at ustida ishlash

Qiyin so‘zlarning izohini topish

Sinonim/antonim topish

So‘zlardan gap yoki matn tuzish

O‘quvchi fikrlashini rivojlantiruvchi topshiriqlar

Klaster tuzish (asosiy g‘oya atrofida)

Venn diagramma (qahramonlarni solishtirish)

Insert (bilaman / bilmoqchiman / bildim)

Matn asosida ijodiy ishlash (mustahkamlash bosqichi)

Bu bosqich o‘quvchining tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.

Ijodiy topshiriqlar:

Matn davomiga hikoya uydirish

Qahramonlardan biriga xat yozish

She’r/hikoyani o‘zingcha qayta yozish

Sahnalashtirish

Rasm chizish va sharhlash

“Agar men qahramon bo‘lganimda…” mavzusida esse

Topshiriqlarni tuzishning umumiy tamoyillari

- Yoshga mos bo‘lishi
- Matn mazmuni bilan bog‘liq bo‘lishi
- O‘quvchini faollashtirishi
- Turli darajadagi o‘quvchilar uchun variantlar berilishi
- Savollar aniq, tushunarli bo‘lishi

“Koinotga parvozlar” mavzusi uchun topshiriqlar

Matnni o‘qishga tayyorlovchi topshiriqlar

1. Matn sarlavhasiga qarang.
   Savol: Sizningcha matn nima haqida bo‘ladi?
2. Rasmlarga qarab (agar bo‘lsa), koinot haqida nimalarni bilasiz?
3. “Koinot”, “kosmonavt”, “raketa” so‘zlarini eshitganda xayolingizda nimalar paydo bo‘ladi?

Matnni tushunish uchun savollar

1. Birinchi koinotga uchgan odam kim edi?
2. Matnda raketaning qanday vazifalari aytilgan?
3. Koinotga parvozlar nega muhim deb o‘ylaysiz?
4. Kosmonavtlar parvozga qanday tayyorlanadi?
5. Matndan koinot haqida yangi bilgan 3 ta ma’lumotingizni yozing.

Tahlil qilish topshiriqlari

1. Matndagi voqealarni ketma-ketlik bilan joylashtiring.
2. Koinotga parvoz qilgan odamlarning **jasoratini** qanday baholaysiz? Nima uchun?
3. Matnda aytilgan ilmiy yutuqlarni ajrating va ro‘yxat tuzing.
4. Quyidagi jadvalni to‘ldiring:

Fakt	Men bilganman	Men uchun yangi
Koinotga oid ma’lumot	☑	☑

Lug‘at ustida ishlash

Quyidagi so‘zlarning ma’nosini tushuntiring (matn asosida):

Orbita,kosmonavt, kapsula,raketa uchirgich, stansiya

Topshiriq:

Har bir so‘z bilan bittadan gap tuzing.

Ijodiy topshiriqlar

1. “Agar men kosmonavt bo‘lsam…” mavzusida 5–7 gapli kichik insho yozing.
2. Koinotga uchayotgan raketa tasvirini chizing va tasviringizni sharhlab bering.
3. Matn asosida kichik dialog tuzing:
   Kosmonavt va bolaning savollari.
4. Matnning davomiga qisqa hikoya uydiring: “Parvozdan keyin…”

Differensial (darajali) topshiriqlar

Oson

Matndan 3 ta faktni ajratib yozing.

Raketa nima uchun kerakligini tushuntiring.

O‘rta

Koinotga parvozlarning insoniyat uchun foydalarini sanab bering.

Kosmonavtlar tayyorgarligi haqida 5 ta gap tuzing.

Murakkab

Koinotga parvozlar bo‘lmasa, texnika rivoji qanday bo‘lardi? O‘z fikringizni izohlang.

Koinotga parvozlar bilan bog‘liq 1 muammoli vaziyat yarating va yechimini taklif eting

“Bitta so‘z bilan” refleksiya .**O‘quvchi darsni bir so‘z bilan baholaydi:**

Qiziqarli, oson, yangi, foydali, murakkab...

Test savollari; . Matn ustida ishlashning asosiy maqsadi qaysi?

A) Grammatik qoidalarni yodlash

B) Matn mazmunini tahlil qilish va tushunish

C) Shaxsiy fikrlarni eslab qolish
D) Rasm chizish
To‘g‘ri javob: B
2. “Insert” metodi nima uchun qo‘llanadi?
A) Grammatik mashqlar uchun
B) O‘qish tezligini oshirish uchun
C) Matnni o‘qish jarayonida belgilash va tahlil qilish uchun
D) Qahramonlarni rollarga bo‘lish uchun
To‘g‘ri javob: C
3. Matnni tahliliy o‘qishning birinchi bosqichi qaysi?
A) Ijodiy topshiriqlar
B) Matn mazmunini umumlashtirish
C) Matnni bo‘laklarga ajratish
D) Reja tuzish
To‘g‘ri javob: C
4. Ifodali o‘qish metodining asosiy vazifasi nima?
A) Matnni yod olish
B) To‘g‘ri talaffuz, urg‘u va intonatsiyani shakllantirish
C) Matnni tarjima qilish
D) O‘quvchilarga test yechdirish
To‘g‘ri javob: B
5. Qaysi metod o‘quvchilarni guruhda ishlashga o‘rgatadi?
A) Aqliy hujum
B) Sinkveyn
C) Rollarga bo‘lib o‘qish
D) Klaster
To‘g‘ri javob: A

’llari
’ulot)

O‘quv bloki	**III.** Fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar
O‘quv	3.2“Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, ”
Mavzu	’llari
	daqiqa
	Ta’limiy maqsad: boshlang’ich ta’lim matematika va tabiiy fanlaridan TIMSS

Mashg’ulot	topshiriqlari namunalari ishlab chiqish va ular ustida ishlash usullarini o‘rganish. Tarbiyaviy maqsad: O’qituvchilarga o’z o’quvchisini darsda mustaqil fikrlash va jamoa bo’lib ishlashga erishish yo’llarini ko’rsatish. ’quvchilarni TIMSS tadqiqotlarga tayyorlash jarayoniga doir bilim va ko’nikmalarini rivojlantirish.				
Mashqning o'ziga xos xususiyatlarini aniqroq belgilash uchun yuqoridagi ikki asos hisobga olinadi. Masalan, mashqning vazifasi aralash berilgan so'zlardan gap tuzishni va gap bo'laklarini ajratishni talab etsa, bu mashq bilimni shakllantirish turiga ko'ra sintaktik mashq, faoliyat xarakteriga ko'ra sintetik-analitik mashq hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda sof morfologik yoki sof sintaktik mashq juda kam ko'llaniladi, shuning uchun ham vazifaning etakchi tomoni hisobga olinadi. Masalan, matnga mazmunga mos otni qo'yish, qaysi kelishik ekanini ko'rsatish talab etilsa, bu leksik-morfologik mashqdir. O'quvchi otning qaysi kelishikda ekanini aniqlash uchun u bog'langan so'z (fe'l yoki ot)ni aniqlashi (so'z

birikmasini ajratishi) talab etiladi, shunga ko’ra bu mashq sintaktik mashq hisoblanadi.

Grammatiktahlil analitik mashqqa kiradi. Grammatik tahlil so’z turkumiga ko’ra (morfologik) tahlilni, gap bo’laklariga ko’ra (sintaktik) tahlilni o’z ichiga oladi.

Gap bo’laklariga ko’ra tahlil o’quvchilar o’zlashtirgan sintaktik bilimlarning me’yoriga qarab chuqurlashib boradi.

Amaldagi dasturga ko’ra, 1-sinf o’quvchilari “ega” va “kesim” atamalaridan foydalanmaydilar, ammo ular gapniig bosh bo’laklarini amaliy ravishda topish ko’nikmasiga ega bo’ladilar, ya’ni gap kim yoki nima haqida aytilganini bildirgan so’z (ega)ni, u haqda nima deyilganini anglatgan so’z(kesim)ni topadilar. Masalan, Bolalar olmalarni terdilar gapini tahlil qilishda o’quvchilar quyidagicha fikr yuritadilar: “Gap bolalar haqida aytilgan. Kimlar? – bolalar (so’zning tagiga bitta to’g’ri chiziq chizadilar). Bolalar – nima qildilar? terdilar (so’zning tagiga ikki to’g’ri chiziq chizadilar). Bolalar terdilar – gapning asosiy qismi; nimalarni? (terdilar) – olmalarni”.

2-sinfda 1-sinfdagidek muhokama qilinadi, faqat mazmuni chuqurlashtiriladi. Masalan, 2-sinf o’quvchisi “CHiroyli gullar adirlarni bezadi” gapini quyidagicha tahlil qiladi: “Gap gullar haqida aytilgan. Nimalar? – gullar – ega (tagiga bir chiziq chizadi). Paxtalar haqida nima deyilgan? Ochildi – nima qildi? – kesim (tagiga ikki to’g’ri chiziq chizadi). Qaerlarni? (bezadi) – adirlarni – ikkinchi darajali bo’lak, gapni to’ldirayapti (tagiga uzuq chiziq chizadi). Qanday? (gullar) – chiroyli (gullar) ikkinchi darajali bo’lak, egani izohlayapti. Gullar bezadi – gapning asosi. Chiroyli gullar va adirlarni bezadi – so’z birikmasi”.

3-4-sinflarda sintaktik tahlil sifat jihatidan o’zgarmaydi, ammo so’z birikmasini ajratishga ahamiyat beriladi.

Morfologik tahlilning mohiyati so’zning qaysi so’z turkumi ekani, gapda qanday grammatik shaklda kelganida ifodalanadi.

To’liq morfologik tahlilda o’quvchi so’z turkumining o’zi o’rgangan belgilarini aytadi. Masalan, 1-sinf o’quvchisi shu so’z qanday savolga javob bo’lishini va nimani bildirishini aytadi (shaxs yoki narsa, narsa belgisi, harakati).

Mantiqiy mashqlar

Mantiqiy mashqlar bolalarning narsa va atrof-muhit haqidagi bilimlarini tartibga soladi va ularga to’g’ri fikrlash usullarini o’rgatadi. O’quvchi maktabga kelganda, keng lug’at boyligiga ega bo’lsa ham, odatda, tafakkurning taqqoslash, qarshi qo’yish, umumlashtirish, guruhlash usullaridan foydalanishni bilmaydi (ayniqsa, bilish faoliyatining ob’ekti aniq predmet emas, uni ifodalovchi so’zlar bo’lsa). Mantiqiy mashqlarning vazifasi u yoki bu narsa va hodisalar bilan tanishish asosida bolalarni predmet va hodisalardan muhimini, umumiysini

ajratishga, so’z bilan aniq ifodalashga o’rgatish, bolalarga mantiqiy usullar tizimini o’rgatish bilan bilimini material tomondan boyitish va uni aqliy tomondan o’stirish hisoblanadi.

Mantiqiy mashqlar bolalarning so’z boyligi va tilining umumiy o’sishida katta ahamiyatga ega bo’lib, lug’at ishi va tilga oid boshqa ishlar bilan bog’lab olib boriladi. Logik mashqlar juda xilma-xil:

1. Narsalarnpng mavzuga tegishli guruhini tuzish: ust kiyimlar (ko’ylak, kostyum, . . .) va oyoq kiyimlar (botinka, tufli, ..); uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar kabi. Bunda bolalar «Bu nima?» so’rog’iga javob berishga o’rgatiladi: Bu n i m a?- Avtobus. Avtobus nima? - Mashina.

2. Bir turdagi narsalarni sanab ko’rsatish va umumlashtiruvchi bir so’z bilan nomlash. Masalan, stol, stul, shkaflarni bir so’z bilan qanday nomlash mumkin? (Mebelь)

3. Berilgan narsalardan bir guruhga kirmaydiganlarini ajratish. Masalan, qalam, pero, chizg’ich, o’chirg’ich, stul ko’rsatiladi, o’quvchilar o’quv qurollarini ajratadilar, stul o’quv quroliga kirmasligini, mebelь ekanini aytadilar.

Bunday mashq o’yin tariqasida o’tkazilishi ham mumkin: ma’lum so’zlar berilib, ortiqchasini topish va nima uchun ortiqcha ekanini tushuntirish talab etiladi: qaldirg’och, chumchuq, mushuk, musicha.

4. Predmet nomlari va belgi bildirgan so’zlarni guruhlarga ajratish. Bunda so’zlar choynak, tesha, bolta, piyola, arra, tarelka kabi aralash beriladi. O’quvchilar guruhlab, idishlar nomi: choynak, piyola, ... ; ish qurollari nomi: tesha, bolta, ... kabi yozadilar. Narsa belgisini bildirgan so’zlar ham aralash beriladi, bolalar to’rt guruhga (rang, maza, shakl, xususiyat) ajratadilar.

5. Qarama-qarshi qo’yish bilan umumlashtirish: qaldirg’och, chumchuq, bulbul − qushlar, tovuq, xo’roz, kurkalar-chi? (Parrandalar.)

Mantiqiy mashqlar sermazmun bo’lishi, o’quvchilarning tajribasi bilan bog’lanishi, ularni to’g’ri fikrlashga o’rgatishi, bilimlariga aniqlik kiritishi va tartibga solishga xizmat qilishi lozim. Bunday mashqlardan o’rni bilan boshqa darslarda ham, o’qish va grammatika darslarida ham foydalaniladi.

Amaliy mashg’ulot topshiriqlari

1. Ona tili darslariga ilmiy yondashuv deganda nimani tushunasiz?.
2. Ona tili darslarida foydalaniladigan mashqlarni tasnif qiling.
3. Ona tili darsi samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlardan birini taqdimot qilib bering.

Nazorat savollari:

1. Ona tili darslariga zamonaviy yondashuv deganda nimani tushunasiz?. 2. O’quvchilarda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirishda boshlang’ich sinf o’qituvchisining roli qanday?

3. Ona tili darslarida o’quvchilarning grammatik bilimlarini tarkib toptirishda qaysi ish turlaridan foydalanish samarali natijalarni beradi?.

4. Boshlang’ich sinf ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish bo’yicha ish tajribangizni bayon qiling.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tiziminin 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi "Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida"gi PF-5538-son Farmoni ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan umumiy doidalar (3-sahifa).

2. B.To’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.

3. Turdialiev, M. A. (2022). THE LEGAL ISSUES OF METAVERSE AND PERPECTIVES OF ESTABLISHMENT OF INTERNATIONAL FINANCIAL CENTER IN METAVERSE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(8), 239-249.

4. B.To’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.

5. Ammar Younas, & Turdialiev Mukhammad Ali Polatjon Ogli. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan . The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(08), 17–21. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue08-04

6. Yunas A., Kalandarov A., & Turdialiev M. A. (2022). Pravovoy progress zakonodatelьstva ob elektronnoy torgovle v TSentralьnoy Azii v period COVID-19. Obщestvo i innovatsii, 2(6), 170–176. https://doi.org/10.47689/2181- 1415-vol2-iss6-pp170-176

7. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. ZBIRNIK NAUKOVIX PRATSЬ SCIENTIA.

8. Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. International Journal of Development and Public Policy, 1(7),

https://www.openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/820

9. Turdialiev, M. A. (2020). Erkin iqtisodiy zonalar doirasida ingliz huquqini joriy etishning xorij va milliy tajribasi. Yurist Axborotnomasi, 1(6), 151-158.

10. Turdialiev, M. A., & Komilov, B. (2020). The Legal Issues Of International Investment Activity In Uzbekistan: Critical Analysis And Legal

Solutions. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(12), 16-21.

11. Polatjonogli, T. M. A., & Abdulajonovich, S. M. (2022). HUNTING A SUITABLE TYPE OF LEGAL ENTITYFOR CENTRAL ASIAN BUSINESSMEN IN CHINA. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(1), 75-77.

12. Akramov, A., Mirzaraimov, B., Akhtamova, Y., & Turdaliyev, M. A. (2021). Prospects For The Development Of Trust Management In Uzbekistan. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(4).

13. Narziev, O. (2021). The Perspectives Of The Establishment Of International Financial Centers In Uzbekistan And The Implementation Of English Law. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(4), 1104-1108.

14. A.G'ulomov, M.Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2001-y. References

15. O'zbekiston Pespublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". 1997-y 29-avgust.

3.3.2-mavzu. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish usullari (2 soat amaliy mashg'ulot)

O'quv bloki	3.Boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlar				
O'quv modul	3.3 – modul. Ona tili va o'qish savodxonligi darslariga zamonaviy yondashuvlar				
Mavzu	3.3.2. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish usullari (2 soat amaliy mashg'ulot)				
	daqiqa				
Mashg'ulotning	Boshlang'ich sinflar ona til darslarida o`quvchilarda XXI asr ko`nikmalarini interfaol metodlar orqali shakklantirish yo`llari haqida tushuncha berish, savodxonlik darslarini tashkil etishga zamonaviy yondashuv, dars samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berish				
Mashg'ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Mavzu, darsning maqsadi, mashg`ulot maqsadi bilan tanishtirish Mashg'ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	Taqdimot	O'qituvchilar mashg'ulotga tayyor bo'lishadi.
2. Motivatsiya	Qiziqarli jumboq yoki muammoli	5	Muammoli vaziyat	Savolli kartochka	O'qituvchilar mavzuga

	savol Mavzu yuzasidan qisqa muhokama		yaratish, muhokama		qiziqadi va ishtirok etishga rag'batlanadi.
3. Amaliy mashg'ulot	Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish Darslikllarda keltirilgan murakkab mavzular bo'yicha muhokama tashkil qilinadi	30	Guruhlarda ishlash,	A3 formatdagi qog'oz da taqdimot tayyorlaydi.	O'qituvchilarda darsliklar bilan ishlashga oid amaliy ko'nikmalar hosil qiladi.
4. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo'yicha taqdimotlar - Mashg'ulot jarayoni bo'yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O'qituvchilar o'z tajribalarini o'rtoqlashadi va yangi g'oyalarni o'zlashtiradi.
5. Refleksiya	"Aqliy hujum" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	Ish varag'i	O'qituvchilar o'z faoliyatini baholaydi va o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqadi.
6. Yakunlash va baholash	Mashg'ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg'ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat		O'qituvchilar mashg'ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo'naltiriladi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimi kundan kunga takomillashib bormoqda. Xususan, uzluksiz ta'lim tizimini samarali tashkil etish va unga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv materiallarini o'zlashtirish jarayonida sifat va samaradorlikka erishishda g'oyatda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim o'quvchilarga beriladigan bilimlarning to'laqonli amalga oshirilishini ko'zda tutadi.

O'zgarishlar davrida ta'lim tizimi ijtimoiy jarayonlardan kelib chiqqan holda shiddat bilan rivojlanishni taqozo etadi. Ta'lim orqali jamiyatda kelajakdagi vazifalarni bajarishga qodir bo'lgan yangi avlod shakllantiriladi. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo'yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg'or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan 4 "K" modeli asosida tayyorlandi. 4

“K” modelidan foydalanish ko’plab sinovlardan o’tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi” PF5712- sonli Farmoniga binoan ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo’lida xorijiy ilg’or tajribalarni o’rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo’lib, shu maqsadda “Uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek mutaxassis kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o’qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida aytilgan.

O’zbekistonning kelajagi bo’lgan yosh avlodni o‘qituvchiga ishonib topshirilgan. Shuning uchun har bir o’qituvchi bu katta ishonchni o’zining pok vijdoni va mas’uliyat hissi bilan oqlashi zarurdir. Buning uchun u tinimsiz izlanishi, jamiyatimizda sodir bo’layotgan yangiliklardan xabardor bo’lishi, yangi pedagogik texnologiyarni o’z faoliyatida doimiy qo’llab borishi kerak.

Hozirgi zamon ta’limi oldida turgan asosiy maqsad, o’quvchi shaxsini bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularni fikr yuritish faoliyatiga o’rgatishdan iborat.

Boshlang’ich sinflarda ona tilini o’rgatishning mazmuni va vazifalari:

Maktablarda ona tili o’rgatishning mazmuni jamiyat rivojlani- shining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo’ygan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko’p qirrali bo’lib, ularni bajarisho’quvchilar ongini o’stirishga, ularga g’oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetikva mehnat tarbiyasini berishga yo’naltirilgan. Ona tilini o’rgatish natijasida o’quvchilarda o’ z fikrini grammatik to’g’ri, uslubiy aniq,mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to’ g’ riyoza olish ko’nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifa o’quv predmetisifatida o’zbek tilining o’ziga xos xususiyati bo’lib, o’quvchini shaxssifatida shakllantirishga yo’naltirilgan umumta’lim vazifalari bilanbog’liq holda amalga oshiriladi.

Ona tili kursida beriladigan bilimlar mazmunini o’zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlami ifodalash usullari haqidagi (fonetik va grafik); so’zlaming o’zgarishi va gapda so’zlamingbog’lanishi haqidagi (grammatik, ya’ni morfologik va sintaktik); so’zning morfemik tarkibi va so’z yasalish usullari haqidagi (so’zyasaiishiga doir); so’zlaming leksik-semantik guaihi haqidagi (leksikologik); o ‘zbek tilining t o ‘g’ri yozuv tamoyillari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi (orfografik va punktuatsion) bilimlar tashkiletadi. Bu bilimlar, birinchidan, grammatik, fonetik, so’z yasalishigoid tushunchalarda,

ikkinchidan, grafik, orfografik, punktuatsion qoidalarda namoyon boMadi. Bundan tashqari, o'zbek tili kursi fonetik, grafik, morfologik, sintaktik va boshqa ko'nikma va malakalarni hamo 'z ichiga oladi.Tilni o'rganish jarayonida o'quvchilarda boshqa ko'pgina o 'quv predmetlari uchun umumiy bo'lgan ko'nikmalar (predmetlararo ko'nikmalar)ni hosil qilish ustida ham ish olib boriladi.

Pedagogikada bunday predmetlararo ko'nikmalarga analiz, sintez, abstraktlashtirish (til hodisalarini fikran tasawur etish), umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash kabilar kiradi. Ushbu ko'nikmalami o'quvchilarda shakllantirish ustida maqsadga uvofiq ishlash ulaming o'quv faoliyatini faollashtirishga, bilimlarini muvaffaqiyatli egallashlariga imkoniyat yaratadi. Ona tili kursidan hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar bilan predmetlararo ko'nikmalar, bir- biridan ajratilmagan holda o'quv-tarbiyaviy jarayonda shakllantiriladi. Beriladigan bilim va o'quvchilarda hosil qilinadigan maxsus ko'nikmalar maktab dasturlari va davlat ta'lim standartida qayd etilgan.

Boshlang'ich sinflarda o'rganish uchun tilni ongli egallashga va o'quvchilarda grafik va imloviy malakalarni shakllantirishga zamin bo'ladigan bilimlar tanlangan. Fonetika va grafika sohasida o'quvchilar so'zning tovush tarkibini, unli va undosh tovushlarning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zda tovushning ma'noni farqlashdagi ahamiyatini to'g'ri tushunishga imkon beradigan bilimlarni o'zlashtiradilar, shuningdek, ularga so'zning tovush va grafik shakli o'rtasidagi nisbat (bog'lanish)ni ongli aniqlash, so'zni to' g' ri yozish imkoniyati yaratiladi.

Morfologiya sohasidan ham so'zni ongli o'zlashtirish, uni to'g'ri ishlatish uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlar tanlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 1-sinfdan boshlab so'z turkumlari (ot, sifat, son, olmosh, fe'l)ni har xil saviyada o'rganadilar. Sintaksisdan dasturga nutq birligi sifatida gap haqidagi, gapda so'zlaming bog'lanishi, bosh va ikkinchi darajali bo'laklar haqidagi bilimlar kiritilgan. So'zning morfemik tarkibi yuzasidan har bir morfemaning muhim belgilarini, ularning ahamiyati va so'zda bir-biriga ta'sirini boshlang'ich sinf o'quvchilari tushunadigan va so'zlarni to`g`ri yozishda foydalanishlari uchun zarur bo'lgan hajmda ma'lumot berilgan. Dasturda „Leksika" bo'limi alohida berilmagan, ammo o'quvchilar so'zlaming leksik-semantik guruhlari (sinonimlar, antonimlar) haqida, ulaming leksik ma'nolari haqida so'z turkumlari va so'z tarkibini o'rganish jarayonida ma'lumot oladilar. Boshlang'ich sinflar ona tili kursi 1-4-sinflarda tilning hamma tomonlarining o'zaro bog'liq holda o'rganilishi hisobga olinib tuzilgan, har bir sinfda fonetika, leksika, grammatika va so'z yasalishi haqida elementar bilim beriladi. Kursning bunday qurilishi tilning barcha tomonlarini bir-biriga o'zaro t a 'sir etadigan bir butun hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Tilni o'rganishga bunday yondashish ta'lim jaryonini o'quvchilar

nutqini o’stirish vazifasini hal etishga yo’naltirish imkonini beradi. Dasturning „Grammatika, imlo va nutq o’stirish" bo’limi har bir sinfda quyidagicha qismlarni o’z ichiga oladi: „Tovushlar va harflar", „So’z", „Gap", „Bog’lanishli nutq“ . Asosiy mavzular bosqichli izchillik tamoyiliga asoslanib. har to’ rt sinfda o’rganiladi.

Har bir sinfda yetakchi mavzular ajratiladi. 1—2-sinfda fonetika va grafikaga oid mavzulami o’rganishga katta o’rin beriladi, chunki o’quvchilar o’qish va yozish jarayonini egallaydilar. 3-sinfda so’zning morfemik tarkibi va gapni o’rganish muhim hisoblanadi. So’z yasalishiga doir bilimlar asosida o’quvchilarda so’zning leksik ma’nosiga, undan nutqda foydalanishga ongli munosabat o’sadi. 4-sinfda so’z turkumlarini o’rganish birinchi o’ringa qo’yiladi (morfologik bilim chuqurlashtiriladi, otlaming egalik va kelishik qo’shimchalarini, fe’llarning tuslovchi qo’shimchalarini to ‘ g ‘ ri yozish malakalari shakllantiriladi). Bog’lanishli nutq ustida t o ‘ rt yil davomida grammatik va orfografik materiallarni o’rganish bilan bog’liq holda reja asosida ish olib boriladi.

Ona tili darslarida til hodisalari ma’nosi (semantikasi), qurilishi, vazifasi jihatidan o’rganiladi. O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab jamiyatni isloh qilish siyosatini kun tartibiga qo’ydi. Barcha sohalardagi kabi ta’lim sohasini isloh qilish siyosati ham izchillik bilan amalga oshirila boshlandi. Boshlang’ich ta’lim bo’yicha Yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standard ham mustaqillik davridagi tajribalar natijasi sifatida maydonga keldi. U boshlang’ich ta’lim darsliklari va metodik qo’llanmalarining vangi avlodini yaratishda dasturulamal vazifasini o’tamoqda. Boshlang’ich ta’lim Davlat ta’lim standartining „Kirish“ qismida „Boshlang’ich ta’lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligiva o’z-o’zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog’lom bo’lishga, moddiy borliq go’zalliklarini his eta olishga, go’zallik va fosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarni o’zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o’rgatadi", — deb alohida ta’kidlangan. Boshlang’ich ta’lim oldiga qo’yilgan bu kabi talablarni amalga oshirish ta’lim mazmunini aniq belgilab olishni, o’qitishga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Davlat ta’lim standartida ta’kidlanganidek, „Boshlang’ich ta’lim bosqichida davlat va jamiyat tomonidan qo’yiladigan talab”da ta’lim sohalari bo’yicha o’zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg’unlik to’la ta’minlangan bo’lmog’i kerak. Shu jihatdan boshlang’ich ta’lim

standartini belgilash ta’lim jarayonining tarkibini va xuddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modern izatsiyalash, boshlang’ich ta’lim jarayonida yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo’llash imkonini beradi. Boshlang’ich sinflarda ona tili ta’limi mazmuni ta’limning mazkur

bosqichiga qo’yilgan talablardan kelib chiqib belgilanadi. „Ta’lim to’g’risida“gi qonunda „Boshlang’ich ta’lim umumiy o’rta ta’lim olish uchun zarur bo’lgan savodxonlik, bilim va ko’nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir", deyiladi. Shundan kelib chiqqan holda „Boshlang’ich sinflarda ona tili ta’limining maqsadi, vazifalari sifatida DTSda quyidagilar belgilab berilgan:

1. ...bolaning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olish, o’zgalar fikrini anglashi, o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish ko’nikma va malakalarini rivojlantirish.

2. ...o’z fikrini savodli, mantiqiy izchillikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o’rgatish.

3. ...yozma nutq belgilarini talaffuzda ifodalash, matnni ifodali o’qiy olish ko’nikmasini shakllantirish.

4. O’qish sur’atini oshirish, ta’limning shu bosqichi uchun xos bo’lgan sidirg’a o’qishni egallashlariga erishish.

5. Fikmi yozma bayon etish bo’yicha belgilangan quyidagi ko’nikmalarni egallash:

a) fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi; b) tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammaligi;

d) tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;

e) imloviy savodxonlikni egallashlariga erishish18.

Bularni amalga oshirish ona tili ta’limi siklidagi fanlaming, ya’ni savod o’rgatish, o’qish va ona tilining vazifasidir. Bu vazifalarni ado etish ko’p jihatdan ta’lim mazmunni t o ‘g’ri belgi lashga bog’liq. Ona tili ta ‘limi mazmuni aniq va ilmiy-nazariy jihatdan to’g’ri belgilansagina, oldinga qo’yilgan talablar to’liq bajariladi. Ma’lumki, DTSida belgilab berilgan ona tili ta’limi mazmuni aniq mavzular va til materiallari asosida dastur va darslikda o ‘ z ifodasini topadi. Ular biri ikkinchisining ijrochisi bo’lib, bir-biriga muvofiq kelishi lozim. Xulosa qilib aytish mumkinki, boshlang’ich sinf ona tili mazmuni metodist olimlaming ko’p yillik kuzatishlari, tajribalari, tajriba nati- jalarining tahlili asosida takomillashtirilib kelinmoqda. Ayniqsa, ona tili o’qitishning amaliy ahamiyatiga alohida e ‘tibor qaratilmoqda.

Boshlang’ich sinflarda ona tili darslarining turlari va ularga qo’yiladigan talablar

Darsning umumiy tasnifl. Maktabda dars o’quv-tarbiya jarayonini tashkil qilishning asosiy shakli hisoblanadi. Dars ta ‘lim-tarbiyani amalga oshirishning eng qulay va eng zarur omilidir.

Darsga qo’yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

1. Ta'limiy talab. Har bir dars o'quvchiga qandaydir bilim berishi lozim. Har bir darsning asosiy maqsadi ham shu.

2. Tarbiyaviy talab. Bu har jihatdan komil shaxsni tarbiyalash demakdir.

3. Didaktik talablar. Bu o'qituvchiga darsni to'g'ri tashkil qilish:

dars maqsadlarini, turini to'g'ri belgilash, darsdagi u yoki bu materialni o'quvchilarga yetkazib berish usullarini to'g'ri tanlash, o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash shakllarini aniqlab olish demakdir.

4. Psixologik talablar. Bu talab shuni nazarda tutadiki, o'qituvchi o'z o'quvchilarining xarakter-xususiyatini qanchalik darajada yaxshi bilishi juda katta ahamiyatga ega. O'z o'quvchilarining psixologik xususiyatlarini yaxshi bilgan o'qituvchigina to'laqonli dars uyushtirishi mumkin.

5. Gigiyenik talablar. Bu o 'quvchilar salomatligi haqida qayg'urish demakdir. Sinfda yorug'lik, toza havo har doim yetarli bo'lishi lozim.Boshqa fanlar kabi, ona tili o'qitishning samaraliligi darsning sifatiga bevosita bog'liqdir. Darsga qo'yilgan umumdidaktik talablar pedagogik adabiyotlarda keng yoritilgan. Ulami ona tili o'rgatishga tatbiq qilib, metodik aniqliklar kiritilsa, ona tili darslariga qo'yilgan talablar quyidagicha bo'ladi:

I. Yangi bilim berish, ularni nutq amaliyotiga tatbiq etish va o'quvchilarni tarbiyalash bir butun jarayondir. Darsda o'quvchilaming o'quv faoliyatini tashkil etishga, foydalaniladigan til materialining g'oyaviy-siyosiy, estetik va badiiy qimmatli bo'lishiga, tilni o'rganish jarayonida bolalarda dunyoqarash elementlarini shakllantirishga alohida ahamiyat berish zarur. Ijodiy izlanish muhiti yaratilgan darslardagina zarur axloqiy sifatlar tarbiyalanadi.Ona tili darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e 'tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida leksik-uslubiy ishlarga katta o'rin beriladi. Darsda she'r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi. Ona tili o'qitish jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo'lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini ham tarbiyalaydi.

II. Darsning aniqligi va ichki mantiqiyligi, uning maqsadga yo'naltirilganligi juda muhim. Yangi material o'rgatiladigan darsning mazmuni va mantiqiy o'rganiladigan til hodisasi hamda lining lingvistik mohiyatining bir-biriga t a 'sir qilishiga ma'lum darajada sabab bo'ladi. O'qituvchi bu o'zaro bog'lanishni bilishi va uni o'quvchilar bilan birga topshiriqlami bajarish davomida asta ocha borishi muhimdir. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko'nikmalarni shakllantirish maqsadini o'z oldiga qo'ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o'rganib olishlari uchun bir-ikki mashq

jamoaviy ravishda bajariladi. O’quvchilar mustaqilligi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar. Darsda bajarilganmashqlar o’rtasidagi bog’lanishni shakllantiradigan ko’nikmaning xususiyati ham sabab bo’ladi. O’quv materialining mavzuga va darsning maqsadiga mos bo’lishi uning maqsadga yo’naltirilishini ta’minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o’quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsning maqsadiga juda mos bo’lishi zarur.

III. Ona tili darsi, avvalo, o’quvchilar nutq va tafakkurini o’stirish darsidir. Ona tili darslari ijtimoiy-foydali bo’lishi uchun o’quvchilarda o’z fikrini grammatik to’g’ri, uslubiy aniq, izchil ifodalash va boshqalar fikrini bera olish ko’nikmasini shakllantirishga qaratilishi lozim. Ona tili darslarida nutq o’stirish ko’rsatmasi grammatik materialni o’rgatishda o’quvchilaming tilimizdagi har bir so’z turkumi yoki so’z qismining rolini bilib olishlariga erishtiradigan metodik usullarni qo’llashni talab etadi, ya’ni grammatik nazariya grammatik to’ g’ ri va aniq nutq malakalarini shakllantirishga, anglab, tushunib yozish malakalarini o’stirishga amalda tatbiq etish uchun o’rgatiladi. Darsda bolalar nutqini o’stirish darsning mazmunida va qo’llanilgan vazifalar turlarida o ‘ z aksini topadi. Grammatik, so’z yasalishiga oid, imloviy materiallarni o’rganishni nutq o’stirish bilan bog’lash o’quvchilar aqliy faoliyatini boshqarish hisoblanadi. Bolalar nutqini o’stirish jarayoni ularning tafakkurini o’stirish bilan bog’liq.

Ona tili darsi o’quvchilar taffakurini o’stirish ustida ishlash maqsadiga yo’naltirilganligiga qarab baholanadi. Bunda muayyan grammatik va imloviy materialni o’rganish jarayonida shu materialni yaxshiroq o’zlashtirishni taminlaydigan, aqliy faoliyatni talab qiladigan mashqlarni o’tkazish tushuniladi. Masalan, , ,0’zakdosh so’zlar" tushunchasini shakllantirish uchun so’zlaming leksik ma’nosi va morfemik tarkibini taqqoslashni (ularning ma’nolarida umumiylikni va ularda bir xil o’zakning mavjudligini) bilish lozim. O’quvchilar tafakkurini o’stirish uchun o’qituvchi darsga tayyorlanganda, vazifa turlarini tanlaydi, darsning materialini va uni o’zlashtirishda o’quvchilar bajaradigan aqliy faoliyat mashqlarini ham belgilab oladi. O’quvchilarga beriladigan nazariy bilim tildan ongli foydalanish imkonini beradi. Nazariyaga ahamiyat berish, elementar tarzda bo’lsa ham, o’quvchilaming til hodisalari o’rtasidagi bog’lanishni bilib olishiga e ‘tibor berish demakdir. Boshlang’ich sinf o’quvchilari bunday bog’lanishni bilsalar, *nima uchun shunday?* so’rog’iga javob topa oladilar. Masalan, „Nima uchun *daftar* so’zi kelishik va egalik qo’shimchalari bilan turlanadi, *o’qidik* so’zi esa shaxs-son qo’shimchalari bilan tuslanadi?“. Ona tili darslarining foydali bo’lishiga darsda og’zaki va yozmaishlarni maqsadga muvofiq o’tkazish, o’quvchilaming o’quv ishlarini tekshirib, nazorat qilib borish, o’z

vaqtida xatolarning oldini olish va to’g’rilash, texnika vositalaridan foydalanish kabi omillar katta ta’sir ko’rsatadi.

Ona tili darslarining turlari va qurilishi. Dars turlari uning didaktik maqsadiga ko’ra belgilanadi, chunonchi: *yangi materialni o’rganish darsi, bilimni mustahkamlash darsi, umumlashtiruvchi-takrorlash darsi, bilimlarning qanchalik o ‘zlashtirilganini hisobga olish (tekshiruv) darsi* va boshq. Har bir dars turi muayyan qurilishi bilan boshqasidan farqlanadi. Darsning didaktik maqsadi, turi va qurilishi o’rtasida ma’lum bog’lanish mavjud. Muayyan bir darsning didaktik maqsadi o’rganiladigan mavzuga va bu darsning darslar tizimida tutgan o’rniga qarab belgilanadi. O’qituvchi dasturda mavzuga ajratilgan soatlar sonini va o’rganiladigan materialning xususisiyatlarini hisobga olgan holda, dars turini tanlab, qurilishini belgilaydi.Dars qurilishida qat’iy andaza bo’lishi mumkin emas. Biroq darsda uy vazifasini tekshirish, takrorlash, yangi materialni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish bosqichlariga rioya qilish tajribada o’zini oqlayapti. Shunga qaramay, bularga ijodiy yondashish, darsning maqsadi va foydalaniladigan metodik usullariga asoslangan holda, darsni qaysi bosqich (yangi materialni tushuntirish, mustaqil ishni bajartirish yoki uy vazifasini tekshirish) dan boshlashni o’qituvchining o’zi hal qilib, bosqichlar orasidagi ichki bog’lanish, har bir bosqichdagi ishlaming mazmunini aniq belgilab olish katta ahamiyatga ega ekanini unutmasligi kerak.

Shuningdek, zamonaviy darslarni tashkil qilish negizida 4 “K” modelini qo’llash asosida o’quvchilarda kritik (tanqidiy) fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativ va kooperativ ko’nikmalarni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bigingi kunda ta’limni isloh qilish tizimiga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri 4 “K” modelidir.

4 “K” modeli kritik fikrlash, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kolloboratsiya kabi tushunchalarni qamrab oladi.

1) kritik (tanqidiy) fikrlash - o’z mustaqil fikriga ega bo’lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish demakdir;

2) kreativ fikrlash (ijodıy yondashuv) - o’z maqsadiga erishish yo’lida yangiliklarga qo’l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko’nikmalarini o’rgatish;

3) kommunikativlik (muloqatchanlık) - odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;

4) kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) - ta’lim oluvchining jamoa bo’lib ishlash qobiliyatini shakllantirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchillarda 4 “K” modeli ko’nikmalarini shakllantirishga, ularning tayanch va fanga oid kompetensiyalari elementlarini

shakllantirishga, har bir fanga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga, ma’naviy yetuk, sog‘lom avlod bo‘lib tarbiyalashda, kasb-hunar tanlashlari uchun xizmat qiladi. Tavsiya etilayotgan metod va usullar dars mazmunini ochishiga, o’quvchilar faolligini oshirishga yordam berib, darsning samaradorligini oshiradi.

Quyidada keltirilgan innovatsion metod va interfaol o’yinlar o’quvchilarda 4 “K” modeli tarkibidagi kritik (tanqidiy) fikrlash ko’nikmasi, kreativlik (ijodkorlik) ko’nikmasi, kommunikativlik (muloqotchanlik) ko’nikmasi, va kooperatsiya (hamkorlikda ishlash) kabi ko’nikmalarni rivolantirishda hamda fanlarga bo’lgan qiziqishlarini oshirishda, zukkolik, tirishqoqlik, chaqqonlik va aniq harakat qilish, bilimlarni puxta egallash ko’nikmalarini shakllantiradi. O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib o‘tish esa bolalarni darsdaga faolligini va zo’r ishtiyoq bilan qatnashishlarini ta’minlaydi.

Krıtık (tanqıdıy) fıkrlashnı rıvojlantıruvchı usullar.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: O’quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o’z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko’nikmalarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi. O’quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o’rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o’z nuqtayi nazarini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlash ko’nikmalari:

tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo’lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati;

baholash – kirish va chiqish ma’lumotlarining sifati va muvofiqligini baholash qobiliyati;

shuntirish – o’z nuqtayi nazarini dalillash, mantiqiy-bog’liq izchil matnlar qurish;

maqsadlarni belgilash – erishish mumkin bo’lgan maqsadlarni

o’zini boshqara bilish – o’z-o’zini tekshirish, xulosalarni tuzatish va mulohaza yuritish (refleksiya);

modellashtirish – amaliy vaziyatni sifatli tahlil qilish va vazifalarni hal qilish uchun vaziyatni mavhum modeli bilan almashtirish qobiliyati;

o’rganilayotgan predmetga turli nuqtalyi nazardan qarash amaliyoti;

kuzatish va o’lchovlarni rejalashtirish va amalga oshirish amaliyoti;

muammolarni hal qilish malakalarini rivojlantirish;

dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyati;

strategik fikrlash.

“Quvnoq qalamlar” metodi.

Metod (yun. "metodos" — bilish yoki tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot) - voqelikni amaliy va nazariy egallash, o‘zlashtirish, o‘rganish, bilish uchun yo‘l yo‘riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash

usuli.



Tavsifi: Bu usul o’quvchilarda matn ustida tahliliy ishlash sharoitini yaratadi. 4 xil rangli qalam orqali matn yuzasidan 4 xil topshiriqni bajaradilar. Bunda o’quvchilarning mazmunini to’liq o’zlashtirganligni undagi mazmunga mos maqol yoki hikmatli so’zni ayta olishi, matnga ijodiy yondashishlari (o’zgartirish kiritish, rasm ishlash) va mavzu yuzasidan olingan xulosalarni bayon qila olishlardan bilib olish mumkin bo’ladi.

Kutiladigan natija: O’quvchilar bu usul orqali tanqidiy fikrlashga oid tahlil – topshiriqni alohida kichik vazifalarga bo’lish, masalalarni yechishning yakuniy algoritmlarini yaratish qobiliyati hamda dalillarni ajrata olish, ularni shakllantirish va baholash qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Qo’llanilish doirasi: Bu usuldan boshlang`ich sinflarda o’qish savodxonligi, tarbiya va tabiiy fan darslarining mustahkamlash qismida foydalanishlari mumkin.

Foydalanish vositalari: 4 xil rangli qalam, stikker yoki A4 formatdagi qog‘ozlar. O’tkazilish tartibi:

Har bir guruh yoki ishtirokchiga 4 xil rangli (havorang, kulrang, qizil, yashil) qalamlar yoki ruchkalar tarqatiladi;

Havorang qalam topshirig‘i – matndan kelib chiqib savollar tuzing;

Oq (kulrang) qalam topshirig‘i – mazmunidan kelib chiqib maqol yozing;

Qizil qalam topshirig‘i-o’qiganlarigizni qisman o’zgartiring (asar qahramonlarini, voqealarni) yoki mavzuga mos rasm chizing;

Yashil qalam – olgan xulosangizni qisqacha bayon qiling;

O’qituvchilarga har bir rang topshiriqlarni yakunlash uchun vaqtni vaziyatga qarab belgilashi mumkin;

Topshiriq yakunida tahliliy ishlar o’qituvchi tomonidan tekshirilib

Kreatıvlık (ıjodıy yondashuv)nı rıvolantıruvchi usullar.

Kreativ fikrlash ko’nikmalari orqali o’quvchilar o’z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo’llashni o’rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko’nikmalariga ega bo’ladi.

Kreativlik (Ijodkorlik) ko’nikmasi.

qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko’proq bilishga intilish, dunyo obyektlari o’rtasidagi sabab-natija munosabatlarini aniqlash, axborotni mustaqil izlash va o’z savollariga javob topish qobiliyati;

tasavvur – ko’plab original va nostandart g’oyalarni ishlab chiqish qobiliyati;

optimallashtirish – maqsadga tez va samarali erishish uchun bir nechta usullarni solishtirish qobiliyati;

g’oyalarni rivojlantirish – g’oyalarni turli nuqtayi nazardan baholash, ularning kuchli va zaif tomonlarini izlash, o’zgaruvchan sharoitlarda va yangi ma’lumotlarning paydo bo’lishida o’z faoliyatini tezda qayta qurish qobiliyati.

“G`aroyib surat” metodi.



Tavsifi: Bu usul o’quvchilarga kreativ fikrlashga, ijodkorlik va yartuvchanlikka o’rgatadi. Bunda o’quvchilar A4 formatdagi qo’g’z beriladi. 6 xil raqamlar ostiga turli xil chiziq va shakllar tushirilgan bo’ladi. Kubni aylantirib tashlaymiz qaysi raqam tushsa shu raqamdagi shaklni chizamiz. Kubni bir necha marta tashlashihsiniz mumkin. Har bir shakl bir-biriga ulanib chizib ketiladi. Shart oxirida antiqa rasm paydo bo’ladi. Ishtirokchilar o’zlarining rasmiga nom qo’yadilar. Qo’yilgan nomlar ham kreativ xech kimda yo’q bo’lishi lozim.

Erishiladigan natija: Bu usul orqali o’quvchilarda tasavvur – ko’plab original va nostandart g’oyalarni ishlab chiqish qobiliyati, qiziquvchanlik – tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko’proq bilishga intilish kabi ko’nikmalari rivojlantiriladi.

Qo’llanilish doirasi: Bu usuldan matematika, tasviriy san’at, onatili, o’qish fanlarida qiziqarli daqiqa sifatida foydalanish mumkin.

Foydalanish vositalari: Kub (har bir yuzasida 1-6 gacha raqamlar yozilgan bo’lsin), rasm chizish uchun A4 formatli qog‘oz tepasida turli shakllar, chiziqlar tasviri bo’lsin

O’tkazilish tartibi:

O’yin qoidasi va shartlari bilan tanishtirish;

Kub tomonlaridagi har bir raqamga alohida belgi borligi tushuntiriladi;

Kub tepaga irg‘itiladi va qaysi raqamli tomoni yerga tushsa shu belgini chizadilar;

Shu tarzda bir necha bor kubda tushgan raqam ostidagi belgilar biror bir antiqa rasm hosil qilgach o’yin to’xtatiladi;

Rasmga antiqa nom berish topshirig‘i beriadi. Bunda turli bo’g‘inlardan foydalinishlari mumkin.

Kommunıkatıvlık (muloqatchanlık) nırıvojlantıruvchı usullar. Kommunikativlik: O’quvchilar o’z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni

tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o’rganadi.

Muloqot qilish ko’nikmasi.

muloqotdan cho’chimaslik va muloqotni uyushtira bilish qobiliyati, savollar berish va ularga javob berishga tayyorlik.

muloqot maqsadi va mazmuniga, shuningdek, suhbatdoshga moslashish qobiliyati;

muloqotchanlik maqsadlariga erishishda verbal va noverbal vositalardan foydalanish qobiliyati;

muloqot qoidalari ma’nosini tushunish va ishonch darajasini oshirish;

boshqa odamlarning fikrini tinglashni o’rganish;
o’zining ijobiy obrazi shakllanishini ta’minlash;
o’z fikr va his-tuyg’ularini ifodalash amaliyoti;
taqdim etish, qabul qilish va qayta aloqani aks ettirish amaliyoti;
o’z fikrlari va mulohazalarini aniq dalillash amaliyoti;
katta va kichik jamoada boshqalar bilan ishlash amaliyoti.

“Antiqa soat” metodi.

Bu usulda o’quvchilar kommunikativlikka jalb etish, dars jarayonida faolligini oshirish, o’tilan mavzuni o’zlashtirganlik va tushunchalarni yodda saqlab qolganlik darajasini aniqlash, tushunchalar orasidagi bog’lanishlarni topishga o’rgatish uchun foydalanish mumkin.

Kutiladigan natija: Bu o’yin o’quvchilarda hozirjavoblik, mantiqiy fikrlashni va kundalik hayotiy faoliyatimizda rivojlantiradi, shuningdek atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishga, sodir bo’layotgan hodisalarga qiziqishini oshiradi.

Qo’llanilish doirasi: Bu metodni barcha darslarda tashkiliy qismida, yangi mavzudan oldin va mustahkamlash qismida o’tkazish mumkin.

Foydalanish vositalari: O’qituvchi soat maketi yoki soat rasmi tushirilgan rangli rasmdan foydalanishi mumkin.

O’tkazish tartibi:

“Sirli soat” deb nomlanishi shundaki soatda raqamlar o’rni bo’sh faqat soat millari bor.

O’quvchilar soatdagi sirli jumboqni yechishlari uchun raqamlarga mos keladigan mavzu yoki fanga bog’liq to’g‘ri va aniq ma’lumotlar keltirishlari lozimligi tushuntiriladi.

O’quvchilar tomonidan to’g’ri topilgan ma’lumotlar orqali raqamlar o’z o’rniga qo’yiladi.

Soatning sirini echishda faol bo’lgan o’quvchilar yoki guruh rag’batlantiriladi. Bu metodni og’zaki tezkor savol-javob tarzida yoki guruhlarga yozma topshiriq ko’rinishida berish mumkin.

Kollaboratsiya (hamkorlikda ishlash)ni rivolantiruvchi usullar.

Kollaboratsiya: Darsliklar o’quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o’quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o’zaro qo’llab-quvvatlash ko’nikmalarini o’rganishga ko’maklashadi.

Jamoaviy ishlash ko’nikmasi.

umumiy maqsadlarni o’z maqsadidek qabul qilish qobiliyati, ularga erishish uchun birgalikda harakat yo’nalishini qurish qobiliyati;

ijtimoiy o’zaro ta’sir, ya’ni umumiy maqsadlarni muhokama qilish, muzokaralar olibborish, o’z harakatlarini boshqa odamlarning harakatlari bilan muvofiqlashtirish;

o’z rejalari va g’oyalarini amalga oshirish uchun yetakchilik ko’nikmalarini va o’zjamoasini shakllantirish qobiliyatini rivojlantirish;

o’z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish;

mustaqillik, avtonomiya va tashabbuskorlik.

“MMM” metodi.

Tavsifi: O’quvchilar bilan bu usul matematika darslarida tashkil qilinadi. Ushbu metod o’quvchilarga muayyan mavzular bo’yicha bilimlari mustahkamlash imkonini beradi. Metodni qo’llash jarayonida o’quvchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg’ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi. Guruhlarning faoliyatlari quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

1-bandga misol (o’rganilgan mavzuga oid)

2-bandiga masala

3-bandiga mantiqiy topshiriq

Har bir bandda topshiriqlar to’liq yozilib yonidagi sherigiga yoki boshqa guruh a’zolariga uzatadilar.

Topshiriqni olgan ishtirokchilar navbati bilan uni bajarib yechimini topibyozadilar. Kutiladigan natija: Bu usul orqali o’quvchilar o’zaro faollikda ishlashga, topshiriqlarni

birgalashib navbati bilan yechishga, o’rganilgan mavzular bo’yicha bilimlarni mustahkamlashga erishadilar.

Qo’llanilish doirasi: matematika va tabiiy fanlarida darsning asosiy, mustahkamlash qismlarida va qizizqarli daqiqalarida tashkil qilish mumkin.

Foydalanish vositalari: MMM usuli jadvali tushirilgan tarqatmalar.

O’tkazsish tartibi:

1. Sinf o’quvchilarning yakka yoki guruhlarda ishlashlari e’lon qilinadi. O’quvchilarning yangi mavzu bo’yicha misol yecha olish darajasi o’rganiladi va ular yechilgan misollar jadvalning 1-bandiga yozib boriladi.

3. O’quvchilarning yangi mavzu bo’yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo’lgan masala yechishga oid bilimlari o’rganiladi va bu masalalar jadvalning 2-bandiga yoziladi.

4. O’qituvchi mantiqiy topshirqini yozadilar va sheriklariga uzatadilar. O’zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi va ular jadvalning 3-bandiga yoziladi.

5. Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilandi.
6. Yakunida ishlar tahlil qilinib g’oliblar aniqlanadi.

MISOL	MASALA	MANTIQIY TOPSHIRIQ

“Tanga” metodi

Tavsifi: Ushbu usulni biror bir narsa-buyum, hodisa, konsepsiyaga, voqeilikka, obyektga nisbatan munosabat bildirish uchun qo‘llash mumkin.

Kutiladigan natija: Bitta narsa yoki tushunchani ikki tomonlama tasavvur etish va qabul qilish, biror bir konsepsiya (ma’lumot)ning xos jihatlarini o‘zaro solishtirish yoki ularni mosligini (ha/yo‘q, ha/qarshi) tahlil qilish, hamkorlikda ishlash va tanqidiy mushohada rivojlanadi.

Qo’llanilish doirasi: Ona tili va o’qish savodxonligi, tarbiya, tabiiy fanlarida darsning qiziqarli daqiqalarida tashkil qilish mumkin.

O’tkazilish tartibi:

1-bosqich: O‘quvchilar ushbu metodni bajarish qoidalari bilan tanishtiriladi.Guruh yoki yakka tartibda rasmiylashtiriladi.

2-bosqich: Ajratilgan vaqt oralig‘ida belgilangan tartibda (yakka, juftlik, guruhda) to‘ldiradi, uning orqa tomoniga sabablari yoziladi, old tomoniga esa orqa tomondagi ifodaga qarama – qarshi g‘oyalar, omillar va shu kabilar.

3-bosqich: Tanga tomonlari yakka, juftlikda (guruhda) taqqoslanishi, to‘ldirilishi.

4-bosqich: Ish yakuninda tanga tepaga otiladi va qaysi tomoni bilan yerga tushsa (salbiy yoki ijobiy) shu tomonda bergan fikrlari yuzasidan guruhlar o’z nuqtayi nazarlarini himoya qilishadi.

“Sehrli aylana” usuli.

’ladi. Hafrlar aralash berilgan bo’lib ichidan mavzu, fan yoki matn ichidagi biror ’z gapni ajratib topishlari kerak bo’ladi. Raqam va belgilar ichidan alifbo tartibidagi harflardan tuzilgan gap, maqollar topib arjatishlari kerak. Rasmlardan esa navbati bilan gap tuzib matn hosil qilishlari kerak. So’ngra ma’lum qoida asosida tahlil qilinadi. Bu usulda o’quvchilar o’zaro hamkorlikda ishlaydilar. Berilgan tapshiriqlar: Mavzudan kelib chiqib o’z guruhlarida ishlashga, o’zaro hurmat va boshqalarni tinglashga, ma’lumotlar ichidan kerakligini ajratib olishga o’rgatiladi.

Qo’llanilish doirasi: Ona tili va o’qish savodxonligi, tarbiya, tabiiy fanlarida darsning qiziqarli daqiqalarida tashkil qilish mumkin.

Foydalanish vositalari: Aylana rasmi chetlariga mavzudan kelib chiqib harflar, raqamlar, rasmlar joylashtilgan bo’ladi.

O’tkazilish tartibi:

Bu usul 2 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Harfning alifbodagi joylashish o’rniga qarab so’z, gap, maqolni topish.

2. Uni ma’lum qoida asosida tahlil qilish.

O’quvchilar guruhlarda ishlaydilar;

O’quvchilarni mashg’ulotni o’tkazishga qo’yilgan talablar va qoidalar bilantanishtirish.

Tarqatma materiallarni guruh a’zolariga tarqatish.

Har bir topshiriqqa 1-2 daqiqagacha vaqt ajratiladi.

Topshiriqlar sinflar va mavzular kesimida osondan murakkablikka qarab o’zgarib boriladi.

Topshiriqlar bajarilgandan so’ng muhokama qilinadi.

G‘olib o’quvchilar e’lon qilinib rag‘batlantiriladi.

’

’

’

’

’

’YXATI

’
’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.
’ 3. Turdialiev, M. A. (2022). THE LEGAL ISSUES OF METAVERSE AND PERPECTIVES OF ESTABLISHMENT OF INTERNATIONAL FINANCIAL CENTER IN METAVERSE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(8), 239-249.
’ 4. Kinza Fatima, & Mukhammad Ali Turdialiyev. (2022). UNDERSTANDING THE SOCIAL CHANGE AND DEVELOPMENT IN THE “THIRD WORLD”: A BOOK OVERVIEW. World Bulletin of Management and Law, 6, 1-2. Retrieved from https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/439
5. Ammar Younas, & Turdialiev Mukhammad Ali Polatjon Ogli. (2021). Special Features Of International Financial Centres And Its Establishment In Uzbekistan . The American Journal of Political Science Law and Criminology, 3(08), 17–21. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume03Issue08-04
6. Yunas A., Kalandarov A., & Turdialiev M. A. (2022). Pravovoy progress zakonodatelьstva ob elektronnoy torgovle v TSentralьnoy Azii v period COVID-19. Obщestvo i innovatsii, 2(6), 170–176. https://doi.org/10.47689/2181- 1415-vol2-iss6-pp170-176
7. Turdialiev, M. A. (2021). REGULATION OF MNES BY DOMESTIC AND INTERNATIONAL POLICIES. Zbirnik naukovix pratsь SCIENTIA.
8. Younas, A. ., & ogli, T. M. A. P. . (2021). Multinational Enterprises in Global Market Economy. International Journal of Development and Public Policy, 1(7),
https://www.openaccessjournals.eu/index.php/ijdpp/article/view/820
9. Turdialiev, M. A. (2020). Erkin iqtisodiy zonalar doirasida ingliz huquqini joriy etishning xorij va milliy tajribasi. Yurist Axborotnomasi, 1(6), 151-158.
10. Turdialiev, M. A., & Komilov, B. (2020). The Legal Issues Of International Investment Activity In Uzbekistan: Critical Analysis And Legal Solutions. The American Journal of Political Science Law and Criminology, 2(12), 16-21.
11. B.To’xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyadova. “O’zbek tili o’qitish metodikasi” Toshkent. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2006-y.

3.3.3-mavzu. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni badiiy asarni tahlil qilishga o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish (2 soat amaliy mashg’ulot)

O‘quv bloki	3.Boshlang’ich ta’limda zamonaviy yondashuvlar

O‘quv modul	3.3 – modul. Ona tili va o’qish savodxonligi darslariga zamonaviy yondashuvlar				
Mavzu	3. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni badiiy asarni tahlil qilishga o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish (2 soat amaliy mashg’ulot)				
	daqiqa				
Mashg’ulotning	Boshlang‘ich sinflar bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni badiiy asarni tahlil qilishga o‘rgatishda interfaol usullardan foydalanish yo`llari haqida tushuncha berish, savodxonlik darslarini tashkil etishga zamonaviy yondashuv, dars samaradorligini oshiruvchi interfaol metodlardan foydalanish bo’yicha ko’rsatmalar berish				
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Mavzu, darsning maqsadi, mashg`ulot maqsadi bilan tanishtirish Mashg’ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	Taqdimot	O’qituvchilar mashg’ulotga tayyor bo’lishadi.
2. Motivatsiya	Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol Mavzu yuzasidan qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	Savolli kartochka	O’qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag’batlanadi.
3. Amaliy mashg’ulot	Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish Darslikllarda keltirilgan murakkab mavzular bo’yicha muhokama tashkil qilinadi	30	Guruhlarda ishlash,	A3 formatdagi qog’oz da taqdimot tayyorlaydi.	O’qituvchilar da darsliklar bilan ishlashga oid amaliy ko’nikmalar hosil qiladi.
4. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo’yicha taqdimotlar - Mashg’ulot jarayoni bo’yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O’qituvchilar o’z tajribalarini o’rtoqlashadi va yangi g’oyalarni o’zlashtiradi.
5. Refleksiya	"Aqliy hujum" usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	Ish varag’i	O’qituvchilar o’z faoliyatini baholaydi va o’rganilgan ma’lumotlarni qayta ko’rib chiqadi.
6. Yakunlash va baholash	Mashg’ulot natijalarini	5	Suhbat		O’qituvchilar mashg’ulotda

	umumlashtirish Kelgusi mashg’ulotlar uchun tavsiyalar berish				n qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo’naltiriladi.

Mashg’ulot maqsadi: bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni badiiy asarni tahlil qilishga o‘rgatish metodikasi, sinfdan tashqari o’qish darslarini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar bo’yicha ko’rsatmalar berish.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo’g`ini hisoblangan xalq ta’limida ham tub islohotlar ro’y bermoqda. U yangilanmoqda, yoshlar ta’lim-tarbiyasini takomillashtirish, ularning mazmunini, uzluksizligini ta’minlab beradigan yangi hujjatlar, pedagogik texnologiyalar, amaliyot uslublari bilan boyib bormoqda. Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “...Xalq ta’limini tubdan isloh qilish, mazkurdasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag` va imkoniyat talab qilmoqda. Lekin, istiqbolimiz, istiqlolimiz ko’zi bilan qaraganda, ham iqtisod, ham siyosat, ham ma’naviyat nuqtai nazaridan bu sarf-xarajatlarga nazar tashlasak, undan keladigan manfaat har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar”.

Boshlang’ich sinflar o’qish darslarida o’quvchilar nutqini o’stirish vositalaridan biri to’g’ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktabtajribasida to’liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun matnni to’liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esanisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o’qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o’qituvchining savoli o’quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o’rtasidagi bog’lanishning sabab-natijalarihaqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning xatti-harakati asosiy rol o’ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning xatti-harakati, harakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar.

O’qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki bu xatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida so’zlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va o’zaro bog’liqlikni yoritishga yo’naltirilishi lozim. O’quvchi o’qilgan asar mazmunini o’qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o’zaro bog’laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Ko’pincha boshang’ich sinf o’quvchilari qatnashuvchi shaxslar xatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, ba’zan noto’g’ri yoki yuzasi tushunishlari natijasida asar mazmunini angla betmaydilar. Shuning

uchun ham o’qituvchi savolni juda o’ylab tuzishi, u bolani fikrlashga, o’ylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakati, voqealarning bog’lanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni o’zaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan bo’lishi lozim. O’quvchiasarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko’z oldigan keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Matn tahlili ustida ishlashning asosiy bosqichlari

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so’ng boshlang’ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O’qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko’proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko’proq e’tibor berildi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to’g’ri, tez, ongli, ifodali o’qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. Asarning g’oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, sujet chizig’i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o’quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog’lanishli nutqning o’sishini ta’minlaydi.

3. O’quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4.Sinfda o’qish o’quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

5. Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta’sirini ham hisobga olish zarur. O’quvchi matnni o’qibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan hayajonlansin. Matnni tahlil qilishda o’quvchilarda fikr uyg’onsin, ularda estetik didni tarbiyalasin.

Boshlang’ich sinflar “O’qish kitobi”da turli janrdagi badiiy va ilmiy-ommabop maqolalar berilgan. Sizga ma’lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi. Badiiy asarda borliqni, voqelikni obrazlar vositasida tasvirlash, ob’yektiv mazmun va sub’ektiv bahoni aniq materialda berish haqidagi qoidalar metodika uchun katta nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Birinchidan, asar ustida ishlashni muallifning asarida tasvirlangan voqealarga munosabati o’qituvchining diqqat markazida turadi. O’quvchilar voqelikni obrazlar orqali tasvirlashning o’ziga xos xususiyatlarini asta tushuna boshlaydilar. Ikkinchidan, har qanday badiiy asarda aniq tarixiy voqelar tasvirlanadi.

Asardagi voqealarga tarixiy yondoshilgandagina asarga haqqoniy baho berish mumkin. Uchinchidan, yozuvchining hayoti va qarashlari bilan o’quvchilarning yoshlariga mos ravishda tanishtirish maqsadga muvofiq. To’rtinchidan, badiiy

asarni tahlil qilishda o’quvchilarni asarning g’oyaviy yo’nalishini tushunishga o’rgatish muhimdir.

Psixolog olimlarning ko’rsatishicha, badiiy asarni idrok etish uchun uni tushunishning o’zigina yetarli emas. Asarni idrok etish murakkab jarayon bo’lib, asarga, unda tasvirlangan voqelikka qandaydir munosabatning yuzaga kelishini o’z ichiga oladi. Kichik yoshdagi o’quvchilar adabiy qahramonga ikki xil munosabatda bo’ladi.

1. Adabiy qahramonga emotsional munosabat.

2. Elementar tahlil qilish.

Asarda qatnashuvchi shaxslarga baho berishda o’quvchilar o’z shaxsiy tushunchalaridan foydalanadilar. Qahramonning boshqa fazilatlarini baholash uchun ularda so’z boyligi, tajriba yetishmaydi. O’qituvchining vazifasi o’quvchilar payqay olmagan sifatlarni ko’rsatish va o’quvchilar nutqiga kiritishdir. Yana bir narsaga e’tibor berish maqsadga muvofiq:

O’quvchilarasarqahramonigamunosabatlariniifodalashdauharakatqilgansharoit nihisobgaolmaydilar. Qahramonning nima uchun shunday qilishi kerakligini tushunolmaydilar, uning uchun maqsadga muvofiq ish olib borishlari zarur. O’qish malakalarining sifatlari va ularni takomillashtirish yo’llariDastur talablarini to’liq bajarish va amalga oshirish uchun, birinchi navbatda o’qish ko’nikmalarini to’g’ri va puxta egallash va takomillashtirib borish zarur.

O’qish ko’nikmalari savod o’rgatishg jarayonida shakllanadi, o’qitishning keyingi bosqichlarida takomillashadi.

O’qish malakalarining sifatlariga badiiy asar matnini to’g’ri, tez, ongli va ifodali o’qish kiradi. O’qish darslarida o’quvchilarning o’qish malakalari shakllantiriladi va takomillashtiriladi. O’qish malakasining sifatlari o’zaro bog’liq bo’lib, ularning asosiysi ongli o’qish hisoblanadi: o’quvchi matnni tez va to’g’ri o’qisa-yu, anglab o’kimasa yoki uning tez o’qishi natijasida boshqalar matn mazmunini tushunmasa, to’g’ri o’qisa-yu, o’ta sekin o’qisa, nutq birliklari orasida pauzalarga e’tibor bermasa, matnda ifoda etilayotgan fikr tushunilmaydi. Muayyan tezlikda va to’g’ri o’qish ongli o’qishga xizmat qiladi; to’g’ri, tez va ongli o’qish esa ifodali o’qishning asosi hisoblanadi.

O’qish malakalarini egallash maktabda o’qitiladigan barcha predmetlarni muvaffaqiyatli o’zlashtirishning muhim sharti hisoblanadi. O’qish faoliyatning asosiy turi bo’lib, o’quvchilarni g’oyaviy-siyosiy, aqliy, estetik va nutqiy tomondan rivojlantirish uchun juda katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayon esa o’qish malakalarini o’stirish va takomillashtirish ustida sistematik va maqsadga muvofiq ishlashni talab qiladi.

O’qish malakasini egallash ancha murakkab bo’lib, uni shakllantirish uzoq vaqtni talab etadi. Psixolog T. G. Yegorov o’zining «Ocherki psixologii obucheniya

detey chteniyu» nomli asarida o’qish malakalarini shakllantirish jarayonini uch bosqichga ajratadi: analitik bosqich, sintetik bosqich vaavtomatlashgan bosqich. Analitik bosqich savod o’rgatish davriga to’g’ri keladi, bunda so’zni bo’g’in-harf tomonidan tahlil qilish va bo’g’inlab o’qish malakasi shakllantiriladi. Sintetik bosqich uchun so’zni sidirg’a o’qish harakterlidir; bunda so’zni ko’rish orqali idrok qilish va uning talaffuzi so’z ma’nosini anglash bilan asosan mos keladi. O’qish so’z ma’nosini idrok qilish bilan amalga oshadi. O’quvchilar sintetik bosqichga 3-sinfda o’tadilar. Bundan keyingi yillarda o’qish avtomatlasha boradi. O’qish darslarida asar ustida ishlashni shunday tashkil etish kerakki, asar mazmunini tahlil qilish o’qish malakalarini takomillashtirishga yo’naltirilgan bo’lsin.

To’g’ri o’qish deganda xato qilmasdan, yanglishmasdan o’qish tushuniladi, ya’ni to’g’ri o’qish so’zning tovush-harf tarkibini, grammatik formalarni buzmasdan, so’zdagi tovush yoki bo’g’inni tushirib qoldirmay, oshiqchasini qo’shmay, harflar o’rnini almashtirmay, aniq talaffuz qilib, so’zga urg’uni to’g’ri qo’yib o’qish hisoblanadi. M. Odilova va T. Ashrapovalar «Adabiy talaffuz normalariga qo’yilgan barcha talablar to’g’ri o’qish ko’nikmasiga ham taalluqlidir», - deb ta’kidlaydilar. Rus metodisti Yakovleva to’g’ri o’qishga quyidagicha ta’rif bergan: «To’g’ri o’qish - bu materialni tovush tomondan xatosiz va bir tekisda ravon nusha ko’chirishdir». Demak, to’g’ri o’qish so’zning tovush tarkibini, grammatik shaklini buzmasdan adabiy-orfoepik me’yorlar asosida o’qishdir.

To’g’ri o’qish so’zning uzun-qisqaligiga, o’quvchining so’z boyligiga, ya’ni so’zning leksik ma’nosini qanchalik bilishiga hamda so’zning bo’g’in va morfemik tarkibiga bog’liq. O’quvchilar ko’pincha quyidagi sabablarga ko’ra xatoga yo’l qo’yadilar:

l.So’zni talaffuz qilish bilan uning ma’nosini tushunish o’rtasida puxta sintez bo’lmagani uchun, ya’ni bola so’zning oldin tovush tomonini ko’radi, uni talaffuz qilishga oshiqadi.

2 So’zning ma’nosini esa e’tibordan chetda qoldiradi.

So’zning bo’g’in tuzilishi murakkabligi tufayli. So’z ko’p bo’g’inli bo’lsa, bola uni oldin eshitmagan bo’lsa xatoga yo’l qo’yadi.

3 So’zning ma’nosini bitlmaslik tufayli xatoga yo’l qo’yadi.

Tez o’qiyman deb xatoga yo’l qo’yadi.

To’g’ri o’qish yoryog’likka va yorug’likning tushishiga ham bog’liq.

Undosh tovush so’zning o’rtasida va oxirida kelgan yopiq bo’g’inli so’zlarni o’qishda qiynaladilar.

Xato o’qishning oldini olish uchun quyidagilar e’tiborga olinadi: Matnni o’qitishdan oldin undagi o’qilishi qiyin so’z, birikma va gaplarni aniqlash va ular

ustida ishlash usullarini belgilab olish. Tuzilishi murakkab so’zlarni bo’g’inlab o’qilishini mashq qildirish.

Matnni o’qishdan oldin uning mazmunini tushunishni qiyinlashtiradigan so’zlarning lug’aviy ma’nosini tushuntirish. So’z ma’nosini izohlash usullarini aniqlash.Vazifalarni aniq va tushunarli qilib berishMatnni diqqat-e’tibor bilan o’qishlari uchun sharoit yaratish.Oldin ichda o’qitish, so’ng ovoz chiqarib o’qitish.

O’qitishda o’quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish,ya’ni matnnin oson, o’rtacha qiyinlikda va qiyin o’qiladigan o’rinlarini belgilab olib unga kuchi yetadigan o’quvchilarga oldindan taqsimlab olish.O’quvchilarning o’qishini muntazam tekshirib turish.Xatoning harakteriga qarab, uni metodik tomondan to’g’ri tuzatish yo’lini aniqlash.O’quvchilarni xato qilish mumkin bo’lgan o’rindan ogohlantirib turish.Xat cho’pdan foydalanish.

Xato o’qish o’quvchining shaxsiy ko’ruv sezgisiga ham bog’liq bo’ladi.O’qituvchi tuzilishi murakkab so’zlarni oldindan doskaga yoki kartongabo’g’inlarga bo’lib yozib qo’yib, o’quvchilarga xor bo’lib o’qitilishi yaxshi natija beradi.

O’quvchilar yo’l qo’ygan xato ikki xil yo’l bilan tuzatiladi: 1) O’quvchi so’z oxiridagi qo’shimchani noto’g’ri o’qisa, o’quvchini o’qishdanto’xtatmasdan xatoni to’g’rilash mumkin; 2) xato o’qish bilan gaplarning mazmuni buzilsa, qayta o’qitish usulidan foydalaniladi.Bunda o’quvchiga o’qigan matni yuzasidan savol berilsa, o’quvchi e’tiborli bo’lib qayta o’qiydi.

Tez o’qish. Tez o’qish normal tezlikda o’lib, o’qish sur’ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. O’qish tezligi matnni tushunish tezligi bilan muvofiq ravishda o’suvi kerak. O’qilayotgan asar mazmunini o’zlashtirishni, matin mazmunini ongli idrok etishni ta’minlaydigan o’qish tez o’qish deyiladi.

O’qish sifatlarini yaxshi o’zlashtirgan holda o’quvchilarning o’qish sur’ati bir-biridan farq qiladi. Bu dastur talablarini bajarmadi, degan gap emas. Og’zaki nutq tempiga to’g’ri keladigan o’qish sur’ati normal tezlik hisoblanadi. Chunki o’ta tez ham , o’ta sekin o’qish ham matn mazmunini o’zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O’qish tezligi bir daqiqada o’qiladigan so’zlar soni bilan belgilanadi. 2005-yilda e’lon qilingan o’qish dasturida 1- sinfning 2- yarim yilligida o’qish sur’ati 20-25 so’z (notanish matnni o’qish tezligi ham 20-25 so’z); o’quv yili oxirida 2530 so’z; 2- sinfning 1- yarim yilligida matnni o’qish tezligi 30-35 so’; 2-yarim yilligida 40-50 so’z; 3- sinfning 1- yarim yilligida 60-70 so’z; 2- yarim yilligida 70-80 so’z; 4- sinfning 1- yarim yilligidja ichda ovozsiz 110-130 so’z, ovozli o’qishda 90-100 so’z.

Tajribalar shuni ko’rsatadiki, bir daqiqada bola 250 so’zli matnni o’qisa, undagi 200 ta so’zni eslab qolar ekan. Agar harflab, bo’g’inlab o’qisa, uning diqqat markazida so’z emas, bo’g’in bo’ladi. atijada u so’zlarni eslab qola olmaydi.1

Bu 4- sinf o’quvchilarining o’qish tezligiga tatbiq etilsa, 125 so’zdan 100 so’zni eslab qoladi. Bu esa yuqori ko’rsatkichlarga erishish imkonini beradi.4-sinfda xatto bir daqiqada 170-180 ta so’z o’qiydigan o’quvchilar ham bor.

O’qish tezligi to’rt yil davomida to’g’ri va ongli o’qish bilan bog’liq holda asta ortib boradi. O’qish tezligini tekshirganda o’qituvchi o’qiladigan materialning harakterini , ya’ni g’oyaviy mavzuviy murakkabligshini, so’z va gaplarning tuzilishini , ularning bolalar nutqida qaydarajada ishlatilishini, o’qishning to’g’ri va ongli bo’lishini hisobga oladi. O’quvchilarning o’qish tezligi har xil bo’ladi, albatta. O’qituvchining vazifasi barcha o’quvchilarning o’qish tezligini, iloji boricha bir xillikka keltirishdan iborat. Bunga asosan matnni ovoz chiqarib o’qishni mashq qilish bilan erishiladi.

Ongli o’qish.Ongli o’qish yaxshi o’qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o’qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g’oyaviy yo’nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o’qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqyea-hodisalarga o’zmunosabatini ifodalay olishdir.Ongli o’qish o’z navbatida, o’quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so’zning leksik ma’nosini,gapda so’zlarning bog’lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog’liq. Hozirda ongli o’qish atamasi adabiyotlarda va maktabtajribasida ikki ma’noda: birinchidan, o’qish jarayonini egallashga nisbatan o’qish texnikasi ma’nosida,ikkinchidan, keng ma’nodagi o’qishga nisbatan o’qish sifatlaridan biri ma’nosida qo’llanadi.

Ohang og’zaki nutqning birgalikda harakat qiluvchi elementlari: urg’u, nutq temp iva ritmi, pauza , ovozning past-balandligining yig’indisidir. Bu elementlar bir-biriga ta’sir etadi va hammasi birgalikda asarning mazmunini, g’oyasini, qahramonlarning turli kayfiyatini, ichki kechinmalarini ifodalaydi.

O’quvchilar ifodali nutq asoslarini egallashlari uchun muhim shartlar quyidagilardan iborat: Nutq jarayonidan nafasni to’g’ri olish va to’g’ri taqsimlay bilish. Har bir tovushning to’g’ri artikulyastiyasi va aniq dikstiya(burro gapirish) malakasini egallash.Adabiy talaffuz me’yorlarini egallash.

Bu shartlar faqat ifodali o’qishgagina emas, balki ifodali nutqqa, ya’ni hikoya qilishga ham taalluqlidir. O’quvchining har qanday og’zaki hikoyasi ifodali bo’lishi zarur. Ifodali o’qishning asosiy vositalaridan biri ovozdir. Ovoz nafas bilan uzviy bog’lanadi. Shuning uchun o’qituvchi bolalarning ifodali nutqi ustida ishlashni talaffuz qilayotganda o’z nafasini boshqara olish va ovozdan to’g’ri foydalanishga o’rgatishdan boshlaydi. Ovoz kuchi baland-pastlik, uzun-qisqalik, tezlik (temp), yoqimli-yoqimsizlik xususiyatlari bilan harakterlanadi. O’quvchilar

matn mazmuniga qarab, baland yoki past ovozda o’qish(gapirish)ga, nutqda tez, o’rtacha yoki sekin tempni tanlashga, biror tuyg’uni ifodalashga o’rganadilar. Ifodali o’qishga o’rgatishda o’quvchilar pauza va logik urg’u bilan ham tanishtiriladi.

Ifodali o’qishga tayyorlanish shartli ravishda uch bosqichga bo’linadi:

1. Asaming aniq mazmunini tushunish , unda qatnashgan shaxslarning xatti-harakatini tahlil qilish, asaming g’oyasini belgilash,ya’ni asarning g’oyaviy mavzuviy asosini, uning obrazlarini badiiy vositalari bilan yaxlit holda tushunish.

2. Matnning qayerida pauza qilishni, mantiqiy urg’uning o’rnini, o’qish tempini belgilab olish.

3. O’qishni mashq qilish. Avtor fikrini, uning tasvirlangan voqyea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatini ovoz bilan bera olish uchun matnni qayta o’qish.

Asarning mazmuni va g’oyaviy yo’nalishini tahlil qilish ifodali o’qishga o’rgatish bilan bog’lab olib boriladi. Ifodali o’qishga o’rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqyealarga o’z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O’quvchilarda ifodali o’qish malakasini shakllantirish uchun asarni o’qituvchining ifodali o’qishi muhim ahamiyatga ega.

Har xil janrdagi matnlarni o’qitish metodikasi

Boshlang’ich sinflarda o’quvchilar ertak, hikoya, masal, she’r, maqol, topishmoq, ilmiy-ommabop asarlar va dostonlardan parchalar o’qish orqali ularda ifodalangan voqyea-hodisalar, obrazlar va ularning xulq-atvori bilan tanishadilar, o’qigan asarlariga baho berishni o’rganadilar; ularda asarning tili, uslubi, yozuvchi qo’llagan tasvir va ifoda vositalari haqida dastlabki adabiy tushunchalar shakllana boshlaydi.

O’quvchilar asar mazmunini o’zlashtirish bilan birga unda bayon etilgan asosiy fikrni aniqlab olishga, fikrlar o’rtasidagi bog’lanishni belgilashga o’rganadilar. Badiiy asarni o’qish bilan bolalarda o’zlarini o’rab turgan muhit, Vatan va uning tabiati, kishilar mehnati haqida ham tasavvur hosil bo’ladi.

O’qish darslari o’quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqyealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o’qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi. O’quvchilar adabiy ma’lumotlarni o’zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g’oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar.

O’quvchilarning nutqini o’stirishda, yuqoridagilar bilan birga, adabiy tushunchalarni shakllantirish ham muhim o’rin tutadi. O’quvchilar adabiy tushunchalarni o’rganish natijasida badiiy adabiyot san’atning bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

Asar tahlilida o’quvchilarning hayotiy taassurotlari va asarni o’rganish natijasida ularda paydo bo’lgan estetik his-tuyg’ular hisobga olinadi. Aks holda, o’quvchilarning bilim olishga bo’lgan qiziqishi susaya boradi.

Maktabda bolalar adabiyotini o’qitishda aniq ma’lumotlarga, badiiy asarni o’rganish natijasida o’quvchilarda tug’iladigan his-tuyg’ularga suyanib ish ko’riladi. Bu esa o’quvchilarda asar muallifi, obraz, g’oya, adabiy tur, syujet kabi adabiy tushunchalarni elementar tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang’ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari - sifatlash, o’xshatish, jonlantirish, mubolag’a va adabiy janr turlari - ertak, hikoya, masal, she’r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asarda g’oyaviy mazmun obrazlar orqali ifodalanadi. Obrazlar esa so’zlar yordamida yaratiladi. So’z adabiyotda badiiy obrazni yaratish qurolidir. Asarning badiiy ifodaliligi yozuvchining undan qay darajada foydalanganligiga bog’liq.

Asarda tasvirlangan hayotiy voqyea-hodisalarni obrazli aks ettirishda badiiy til asosiy vositadir. Shuning uchun ham badiiy asar yuzasidan olib boriladigan kuzatish ishlari har bir obrazni, umuman badiiy asar mazmunini ochishda katta ahamiyatga ega.

Boshlang’ich sinflarda badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o’quvchilarda o’z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o’qish ko’nikmasi o’stiriladi, asar g’oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o’quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

Xalq og’zaki ijodida ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib o’qilishining sabablaridan biri ertak tilining ta’sirchanligi, o’tkir syujetliligi va xalq tiliga yaqinligidir. Ertak o’qib bo’lingach, uning badiiy tili ustida ishlashga alohida ahamiyat berish zarur.

2-sinf «Ona tili va o’qish savodxonligi »kitobida keltirilgan «Karnaychi shoh» ertagida «yov qora bulutday yopirilib kelayotgan ekan», «Kuychi terak» ertagida «Terakning shoxlari xuddi surnay chalgandek ovoz chiqarib, yaproqlari esa shildirab raqsga tushar ekan», «To’rg’aylar qo’shiq aytib, ularga jo’r bo’lar ekanlar», «Oh, deb nola qilibdi terak», «USTO’n ularning nag’malariga jo’r bo’lib, sho’x-sho’x kuy chalibdi» kabi badiiy vositalar yordamida tasvirlangan manzaralar juda ko’p. Ular ustida ishlash o’quvchi nutqini o’stirish bilan birga ularni fikr yuritishga, mulohaza qilishga o’rgatadi.

Ertaklarda o’xshatishlar, jonlantirish va mubolag’alardan foydalanilgan. O’quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o’rgatish zarur.

Asar o’qib bo’lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma’nosi kontekstdan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko’chma ma’noli so’zlardan ko’p foydalaniladi. Ular

bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko’chma ma’noda ishlatilgan so’zlar asarni o’qishdan oldin tushuntiriladi.

3-sinf «Ona tili va o’qish savodxonligi» darsligidan o’rin olgan «Ayamajiz» (Qudrat Hikmat) she’rida «Bo’ralar qor kapalak», «Bog’lar sokin mizg’ishar, Misoli oq kapalak», «Muz oynalar sovuq yeb» misralarida o’xshatish, jonlantirish; «Saxiy ona tabiat», «quchog’ida havo sof» misralarida metafora; «Ayamajiz izg’iydi, Ko’chalarda tutoqib, Shox-shabbani tortqilar, Yalmog’izdek yutoqib» kabi misralarda jonlantirish va o’xshatishlar qo’llangan. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol- topshiriqlardan foydalanish mumkin:

Shoir qorni nimaga o’xshatadi? (oq kapalakka).

Ayamajizni nimaga o’xshatadi? (Yalmog’izga).

«Muz oynalar sovuq yeb» misrasini qanday tushunasiz? Oyna sovuq qotadimi?

Ushbu darslikning «Kumush qish» bo’limida «Qish» matni berilgan. Ushbu matnda ham ko’plab jonlantirishlar qo’llangan. Masalan, «hamma yoqda sovuq izg’irin kezadi», «Ingrar og’riq kabi qari tol, oynalarni bezar qish - gulkor», «Daraxt kurtaklari rohatlanib uxlamoqda», «hozir urug’lar tinch uyquda» kabi. Matn tahlilida «Matnning birinchi qismini o’qing. Unda qaysi so’z o’z ma’nosidan boshqa ma’noda qo’llangan?» yoki «Matnning ikkinchi qismida jonsiz narsalar jonlidek tasvirlangan o’rinlarni topib o’qing. Boshqa ma’noda qo’llangan so’zlarni o’z ma’nosida qo’llab gap tuzing. Bu so’zlar qanday ma’noda qo’llanganda ta’sirchan bo’ladi?» kabi savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Maqol janrida ham ko’chma ma’noli so’zlar ko’p qo’llanadi. Misol uchun «Yurt boshiga ish tushsa, Er yigit hozir» maqolida boshiga so’zi metafora yo’li bilan ma’nosi ko’chgan, o’quvchilarga uning ma’nosi qanday usul bilan ko’chganligi aytilmaydi, faqat boshqa ma’noda qo’llanganligi o’z ma’nosi bilan taqqoslangan holda o’quvchilarga o’rgatiladi.

Tarixiy asarlarda ham ta’sirchan, tasviriy-bo’yoqdor so’zlar ko’p uchraydi. Jumladan, «Bobur va kabutar» asarida hazrat, a’yonlar, oliy hazrat so’zlari qo’llangan. Asar matnida qadimiy davr bilan bog’liq qo’shimchalarning qo’llanilishi ham asarga joziba bag’ishlaydi. Masalan: «Kabutar ne deydur?» kabi. Mazkur asarda ikkinchi shaxs qo’shimchasi o’rnida hurmat ma’nosidagi uchinchi shaxs qo’shimchasi qo’llangan: «Xatda: Oliy hazrat, qovun aynipishdi. Kelib qo’l urib bersalar». Shu o’rindagi «qo’l urib bersalar» birikmasi ibora hisoblanadi. Iboralar doim ko’chma ma’no ifodalab, nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Matndan iboralar aniqlangach, ma’nosini izohlashdan tashqari, ularga ma’nodosh yoki qarama-qarshi ma’noli iboralarni topshirish ham yaxshi samara beradi.

Topishmoqlarda ham jonlantirish va o’xshatishlar juda ko’p. Masalan: «Ayoz bobo novvot sotdi, Olgan edim, qo’lim qotdi» topishmog’ida o’xshatish, «Chiq-

chiq» ishlab tolmaydi, tunda uxlab qolmaydi» topishmog'ida jonlantirish qo'llangan.

«Chumoli va Tipratikan», «O'jar toshbaqa» masallarida ham badiiy til vositalari mavjud. Xususan, ularda «O'g'irlik mol aylar jonsarak», «Bola ko'nglin ko'tarar», «Kosang joningga huzur», «Senga qalqon usti-bosh», «Parcha go'sht bo'lib yurar», «Jish Toshbaqa» kabi ibora, birikma va gaplar uchraydiki, ular ustida ishlashda «Bunday majorolar qachon va kimlar orasida bo'lib o'tishi mumkin? Ularga hayotdan misollar keltiring» kabi topshiriqlar berish, ulardagi ma'noni boshqacha yo'sinda bayon ettirish, o'zaro taqqoslash, ta'sirchanligidagi farqni aniqlatish katta ta'limiy ahamiyat kasb etadi. Masalan: «Bola ko'nglin ko'tarar» - Bolasiga yaxshi gaplar gapirar; «Kosang joningga huzur» - Kosang joningni, sog'lig'ingni asraydi» kabi.

Boshlang'ich sinflarda adabiy tushunchalar va badiiy vositalar ustida ishlash o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirishga, ularda jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a kabi adabiy tushunchalar yuzasidan dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Badiiy asar matni ustida ishlash orqali o'quvchilar savodxonligini rivojlantirish

Badiiy asar ustida ishlashning 2-bosqichi tahlil qilishdir. Bu bosqichning vazifasi: syujet rivojining sabab natija bog'lanishini belgilash, ishtirok etish shaxslarning xulq-atvorini va asosiy xususiyatlarini aniqlash, asar kompozisiyasini ochishdir. Tahlil jarayonida matn ustida ishlashning quyidagi turlaridan foydalaniladi.

Tanlab o'qish. Bunda o'quvchi matnning berilgan vazifaga mos qismini o'qiydi. Vazifa asarning faktik mazmunini oydinlashtirish, sabab-natija bog'lanishini belgilash, badiiy xususiyatini ochish, o'qilgan matnga o'z shaxsiy munosabatini ifodalashdan iborat bo'lishi mumkin. 4-sinfda "Tabiatdagi o'zgarishlar berilgan qismlarini topib o'qing (Oltin kuz)", "Taqachining nasihati"ni o'qing.

Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. U o'quvchilarda yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan ularning ijodiy tasavvurini, nutqi va zehnini o'stirishga yordam beradi.

Berilgan savolga o'z so'zi bilan javob berish.

Mashqning bu turi o'quvchilarda o'qilganlar yuzasidan muhokama yuritish ko'nikmasini o'stirishga, qatnashuvchi shaxslarni baholashga muallif tasvirlagan hayotiy lavhalar bilan asar g'oyasi o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga imkon beradi. Ishning bu turida beriladigan savollar ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va muayyan izchillikda bo'lishi kerak. SHu bilan bir qatorda o'quvchilarning mustaqil fikrlashga o'rgatilishi lozim. Boshlang'ich sinf darsliklarida savollarga javob

berish ish turiga katta o’rin berilgan. O’qituvchining vazifasi ana shu savollardan unumli foydalanish va ijodiy xarakterdagi savollarni ko’proq berishi talab etiladi. 4-sinfda “Qodir bilan Sobir” matni yuzasidan o’quvchilarni o’z fikrini aytishga undovchi Sobir o’qishdan kechikish sababini ochiq aytib to’g’ri qildimi? Uning o’rnida siz bo’lganingizda nima qilardingiz? kabi savollar o’quvchilarning fikrlashqobiliyatlarini, og’zaki nutqlarini o’stiradi va matnni yaxshi o’zlashtirishlariga olib keladi.O’quvchilarni savol berishga o’rgatish.

Metodistlarning fikricha, to’g’ri berilgan savolda yarim javob tayyor bo’ladi. O’quvchilar matnni ongli o’zlashtira olsalargina, u yuzasidan savol bera oladilar. O’quvchilarni savol berishni o’rgatishni 2-sinfdan boshlash maqsadga muvofiqdir. O’quvchilar albatta savolni matn mazmuni bilan bog’liq holda tuzishdan o’rganadilar. Keyinchalik muhokama va ijodiy savollar berishni ham o’zlashtirib oladilar.Matnni tasvirlash. Matnni 2 xil tasvirlash mumkin: 1) so’z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash.So’z bilan tasvirlash o’ziga xos murakkab ish turi bo’lib, unda manzarani so’z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda so’zlarni aniq tanlashga e’tibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi kishilarning tashqi ko’rinishini, voqea sodir bo’lgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin.

Matnni tasvirlashni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qismini taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

Grafik tasvirlash ko’proq uyda bajariladi. Buning uchun o’quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o’qib chiqadilar, mazmunini o’zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishga, asosiy fikrni ajratishda, voqealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o’zaro bog’lanishini tushunishda o’quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o’quvchilar nutqi va tafakkurini o’stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo’lishga va har bir qismning asosini topishga o’rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o’rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo’yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o’rgatishda o’qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta’kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu saralavha nima uuchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi. Reja tuzishga tayorgarlik ishining 2-turi o’qituvchi rahbarligida tanlab o’qish hisoblanadi, bolalar matndan o’qituvchi bergan savolga javob bo’ladigan o’rinni topib o’qiydilar.

Reja tuzish osondan qiyinga tamoyili asosida asta murakkablashtirilib muayyan izchillikda o’tkazib boriladi. 1-sinf o’quvchilari o’qilgan kichik matnga o’qituvchi rahbarligida so’roq gap tarzida sarlavha tanlash, 2-sinfda kichik

maqolaning rejasini o’qituvchi rahbarligida so’roq yoki darak gap tarzida tuzish, 3-sinfda o’qilgan matn rejasini jamoa bo’lib tuzish, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy formasi rasmli reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o’rgatiladi; keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o’zlari so’z bilan tasvirlaydilar; hikoya o’qiladi va qismlari bo’yicha tahlil qilinadi, so’ng o’quvchilar matnning 1-qismini o’qiydilar, o’qituvchi ulardan qanday rasm chizishni so’raydi, ish mana shu tarzda davom etadi.

O’quvchilar rasmli reja tuzishdan logik reja tuzishga o’tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o’rgatiladi:

l.O’qituvchi qismlarga bo’lingan matn tanlab reja tuzadi va matn rejasini o’rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo’yadi. O’quvchilar matnning 1-qismini o’qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o’qituvchi xattaxtaning o’ng tomoniga yozadi, shunday qilib, xattaxtada o’qilgan matnning rejasi hosil bo’ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o’quvchilar o’qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy qismni aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o’qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo’linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida xattaxtaga yoziladi. O’quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo’lish topshiriladi. Ular matnni o’qiydilar, 1-sarlavhaga tegishli qismni ajratadilar, keyingi qism ham shunday belgilanadi.

Qismlarga bo’linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar aralash tarzda xattaxtaga yoziladi. O’quvchilarga yuqori qismlarga bo’lish topshiriladi. O’quvchilar matnni o’qib nisbiy tugallangan qismni ajratadilar va unga mos sarlavhani xattaxtadan tanlaydilar. Ish shu tarzda davom ettirilib, matn rejasi tuziladi.

Boshlang’ich sinflarda badiiy asar turlaridan hikoya, she’r, ertak, masal, maqol va topishmoqlar amaliy ravishda o’rganiladi. Bulardan tashqari, ilmiy-ommabop maqolalar ham o’qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, stilistik priyomlari jihatidan o’ziga xos hususiyatlarga ega bo’lib, o’quvchilarga ta’siri ham har xil bo’ladi. Shunga ko’ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o’qishda o’qituvchi unga mos metodlar tanlashi talab etiladi.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo’lib, unda kishi hayotidagi ma’lum bir voqea hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. “Hikoya ko’pincha kishi hayotida bo’lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir”.

Hikoya mazmunan boshlang’ich sinf uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o’quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko’rinishi, portret

tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi.

Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmagani, undagi qaysi qaxramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. SHundan keyingina hikoya xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi.

Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savoll arga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi.

Kichik badiiy hikoyani izohli o'qish darsini uyushtirishda quyidagi reja varianti sxemasi e'tiborga olinadi:

1) hikoyani o'qishga tayyorlash (hikoyada tasvirlangani kabi kishilar hayoti, davrga qisqa xarakteristika...);

2) hikoyani (to'liq yoki mantiqiy tugallangan qismlarini) o'qituvchi yoki oldindan tayyorlangan o'quvchining ifodali o'qishi;

3) idrok etishni tekshirish (qatnashuvchi shaxslarning xatti-harakatlari, shaxslar va voqealar o’rtasidagi munosabatlar yuzasidan qisqacha suhbat);

4) hikoyani qayta o’qish (hikoyani qismlarga bo’lish, o’quvchilarga o’qitish, ayrim so’zlar ma’nosini tushuntirish);

5) hikoyaning har bir bo’limi yuzasidan suhbat o’tkazish va sarlavha topish;

6) hikoyaning ayrim bo’limlarini ifodali o’qish;

7) reja asosida qayta hikoyalash;

8)hikoyaniifodalio’qishgayokisahnalashtirishgatayyorlanish (sinfdayokiuyda);

9) hikoyani ifodali o’qish va ifodali qayta hikoyalash.

Bu hikoyani o’qish darsi rejasining varianti bo’lib, o’zgarishi ham mumkin. Ammo shuni unutmaslik kerakki, badiiy hikoyani o’qish darsida uning mazmunini, asosiy fikrini bilish bilan birga, asarning tarbiyaviy (badiiy asar misolida o’quvchilarni tarbiyalash), xususan, estetik ta’siri ham ko’zda tutiladi va ifodali qayta hikoyalashga katta ahamiyat beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar:muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.-T,2009.

2. Farberman B.L.Ilg’or pedagogik texnologiyalar.-T.:"Fan",2000.

3. Yoldoshev J.F.,Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari.Qollanma.-T.:"Oqituvchi",2004.

4. "Ta’lim samaradorligini oshirish yollari" mavzusidagi seminar trening materiallari. - T.:2002.

5. Mavlonova R., To’rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika.-Toshkent: O’qituvchi, 2011. – 510 b.

6. Qurbonov Sh.,Seytxalilov Y.Ta’lim sifatini boshqarish.-T.:"Turon-Iqbol",2006.

7. .“Umumiy o’rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti vao’quv dasturi boshlang’ich ta’lim” T.:2017 yil

8. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o’qitish metodlari. -Toshkent: O’qituvchi, 2018. - 290 bet.

Internet saytlari:

1.www. ziyonet.uz

2.www.tdpu.uz

3.4 – MODUL. MATEMATIKA FANI VA MANTIQIY FIKRLASH

3.4.1-mavzu. Matematika darslarida algebraik va geometrik materiallar ustida ishlash

(2soat nazariy)

O‘quv bloki	Fanni o`qitishda zamonaviy yondashuvlar

O‘quv modul	Matematika fani va mantiqiy fikrlash				
Mavzu	Matematika darslarida algebraik va geometrik materiallar ustida ishlash.				
	daqiqa				
Mashg’ulotning	**Matematika darslarida algebraik va geometrik materiallar ustida ishlashning asosiy maqsadi — qiyin vaziyatlarda to’g’ri va samarali qarorlar qabul qilish**, **tahlil qilish va muammolarni yechishda tizimli va mantiqiy yondashuvni qo’llash**, hamda **kreativ va aniq fikrlarni ifodalash imkoniyatlarini oshirish**dir.				
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	-Salomlashish -Maqsad va reja bilan tanishtirish -Mashg’ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	1-slaydlar	O’qituvchilar mashg’ulotga tayyor bo’lishadi.
2. Motivatsiya	-Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol -“Mantiqiy fikrlashni o’rganish hayotimizni qanday o’zgartiradi?” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	2-slayd	O’qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etib rag’batlantirish
3. Nazariy qism	-Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun o’rganilayotgan mavzu yoki muammoni tahlil qilish va uni qismlarga ajratish zarur. Har bir bo’limni alohida ko’rib chiqish, uning qanday bog’liqligini aniqlash fikrlashni yanada aniqroq qiladi. Misol uchun, biror muammoga yechim topishda avvalo muammoning sabablarini va natijalarini tahlil qilishingiz lozim. Texnologiyalardan	15	Taqdimot, ko’rgazmali tushuntirish	3-10-slaydlar	O’qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o’rganadi.

	foydalanishni tushuntirish; -Slaydlar bilan tushuntirish				
4. Amaliy mashg'ulot	- Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish Misollar va vaziyatlarni muhokama qilish	30	Guruhlarda ishlash, platformalardan foydalanish	"Ko'rinmay qolgan raqamlar yig'indisini toping, matematik diktant"	O'qituvchilar interfaol vositalar yordamida amaliy ko'nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo'yicha taqdimotlar Qiyinchiliklarni muhokama qilish Mashg'ulot jarayoni bo'yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O'qituvchilar o'z tajribalarini o'rtoqlashadi va yangi g'oyalarni o'zlashtiradi.
6. Refleksiya	"Qanday bo'lar edi" texnologiyasi orqali xulosa qilish "Ko'r va esla" texnologiyasi orqali o'z-o'zini baholash	5	Refleksiya usullari		O'qituvchilar o'z faoliyatini baholaydi va o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg'ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg'ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	So'rovnoma tashkil qilish	O'qituvchilar mashg'ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo'naltiriladi.

Algebraik materiallarni o'rganish metodikasi

Algebra materiallarini o’rganish algebraik ta’riflarga asoslanmaydi.

Ma’lumki, boshlang’ich sinf dasturining asosiy mazmuni natural sonlarni og’zaki va yozma raqamlash va ular ustida 4 arifmetik amallarni bajarish malakasini berishdir.

Shuning uchun 1-sinfdan boshlab sonlarni o’qish va yozish malakalari bir necha bosqichga bo’lib o’qitiladi.

Masalan, 10 ichida og’zaki va yozma raqamlash, 100, 1000 va ko’p xonali sonlar to’g’risida ma’lumotlar beriladi. Sonli ifodalar deganda sonni biror amallar bilan birlashtirilgan yoki alohida yozilgan bir xonali, yoki ikki xonali yoki ko’p xonali sonlarni o’qish va yozishni tushunamiz.

Sonli ifodalar faqatgina arifmetik ifodalarda 4 amalni bajarish emas, geometrik masalalar, arifmetik va algebraik masalalarni yechishda bevosita qo’llaniladi. Masalan, uchburchakning perimetri, parallelopiped hajmi, miqdorlar to’g’risida sonli ifodalar qo’llaniladi. Uchburchakning tomonlari 3 sm, 4 sm, 5 sm bo’lsa, uning perimetri qancha?

3 sm + 4 sm + 5 sm = 12 sm

Yig’indi so’zi bilan tanishtirishda uning ikki xil ma’noda ishlatilishini tushuntirish kerak.

1) ikki son orasiga «+» ishora qo’yib yig’indini topish. 2) bitta son olib uni ikkita son yig’indisi shaklida turli ko’rinishda yozish: Masalan, 1) 3 + 5 2) 9 = +

2. Son va ifoda tushunchasi. Sonli va harfiy ifoda.

Harfiy ifodalar.

Matematika dasturiga binoan harfiy ifodalar 1-sinfdan boshlab kiritiladi. Bu yerda o’quvchilar a + x = b x + c = a ko’rinishdagi tenglamalarni yechishda va masalalarni tenglamalar yordamida yechishda, no’ma’lum sonni belgilash uchun simvol sifatida ishlatiladigan x harfi bilan tanishadilar

2-sinfda x harf o’zgaruvchini belgilaydigan simvol sifatida kiritiladi. Bu boshlang’ich sinflardanoq o’zgaruvchi tushunchasini shakllantirish va bolalarni simvollarning matematik tilda ifoda qilish imkonini beradi.

Bilimlarni umumlashtirishda harfiy simvolikadan foydalanish.

O’quvchilar harfiy simvolikaning ma’nosini tushunib olganlaridan so’ng harflarni ishlatishda shakllanayotgan bilimlarni umumlashtirish vositasi sifatida foydalanish mumkin.

1. Arifmetik amallarning xossalarini, arifmetik amallarning komponentlari hamma natijalari orasidagi bog’lanishni va h.k. larni harflar yordamida yozishda o’quvchilar a+a+a+a yig’indisini 4*a ko’paytma bilan almashtiradi va bunday mulohaza yuritadilar: bu yerda qo’shiluvchilar bir xil (a), demak yig’indini ko’paytma bilan almashtirish mumkin, birinchi ko’paytuvchi a, ikkinchi ko’paytuvchi 4 soni bo’ladi, chunki qo’shiluvchilar 4 ta.

2. Arifmetik amallarning harflar yordamida yozilgan xossalarini, bog'lanishlarini, munosabatlarini va hokazolarni o'qish.

   Masalan, «(a+35)–a» ifodani o'qing va uning nimaga teng ekanligini toping. O'quvchilar quyidagicha mulohaza yuritadilar.

   «a va 35 sonlarning yig'indisidan birinchi qo'shiluvchi a ni ayirish kerak, ikkinchi qo'shiluvchi 35 hosil bo'ladi»

   Yozamiz: (a+35)-a=35

3. Arifmetik amallarning xossalarini bilish asosida ifodalarni ayniy almashtirish

   Masalan, (5 +b) *3 = (5+b) + (5+b) +(5+b) yozuvni tugallang, deganda topshiriqni bajarayotganda o'quvchilar quyidagicha mulohaza yuritadilar: «tenglikning chap tomonidagi 5 va b sonlarining yig'indisini 3 ga ko'paytiramiz: o'ng tomondan qancha hosil bo'lsa, chap tomonda ham shuncha hosil bo'lishi uchun 5 ni 3 ga ko'paytirib va ikkinchi qo'shiluvchi b ni 3 ga ko'paytirib, natijalarni qo'shish kerak.

4. Berilgan tenglik yoki tengsizliklarni sonli qiymatlarini o'rniga qo'yish yordamida hosil qilish mumkin.

   5 *(2a+b) =10a+5b tenglikni a=3, b=5 da tekshiring: 5*(2*3+5) = =5*(6+5)=5... =55, 10*3 + 5*5 = 30 + 25 = 55

   Harfiy simvollarni kiritishning 2-bosqichida sonli ifodani parmetrlik harflar bilan almashtirish masalasi turadi. Shu usulda sonli ifoda harfiy ifodaga almashtiriladi. Harfiy ifodaning qiymatini hisoblash 3 bosqichga bo'linadi. 1. Oldin harfiy ifoda olinib, harflarning o'rniga sonlar qo'yish a + b ni a = 5, b = 20; a = 13, b = 8 da hisoblang.

2. Oldin harflar va harfiy ifodalar olinib, o'quvchilarning o'zlari jadvalda qiymatlar berib, natijasini topadilar.

3. Masalaning shartiga harflar kiritib, uning o'rniga qiymatlar berib hisoblash. Masalan, garajda a mashina bor edi, yana s mashina keldi. Qancha mashina bo'ldi? a + s. a = 20, s = 5; a = 10, s = 50

3.Sonli ifodalar ustida ishlash

metodikasi Sonli ifodalarga:

a) har bir son sonli ifoda;

b) agar a va b sonli ifodalar bo'lsa, u holda ularning ayirmasi, yig'indisi, ko'paytmasi va bo'linmasi ham sonli ifoda bo'ladi.

   Masalan, 30:5+4*6–2 sonli ifoda, bunda ko'rsatilgan amallar bajarilsa, bu son sonli ifodaning qiymati bo'ladi.

   Eng sodda sonli ifodalarning yig'indisi va ayirmasi bilan o'quvchilar 1-sinfda tanishadilar. 3+2 = 5 ko'rinishdagi ifoda 3 va 2 qo'shiluvchi, 5 yig'indi yoki sonli ifodaning qiymati deb tushuntiriladi.

2-sinfda asosan amallar tartibi qoidalari o’rganiladi. U murakkab ifodalar deb yuritiladi.

a) oldin qavslarsiz ifodalarda amallarning bajaralish tartibi qaraladi, bu holda sonlar ustida faqat I yoki II bosqich amallari bajariladi.

Masalan, 42–18+9, 63:9*4 ifodalardagi amallar yozilish tartibida bajarilishini biladilar, qiymatini hisoblab, uni o’qiy olishni tushunadilar.

b) shundan keyin 1-, 2- bosqich amallarini o’z ichiga olgan va qavslarsiz amallarni bajarishga o’tiladi.

Masalan, 3–4+12, 40–15:3 misollardagi amallarning bajaralish tartibini o’rganadilar va hisoblaydilar. Bu yerda misol orqali amallarni bajarish to’g’risida muammoli vaziyat hosil qilinadi.

d) shundan keyin 25+(40–15), (85–30):5 kabi qavslar qatnashgan ifodalarni hisoblashga o’tadilar. Hisoblash qoidasini keltirib chiqaradilar. O’tilgan materialni mustahkamlash maqsadida quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Amallarni bajarish tartibini tushuntiring va ifodalarning qiymatini toping; 65+21:

3 Ifodalarning qiymatini qulay usul bilan toping. 70-(20 + 6), 48 + (30 + 4), (40 9) -(10 + 7) 3. Misollarda amallar to’g’ri bajarilganini yozing.

30 + 26:5 = 108*3 + 16:4 = 28

30 + 20:5 = 348*3 + 16:4 = 10

4. Qavslarni va amallarni shunday qo’yingki, tengliklar to’g’ri bo’lsin.

15 – 6*2 = 184*8–5 = 12

65–10*5 = 5012+24:4=9

Nihoyat ifodani almashtirish tushunchasi beriladi. Berilgan ifodani boshqa berilgan ifoda qiymatiga teng bo’lgan ifoda bilan almashtirish demakdir.

Masalan, 2 + 2 + 2 = 2*326+70= (20+6)+70=(20+70)+6=90+6= 96

4.O’zgaruvchi qatnashgan ifoda. Tenglik, tengsizlik. Yangi dastur bo’yicha o’quvchilarga sonlarni taqqoslash, ifodalarning <, >, = ekanligi munosabatlarini berish maqsadida ana shu savollar bilan tanishtirish muhim o’rin egallaydi.

Ikkita teng son yoki ikkita ifodaning qiymatlari teng bo’lsa, ular orasiga teng belgi qo’yiladi. Shuningdek, ikki son teng bo’lmasa, yoki ikki ifoda va ularning qiymatlari teng bo’lmasa, bo’lar orasiga tengsizlik belgisi qo’yiladi. Shuning uchun eng avvalo o’quvchilarga ishonchli tenglik va tengsizliklar haqida tushuncha berish kerak.

Tenglik va tengsizlik bilan tanishtirish sonlarni raqamlash va arifmetik amallar bilan bog’langan. Sonlarni taqqoslash eng avvalo to’plamlarni taqqoslash bilan, ya’ni to’plamlarnig bir qiymatli mosligiga bog’lab tushuntiradi. 10, 100, 1000 ichida sonlarni raqamlash va taqqoslash orqali quyi sinflarda tenglik va tengsizlik tushunchalari keltirib chiqariladi.

Misol. 75 > 48 deganda 7 ta o’nlik 4 ta o’nlikdan katta degan mazmunda tushutiriladi.

Miqdorlarni o’lchashdagi sonlarni taqqoslashda bir xil miqdorlarga sonlarni keltirib, keyin taqqoslash mumkinligi 1–4 sinflarda beriladi. Misol. 1) teng sonlar bilan almashtiring:

7 km 500 m = ... m, 3080 kg ... t, 2) yozuv to’g’ri bo’lishi uchun sonlarni tanlang: ...soat < ...min, ...dm =... sm, ...t > s. =... kg.

3) shunday ismli sonlarni qiyingki, tenglik yoki tengsizlik tig’ri bilsin: 35 km = 35000..., 16 min >... sek, 17 t 5 s = 17500
4) tengsizliklarning to’gri yoki noto’g’ri ekanligiga qarab sonlar orasiga belgilar qo’ying.

4t 8s ... 4800 kg; 100 min ... 1 soat 50 min; 2 m 5dm ... 250 sm.

1-sinfda amallarni 10 ichida bajarishda tenglik va tengsizliklarga ko’proq to’xtaladi.

Misol. 3 + 1 >3, 3-1< 3, 3 = 3 va hokazo.

Shu tarzda boshlang’ichning yuqori sinflarida o’tilgan tenglamalarni va tengsiliklarni umumlashtirib, a = b, a>b, a<b kabi xulosalarni keltirib chiqaradi. Endi sonli ifodadlarnig tengligi va tengsizligiga qadam qo’yiladi. Misol. 6+4 > 6 + 3, (120:3 + 4) < 12*6

5.Sonli tenglik, tengsizlik va uni yechishga o’rgatish metodikasi.

Ular ustidagi ish I sinfdan boshlab, arifmetik materialni o’rganish bilan uzviy qo’shib olib boriladi. 1- 2- sinflarda sonli tenglama va tengsizlik xaqida boshlang’ich tasavvurlar shakllantiriladi. Tenglik va tengsizliklar xaqidagi birinchi tasavvurlarni bolalar tayyorgarlik davridayoq, oladilar. Ikkita to’plam orasida o’zaro bir qiymatli moslik o’rnatish, bir xil miqdorda bo’lmagan narsalar guruhlarini bir xil miqdordagi narsalar guruhlariga (ikki usul bilan) aylantirish va bir xil miqdordagi narsalar guruhlarini bir xil-miqdor bo’lmagan bilan «katta», «kichik», «kam», «teng» tushunchalari mustahkamlanadi. Ish bunday olib boriladi. O’qituvchi katakli taxtachada 5 ta doiracha tayyorlab qo’yadi.

O’qituvchi: «Men hozir doirachalar tagiga kvadratchalar qo’yaman, men kvadratchalardan ko’p qo’yamanmi yoki kam qo’yamanmi?» Har bir doirachaning tagiga kvadratchani qo’yadi. Bolalar ko’zlari bilan Har bir kvadratchaga doirachani mos qo’yadilar va kvadratchalar doirachalardan kam ekanligini aniqlaydilar («Katta», «teng», tushunchalari ham shunga o’xshash shakllantiriladi).



Keyinchalik ifodani va sonni (sonni va ifodani) taqqoslash ifodaning qiymatini topish va uni son bilan taqqoslash asosida bajariladi va bu ish yozuvda aks etti- riladi:



6 > 4

To’plamlar ustida bajariladigan amaliy ishlarga tayanib, to’plamlarni taqqoslash, tengsizlikni chapdan o’ngga va o’ngdan chapga tomon o’qish bilan o’quvchilar tenglik va tengsizliklarning asosiy xossalarini o’zlashtiradilar: agar a = b bo’lsa, u holda b =a, agar a> b bo’lsa, u holda b <a

Maxsus tanlangan ifodalarni: taqqoslash bilan o’quvchilar arifmetik amallarning ma’nosini anglaydilar, amallarning maxsus hollari. xaqida kuzatishlarga ega bo’ladilar:

17 + 0 . . . 17, 7 ·1 ... 7, s + 1. s, 19 - 0 ... 19, 0: 50, s ... s 1 va xokazo. ~ ‘ «O’nlikda»; «yuzlikda» va hokazolarda amallarni o’rganish vaqtida sonlarni va ifodalarni taqqoslashga oid mashqlar yangi sonli materialda beriladi, ifodalardagi sonlar va amallar belgilari miqdori ko’paytiriladi. Ikkita ifodani taqqoslash degan so’z, ularning qiymatlarini taqqoslash demakdir. Shu sababli ikkita ifodani

taqqkrslash o’quvchilarning hisoblash malakalarini egallashlari bilan birga o’zlashtiriladi. «10» kontsentrida «yig’indi» ifodasining nomlari kiritilganidan so’ng ushbu ikkita misolni taqqoslash taklif etiladi:

5+4=9, 5+3=8

Bu misollarning nimasi o’xshash, nimasi bilan farq, qiladi? Yig’indilarning qaysi biri katta, nega? Ushbu tengsizlik tuziladi:

5+4>5+3

9>8

Keyin turli ifodalar taqqoslanadi:

2+5*10 – 2, 1+7*9 - 2, 10 – 4*9 - 3, 10 – 3*3+5.

Ifodalarni taqqoslash bo’yicha ishni shaxsiy katakli taxtachadan foydalanib tashkil etish mumkin. O’qituvchining aytib turishi bo’yicha, o’quvchilar yuqori qatorda ifodani teradilar, Har bir ifodaning qiymatini topadilar va pastki qatorda sonli tengsizlikni tuzadilar, keyin belgini berilgan ifodalarorasiga ko’chiradilar:

2+5<10- 2

7<8

6. Tenglama tuzilishi, turlari.

Bu bosqichda sonlarning tarkibini yod olish alohida ahamiyatga ega. Bu ishda diametri 10 sm dan bo’lgan ikkita doiradan iborat qo’llanma katta yordam beradi. Qo’llanma yakka foydalanish uchundir. Birinchi doiraga qizil doirachalar, ikkinchi doiraga ko’k doirachalar yopishtirilgan (yoki chizilgan). Ularning soni teng va izlanayotgan songa mosdir. Doiralar radiusi bo’yicha qirqiladi va bir-birining ichiga kiritiladi (93- rasm).

Doiralarni siljitib, berilgan sonning, masalan, 9 soni tarkibining barcha hollarini ko’rib chiqish mumkin.

«9 soniga mos, doiralarni oling. 9 sonini qanday tuzish mumkin?»

Bolalar 9 sonini ixtiyoriy ravishda teradilar. Doska oldiga turlicha tergan bolalarni chaqirib, turli usullar bolalar bilan birga mustahkamlanadi. Keyin mustaqil ish beriladi, jadvalni to’ldir



9	
7	
	1

2	
	6
4	

8.Tenglamalar yechish metodikasi.

Tenglamani yechish, demak, shunday sonni topish degan so'zki, uni berilgan tenglamaga qo'yilganida to'g'ri tenglik hosil bo'ladi. Yechish og'zaki, tanlash yo'li bilan amalga oshiriladi. Tanlash usuli tenglamani yechishda ongli ravishda va matematika nuqtai nazaridan to'g'ri yondashishni shakllantiradi, chunki o'quvchi o'zi tanlagan sonni tekshirib ko'rishga yo'naltirilgan bo'ladi, ya'ni u tenglamada x ning o'rniga sonni qo'yishi va to'g'ri tenglik hosil bo'lish-bo'lmasligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Masalan, x + 3 = 7 tenglamani yechayotganida o'quvchi bunday mulohaza yuritadi: «1 soni tenglamaning yechimi emas, chunki 1 + 3 = 4, tenglamada esa 7 berilgan; 2 + 3 = 5; 5 soni 7 ga teng emas va hokazo.

Agar o'quvchi sonnning tarkibini, yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lsa, u sonni tanlab, javobni berishi mumkin, biroq, bu holda ham u javobniig to'g'riligini. isbotlashi, ya'ni x ni berilgan tenglamaga qo'yishi lozim. Bu holda o'quvchi ishni ongli ravishda bajarayotganligini tekshirish uchun bunday savol berish kerak nega endi $x \neq 3$?

O'quvchilar tanlash usulidan foydalanib, noma'lum qo'shiluvchi, kamayuvchi, ayriluvchini topishga doir tenglamalarni darhol yechishlari mumkin.

x—5 = 3 ko'rinishdagi tenglamalarni yechayotganda bolalarning e'tiborini tanlashni qanday sondan boshlash kerakligiga qaratish lozim. Ravshanki, bu son 5 dan katta bo'lishi lozim. Sonlarning tarkibini bilish kerakli sonni topishga yordam berishini bolalarga aytib turish kerak.

Geometrik materiallarni o'rgatish metodikasi

Boshlang'ich sinflarda arifmetik materiallarni o'rganib yakunlash algebraik materiallarni va matematika simvolikani o'rganish bilan umumlashtiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar alfavitni matematik simvol tarzida qo'llay boshlaydilar. Shu orqali algebraik ifoda, tenglik, tengsizlik, tenglama to'g'risida boshlang'ich ma'lumot oladilar.

Bular to'g'risida ma'lumot berishning asosiy maqsadi arifmetik amallarning mohiyatini to'laroq ochish, shuningdek, keyingi sinflarda o'rganiladigan algebra fani uchun zaruriy tayyorgarlikni amalga oshirishidir.

Lekin, algebraik misollarni yechish algebra qoida va qonuniyatlarga asoslanmasdan arifmetik qoidalarga asoslanadi.

Masalan, 3+a=10 dan a qo'shiluvchini topish no'ma'lum komponentni topish qoidasi bilan yechiladi.

Algebra materiallarini o’rganish algebraik ta’riflarga asoslanmaydi.

Ma’lumki, boshlang’ich sinf dasturining asosiy mazmuni natural sonlarni og’izaki va yozma raqamlash va ular ustida 4 arifmetik amallarni bajarish malakasini berishdir. Shuning uchun 1-sinfdan boshlab sonlarni o’qish va yozish malakalari bir necha bosqichga bo’lib o’qitiladi.

Masalan, 10 ichida og’zaki va yozma raqamlash, 100, 1000 va ko’p xonali sonlar to’g’risida ma’lumotlar beriladi. Sonli ifodalar deganda sonni biror amallar bilan birlashtirilgan yoki alohida yozilgan bir xonali, yoki ikki xonali yoki ko’p xonali sonlarni o’qish va yozishni tushunamiz.

Mavzu bo’yicha tinglovchilarning bilim va ko’nikmalariga talablar:

Har bir tinglovchi:

– I–V-sinflar uchun matematika kursi bo’yicha geometrik materiallarni o’rganish vazifalarini;

– Matematika boshlang’ich kursiga kiritilgan geometrik xaraktyerdagi masalalarni hamda ularni o’rganish tartibini;

– Geometrik materiallar bilan tanishuv tufayli o’zlashtirishga xizmat qiluvchi arifmetik masalalarni;

– Geometrik tasovvurlarni shakllantirish metodlari va usullarini;

– O’quvchilar tomonidan yechish jarayonida geometrik xaraktyerdagi masalalarni o’zlashtirib olishga xizmat qiluvchi mashqlarni ;

– Geometrik materiallarni o’rganish davomida foydalaniladigan ko’rgazmali qo’llanmalar va didaktik o’yinlarni;

– Geometrik mazmundagi masalalarning o’zlashtirilishini tekshirishning turlicha ko’rinishlari,shakli va usullarini bilishi kerak.

Shuningdek har bir tinglovchi:

– O’qitish davomida geometrik elementlar bo’lgan arifmetik materiallarning o’zaro aloqasining tatbiq etilishini bilishi;

– Geometrik tasavvurlarni shakllantirish metod va usullarini maqsad sari yo’naltirib, qo’llay olishi;

– Geometriya elementlari bo’lgan mashqlarni tanlab olabilishi va maqsad sari yo’naltira olishi;

– Geometrik misollarni o’rganishga xizmat qiluvchi ko’rgazmali qo’llanmalar va didaktik o’yinlardan foydalana olishi;

– Geometriya elementlarini o’zlashtirishni tekshirishning turlicha ko’rinishlarini,shakl va usullarini qo’llay olishi;

– Tekshiruv maqsadlariga mos sinov topshiriqlari va mustaqil ishlarni tuza olishi kerak.

Geometriya materialini o’rganish metodikasining umumiy tavsifnomasi (xarakteristikasi)

Geometrik material boshlang’ich sinflar uchun mustaqil bo’lim sifatida o’quv dasturiga kiritilmaydi. O’quv jarayonida geometriya elementlarini o’rganish bilan bevosita bog’lab olib boriladi.

Geometrik mazmundagi masalalarni yechish, hisob-kitobga o’rgatish davomida geometrik figuralardan, didaktik material sifatida foydalanish - bularning barchasi o’quvchilarning geometrik taasurotlarini mustahkamlashga imkon beradi.

Geometrik materiallarni o’rganish:

– Geometrik figuralar haqidagi tasovvurlar zahirasini to’plashga (kengaytirishga);

– fazoviy fikrlashni taraqqiy ettirish,tahlil qilish, umumlashtirish, tasovvur etish ko’nikmalarini shakllantirishga;

– muhim amaliy ko’nikmalarni rivojlantirishga;

– bolalarni keyinchalik geometriyani o’rganishga tayyorlashga xizmat qiladi.

«10 gacha bo’lgan raqamlarni raqamlash» mavzusini o’rganishda bolalar nuqta va kesmalar bilan tanishadilar,ulardagi uchburchak, to’rtburchak, beshburchaklar va boshqa ko’pburchaklar haqidagi tushunchalari kengayadi.

«100 raqamigacha bo’lgan sonlarni qo’shish va ayirish» mavzusini o’rganishda esa to’g’riburchak, to’g’riburchakli to’rtburchak, kvadratlar, ko’pburchaklarning bir ko’rinishi sifatida o’rganadilar .

2- va 3-sinflarda geometrik figuralari haqida tasavvur kengayadi va chuqurlashadi. Bunday tasavvurlarni shakllantirishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

a) Geometrik figuralar va ularning elementlari chiziladi. (Bu holatda zaruriy atamalar o’rganiladi, geometrik figuralarni tanib olish va o’zaro farqlash ko’nikmalari shakllanadi.

b) Katak daftarda chizg’ich va uchburchak figuralarni yasash.

d) Figuralarni guruhlarga ajratish.

e) Figuralarni qismlarga ajratish va bu qismlardan boshqa figuralar yasash.

f) Turli predmetlar va ular qismlarining geometrik shaklni yaratish.

g) (3-sinfda) shartli belgilar yordamida geometrik chizmalarni o’qiy olish ko’nikmalarini shakllantirish.

Kichik yoshdagi maktab o’quvchilarida geometrik tasavvurni shakllantirish metodikasida ma’lum shakldagi real predmetdan uning tasviri tomon va aksincha, tasvirdan real predmet sari bormoq kerak.

Geometrik elementlarni o’rganishda quyidagi metodlardan masalan; geometrik modellashtirishdan foydalanish, qog’oz, cho’plar, plastilin va simlardan figuralarning modellarini yasash, qog’ozda geometrik figuralarni chizish - bolalar ongida geometrik tasovvurni rivojlantirishga omil bo’ladi. Bunday sharoitda

materialning turi, rangi, o’lchamlari, tekislikdagi holatini nazarda tutmagan holda figuralarni shunday tanlash kerakki, bolalar ularning asosiy belgilarini (shakli, geometrik sifatlarini) aniqlay olsinlar. Shunga diqqat qaratish kerakki, o’quvchilar geometrik figuralarning barcha sifatlarini ajrata bilsinlar. Bu figuralar tasavvurning to’g’ri bo’lishiga yordam beradi. Masalan, to’g’riburchakli to’rtburakni o’rganish jarayonida bolalar uning ikki asosiy sifati-to’rtburchak ekanligi va burchaklari to’g’ri ekanligini tushunib yetishlari kerak.

Geometriyaning maktab kursida uning asosiy tushunchalari sinfdan sinfga o’tgan sari o’zgarib boradi, Masalan, «kesma», «burchak»,»ko’pburchak» kabi tushunchalar noaniq tushunchalar guruhiga kiradi. Shuning uchun boshlang’ich sinf o’quvchilariga «Uchburchak nima?» deb savol berish noto’g’ri bo’lar edi.Lekin bu savolni boshqa shaklda, «Uchburchak haqida nima deya olasiz?» degan savolga bolalar o’z bilimi doirasida javob bera oladilar (uchburchakning uchta burchak, uchta tomonlari bor).

Quyi sinf o’quvchilarini geometrik figuralar bilan tanishtirishni erta boshlashga bo’lgan harakat nafaqat dasturiy talablarni oshirishga, shu bilan birga materialni noto’g’ri o’zlashti-rishga qadar xatolarga yo’l qo’yishga, masalan,o’quvchilar kvadratning to’g’ri burchakli to’rtburchak ekanligini sezmaydilar, ko’pburchakli figuralar hisobiga faqat besh-olti burchakli figuralarni kiritadilar.

Boshlang’ich sinflarda geometrik materialni o’rganishda bolalar eng oddiy tushunchalar: to’g’ri va to’g’ri bo’lmagan burchaklar, ko’p burchakli figuralar (burchaklar soniga ko’ra uchburchak, to’rtburchak, beshburchak) bilan tanishadilar.

Mashg’ulotni shunday tartibda olib borish kerakki, unda bolalar kvadratni to’g’ri to’rtburchak, to’rtburchak yoki ko’pburchakli figura deb atay olsinlar.

Geometrik materialni o’rganishda chizma va o’lchov asboblarini qo’llash, oddiy chizmalarni chizish, geometrik figuralar tasvirini yasash bilan bog’liq bo’lgan muntazam amaliy ishlar bolalarda tegishli ko’nikmalar hosil qilishga xizmat qiladi. Bunday xolatlarda bajarilayotgan ishlarni so’zlar bilan tariflay olish, dasturda ko’zda tutilgan simvolika(belgi,ramz) va atamalarni qo’llay olish muhim ahamiyatga egadir.

Shuni ham nazarda tutish g’arurki, boshlang’ich sinflarda olingan geometrik figuralarni yasash va o’lchashga doir ko’nikmalar bolalar ongida uzoq vaqtlar saqlanib qoladi.

Qurilmalarning aniqligi va o’lchashga oid dastlabki tasovvurlar bolalar ongida boshlang’ich sinflardayoq shakllana boshlaydi. I sinf o’quvchilari chizg’ich yordamida kesmalarni 1 sm.gacha aniqlik bilan o’lchash ko’nikmasiga ega bo’lishlari kerak.Bunday sharoitda zaruriy amaliy ishlarni bajarilishi aniqligini

muntazam kuzatib borish zarur bo’ladi. Chizish asboblari va qalamlardan foydalanishda bolalar oldiga yozish va hisoblash ko’nikmalarini shakllantirish kabi jiddiy talablar qo’yish kerak.

Chizish va o’lchashga oid ko’nikmalarni shakllantirish ishlarini asta - sekin va izchillik bilan, buning uchun nafaqat matematika, boshqa fanlardan, jumladan, mehnat darsi, tasviriy san’at, tabiatshunoslik mashg’ulotlaridan ham foydalanish lozim.

O’quvchilarni geometrik figuralar bilan tanishtirish metodikasi.

Mavzuni o’rganishdan maqsad.

1.Nuqta, kesma, burchak, ko’pburchak, to’g’riburchak, kvadrat kabi geometrik figuralar haqida aniq tasavvurlarni shakllantirish.

2.Chizish asboblari yordamida va ularsiz geometrik figuralar yasash uchun amaliy tajriba va ko’nikmalarni shakllantirish.

3.O’quvchilarning fazoviy tasvvurlarini rivojlantirish.

Boshlang’ich sinflar o’quvchilarining geometrik figuralar haqidagi tasovvurlarini shakllantirish metodikasi yuqorida zikr etilgan vazifalar alohida qo’yadi va quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

I bosqich (tayyorlov) - Bolalarda bo’lgan geometrik figuralar haqidagi umumiy tasovvurlarni aniqlash. (bolalarning hayotiy tajribasi, model figuralardan foydalanib, amaliy ishlarni bajarish).

II bosqich - O’quvchilar bilan amaliy ishlar asosida ularda geometrik figuralar haqidagi tasovvurlarni shakllantirish.

III bosqich – O’rganilgan materialni xotirada mustahkam saqlab qolish uchun figuralar yasashga oid maxsus tanlangan mashq va masalalarni bajarish.

O’quvchilarda geometrik figuralar haqidagi umumiy tasavvurlari» 10 gacha bo’lgan sonlarni o’rganish» mavzusini o’tish davomida yana bir bor aniqlanadi. Dastlab bu figuralar (aylana, uchburchak, kvadrat va hokazolar) materiali sifatida foydalaniladi. Unda bolalar hisob - kitobni bunday figuralar yordamida, masalan, 3 ta kvadrat, 8 ta aylana, 5 ta uchburchak kabi, katta yoki kichik uchburchaklar, qizil yoki zangori doiralarni sanash yo’li bilan, olib boradilar.

Bunday sharoitda geometrik figuralarning nomlari va talaffuziga diqqat qaratiladi. «Kesma» haqida gap borganda, o’qituvchi yaqin atrofdagi predmetlar – (qalam, chizg’ich)dan foydalanib, kesmani qog’ozda qanday tasvir etish lozimligini ko’rsatadi.

Bolalar mavjud materiallardan – (doska yoki stolning qirrasi), so’ngra, geometrik figuralardan (uchburchak tomonlari) kesmalarni topishni o’rganadilar. Bunday holatda bolalarni «nuqta» va «kesma» tushunchalarini aniq ko’rsata olishga o’rgatish juda muhimdir .Kesmalarni yasashga oid ko’nikmalarni shakllantirish jarayonida chizmalarning aniqligi va sifatiga talabni kuchaytirish

kerak. Dastlabki onlardanoq chizg'ich, qalam, qo'lning holatining to'g'ri bo'lishini nazoratda ushlash lozim. Bolalarni kesmalar yasashga o'rgatishga doir mashg'ulotdan kichik parcha keltiramiz.

Bolalar o'qituvchining topshirig'i bilan katak daftar sahifasi boshidan 2 ta va chapdan 3 katak tashlab, nuqta qo'yadilar. So'ngra bu nuqtadan o'ngga 5 pastga 2 katak tashlab, 2 nuqtani qo'yadilar. So'ng bu nuqtalarni chizg'ich yordamida birlashtiradilar (chizg'ichni chap qo'l bilan ushlab,o'ng qo'l bilan chizadilar).

So'ng daftarning yuqori qismida bir nuqtani tanlab, uni yasalgan kesmaning chap tomonidagi nuqtasiga tomon yana bir tik kesma tushiradilar.

Bolalarning to'g'ri burchak bilan tanishtirishda shunday amaliy mashqni bajarish mumkin:

O'qituvchi bolalarga bir varaqdan qog'oz olib, uni avval o'rtasidan buklashni, so'ng yana bir bor buklashni ko'rsatadi .

Bu ishlarni o'qituvchi bajarganda hamma bolalar ko'rib turishi lozim. So'ng bolalarga hosil bo'lgan burchak - to'g'ri burchak modeli ekani tushuntiriladi. O'qituvchi burchakning balandligi va tomonlarini ko'rsatadi.

So'ng suhbat o'tkaziladi:

– qanday figura hosil bo'ldi? (To'g'ri burchak).

– uning tomonlari va balandligini ko'rsating.

-Endi o'zingiz yasagan to'g'ri burchakni solishtiring

Buning uchun ularning birini ikkinchisi ustiga shunday qo'yingki, tomonlari bir-biriga to'g'ri kelib burchakning quyi qismi ikkinchi burchakning quyi qismiga joylashsin. (o'quvchilar ham o'qituvchi bilan birga burchaklarni taqqoslaydilar);

– Burchakning boshqa tomonlari haqida yana nima deyish mumkin.(Bu tomonlar ham mos tushdi)

– To'g'ri burchaklar teng keldi.O'zingiz yasagan uchburchakdan to'g'ri burchakni toping.(burchaklarni bir-biri ustiga qo'yib, uchburchakdagi burchak ham to'g'ri ekanligini aniqlaydilar).

Qo'llarida bo'lgan to'g'ri burchak modeli bilan ushbu tasvirdagi to'g'ri burchaklarni aniqlab, uning balandligi atrofini bo'yash topshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ko'pburchaklar ichida to'g'ri burchak va uning ko'p uchraydigan ko'rinishi bo'lgan kvadrat alohida o'rinni egallaydi. O'quvchilar har qanday kvadrat to'g'ri burchak ekanligini va aksincha har qanday to'g'ri to'rtburchak kvadrat emasligini tushinib olishlari kerak.

To'g'ri burchakni o'rganishga bag'ishlangan mashg'ulotdan bir parcha har bir o'quvchiga har xil rangga bo'yalgan turlicha to'g'ri to'rtburchaklar solingan konvert beriladi.

Suhbat:

– Bu figuralar nima deb ataladi (to'rtburchaklar).

– Model yordamida ularning to’g’ri burchaklarini toping va o’sha joyni bo’yang;

– Ikki to’g’ri burchagi bo’lgan to’rtburchakni toping. Ikki to’g’ri burchakli to’rtburchakni ko’rsating va to’g’ri bo’lgan balandligini yonidan bo’yang.

– Uchta to’g’ri burchagi bo’lgan ko’pburchakli figurani toping. (O’quvchilar bunday to’rtburchaklarning hamma bo’lagi to’g’ri ekanligini anglaydilar.)

– To’rt burchagi to’g’ri bo’lgan to’rtburchaklar to’g’ri burchakli to’rtburchaklar deyiladi. Bolalar to’g’ri burchaklarning balandligi yaqinini bo’yaydilar va o’qituvchiga ko’rsatadilar.

O’quvchilar to’g’ri burchakli to’rtburchaklarning muhim va muhim bo’lmagan sifatlarini anglab olishlari uchun ba’zi vaqtlar dars mashg’ulotlari davomida o’yin sifat mashqlarni bajarishlari mumkin. Masalan:»Ortiqcha figurani olib tashla» mashqida bolalar to’rtburchaklarning muhim va muhim bo’lmagan belgilarini topishlari uchun amaliy ko’nikma beradi.

Bolalarga har xil materiallardan yasalgan va turli ranglarga bo’yalgan ko’pburchaklar namoyish etiladi.

– Xo’sh, bu figuralarning qaysi belgisi barchasi uchun umumiydir?(Hammasi to’g’ri burchakli ko’pburchaklardir.)

– Qaysi figura ortiqcha?

– Nega?(1,2,3,5 figuralarda to’rtta tomon bor) O’qituvchi bu figurani olib tashlashni taklif etadi.

– Qolgan figuralarning o’zaro farqi nimada?

– Bu figuralarning umumiy sifatlari nima?(ularning ranglari turlicha,turli materialdan, qog’ozdan va kartondan yasalgan)

– Bu figuralar qanday nomlanadi? (to’g’ri burchakli to’rtburchaklar.)

– Nega olib tashlangan figurani to’g’ri burchakli to’rtburchak deb atash mumkin emas?(chunki,uning 6ta tomoni bor -to’g’ri burchaklarda esa 4 tomon va 4 burchak bo’ladi)

Bunday mashqlar bolalar ongida eng muhim tushuncha-to’g’rito’rtburchak belgilarini mustahkamlaydi.

Birinchi sinf o’quvchilari bu tushunchani chuqurroq tushunib olishlari uchun shunday o’yin o’tkazish mumkin.

O’quv qurollari ichida turli o’lchamdagi va rangdagi to’g’ri burchakli to’rtburchaklar shakli ko’rsatiladi shulardan bittasi to’g’ri burchakli to’rtburchak emas.

Bolalar bilan shunday suhbat olib boriladi.

– Bu qanday figuralar?(To’g’riturtburchaklar ularda 4ta burchak va 4ta tomon bor).

– Bu figuralarning qay biri ortiqcha?

– Agar beshinchi figurani olib qo’ysak qolganlarini qanday atash mumkin?(To’g’ri to’rtburchaklar)

– Nega shunday deb atash mumkin?(Chunki ularning 4 burchagi to’g’ri burchakdir).

– Beshinchi raqamli figurani nega bu guruhga qo’shib bo’maydi? Unda ham to’rt tomon bor-ku! (Chunki, burchaklarning barchasi to’g’ri burchak emas)

Mashqni bajarish davomida turli rangli, bir-birdan o’lchamlari bilan farq qiluvchi, turlicha joylashtirilgan to’rtburchaklardan foydalaniladi.

To’g’ri burchak belgilarini tushunib olish uchun bolalar bilan quyidagi mashqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1. Chizmalar ichida, oddiy, hayotiy muhitda to’g’ri to’rtburchakni boshqa figuralardan ajrata olish.

2. To’g’ri to’rt burchaklarni uning belgilari bo’yicha topish.

3. Boshqa geometrik figuralardan to’g’ri to’rtburchak yasash.

4. To’g’ri to’rtburchaklar yasash.

Quyidagi amaliy ishlarni tashkil etish foydali hisoblanadi.

Bolalar 71-rasmda tasvirlangan figuralar tasviri tushurilgan kartochkalarni oladilar. Barcha to’g’ri to’rtburchaklarni bo’yab, raqam sonlarini daftarga yozish tavsiya etiladi.

Kvadratni to’g’ri burchak deb ham, keyinroq ko’pburchak deb atash mumkin ekanligi «Nomini ayting!»Uyinida ham o’z tasdig’ini topishi mumkin.O’qituvchi paketdan figurani olib bolalarga faqat uning belgilarini aytadi va bolalardan bu nima? deb so’raydi.Masalan:

– Mening qo’limda qizil rangli figura,uning to’rt burchagi, to’rt balandligi va to’rt tomoni bor. Bu qanday figura?(Bu to’rtburchak)

– Mening qo’limda kartondan yasalgan sariq figura bor.Uning 4 tomoni, 4 balandligi va 4 burchagi bor.uning hamma burchaklari to’g’ri burchak bu figuraning nomi nima?(Bu - to’g’ri to’rtburchak). Rasmlar.

– Mendagi to’rtburchak figuraning ikki burchagi to’g’ri burchak uni to’g’ri burchakli to’rtburchak deyish mumkinmi? (Yo’q, to’g’ri bo’lganda barcha burchaklari to’g’ri bo’lishi kerak).»Ortiqcha figurani olib tashla» o’yinida ham foydalansa bo’ladi. Doskaga turli rangli to’g’ri to’rtburchak ilinadi.Undan ikkitasi kvadrat.

– Bu figuralar nima deb ataladi? (To’rtburchaklar, to’g’ri to’rtburchaklar).

– Nima uchun bunday deb ataladi? Chunki to’rttala burchagi teng, to’rt tomoni bor.

– Bulardan qay biri ortiqcha? (zangori to’rtburchakni olib tashlansa, ikkita kvadrat qoladi).

– Qolgan figuralar kvadrat ekanini kim isbotlab bera oladi? (to’rt tomoni o’lchanadi, agar ular teng bo’lsa, demak, kvadrat).

Bolalarga yana shunday topshiriq berish mumkin.: doskaga uchta kvadrat ilib qo’yiladi. O’quvchi ularning tomonlarini o’lchab, bir-biriga solishtirishni taklif etadi. Bolalar tomonlarni o’lchab, uchchala kvadrat o’zaro teng ekanini bilib oladilar.

Model to’g’ri burchak yordamida barcha burchaklarni to’g’ri bo’lgan to’rt burchaklarni topadilar:

Bu figuralarni bir so’z bilan nima deb atash mumkin? (To’rtburchaklar)

– Ularning ichidan qay biri ortiqcha? (Qizil). O’qituvchi qizil rang figurani olib tashlaydi.

– Yashil va zangori figuralarni nima deb ataymiz? (Kvadratlar).

– Yana qanday atash mumkin? (To’g’ri to’rtburchaklar)

– Nima uchun qizil rang figurani kvadrat deb atay olmaymiz? (Barcha burchaklari to’g’ri teng emas)

– Demak, yashil va zangori figuralarni kvadratlar deb ataymiz. Daftaringizga kvadrat chizib, qizil qalam bilan bo’yang.

Bunday topshiriqlarni bajarib, o’quvchilar kvadratning muhim belgilarini anglay boshlaydilar. Kvadrat tomonlari teng to’rtburchak bo’lib, bolalar endi uning u qadar muhim bo’lmagan belgilari - rangi, materiali, o’lchamlariga ham diqqat qaratishga o’rgana boshlaydilar.

Boshlang’ich matematika dasturida geometrik material katta o’rinni oladi. Geometrik materialni o’rganishning asosiy maqsadi geometrik figuralar (nuqta, to’g’ri va egri chiziq, to’g’ri chiziq kesmasi, siniq chiziq, ko’pburchak, aylana va doira) haqida ularning elementlari haqida, figuralar va ularning elementlari orasidagi munosabatlari haqida, ularning ba’zi xossalari haqidagi tasavvurlarning to’la tizimini tarkib toptirishdan iborat.

Geometrik figuralar haqidagi fazoviy tasavvurlar, geomet-rik figuralarni chizmachilik va o’lchash asboblari yordamida va bu asboblarning yordamisiz o’lchash va yasashlarning amaliy malakalarini (ko’zda chamalash, qo’lda chizish

va hokazo) tarkib toptiriladi; o’quvchilarning nutq va fikrlashlari shu asosda rivojlantiriladi.

O’quvchilarda geometrik tasavvurlarni tarkib toptirish, ularni chizish va o’lchash malakalari bilan qurollantirish, ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga geometriya elementlarini o’rgatishda qo’llanadigan o’qitish metodlari javob beradi. Geometriya *propedevtik* kursini o’qitishning muhim metodlari kuzatish metodi, taqqoslash metodidan iboratdir. Bunda induktiv xulosa chiqarish bilan bir qatorda deduksiya elementlaridan ham foydalaniladi. Laboratoriya va amaliy ishlar metodi geometrik materialni o’rganishning effektiv metodlaridan biridir. Laboratoriya ishlari va amaliy ishlar o’quvchilarning geometrik figuralarning mohiyatini o’zlashtirishlarida ijobiy ta’sir ko’rsa-tadi.

Nuqta, to’g’ri chiziq va egri chiziq, to’g’ri chiziq kesmasi. Birinchi sinfdan boshlab o’quvchilarda nuqta, to’g’ri chiziq va egri chiziq, to’g’ri chiziq kesmasi haqida aniq tasavvurlarni tarkib toptirish kerak. Shuni eslatib o’tamizki, “nuqta”, “to’g’ri chiziq” tushunchalari hozirgi kunda o’qitilayot-gan maktab geometriya kursining asosiy tushunchalaridir. Shu sababli “nuqta deb nimaga aytiladi?”, “to’g’ri chiziq deb nimaga aytiladi?” degan savollar ma’noga ega bo’lmay qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O’zbekiston, 30.04.2023.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni. -T.: 24.09.2020
3. Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlari. 04.06.2021 y. https://lex.uz/docs/-3153714
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2022 й., 70-мақсад.
5. Matematika soxasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori.
6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. “Ўзбекистон”, 2017.

7. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги - инсон манфаатларини таъминлаш тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон”, 2017.

8. Umumiy o’rta ta’limning milliy o’quv dasturi. Matematika (1-11- sinf). 2021. Respublika ta’lim markazi.

9. Jumayev M.E. Matematika o’qitish metodikasi. (OO’Yu uchun darslik.) Toshkent. “Turon-Iqbol”, 2016 yil. 426 b.

10. Jumayev M.E. Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasidan praktikum. (OO’Yu uchun o’quv q o’llanma) Toshkent. “O’qituvchi”, 2004 yil.

11. Jumayev M.E. Boshlang’ich sinflarda matematika o’qitish metodikasidan laboratoriya mashg’ulotlari. (OO’Yu uchun o’quv qo’llanma) Toshkent. “Yangi asr avlodi”, 2006 yil.

12. Jumayeva H.M. Talabalarni globallashuv jarayonida ichki Ped.fan.fal.dok.(PhD). Diss. Termiz. 2022.

13. Abdullayeva B.S. va boshq. Matematika 1. 1-sinflar uchun ilg’or va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo’yicha metodik qo’llanma “O’zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat nashriyoti. 11 b.t. Toshkent-2014. 176 bet

3.4.2.Matematika darslarida murakkab mavzularni o'yin texnologiyalari orqali tushuntirish

2 soat amaliy

O'yin texnologiyalari zamonaviy pedagogikada, ayniqsa yosh o'quvchilar bilan ishlashda alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich maktab o'quvchilari uchun o'yin dunyoni bilishning tabiiy shaklidir. O'yin orqali bola faollik, qiziqish, o'zaro ta'sir o'tkazish va o'zini namoyon qilish istagini namoyon qiladi. Shu sababli, matematika darslarida o'yin usullaridan foydalanish nafaqat mavzuga qiziqishni oshiradi, balki asosiy ta'lim va kognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga, mantiqiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi.

1. Ta'limda o'yin texnologiyalarining mohiyati O'yin texnologiyalari-bu o'yin elementlariga asoslangan va aniq ta'lim maqsadlariga erishishga qaratilgan o'qitish usullari va usullari tizimi. An'anaviy o'yinlardan farqli o'laroq, o'quv o'yini aniq belgilangan pedagogik vazifaga ega, o'yin shaklida yashiringan. U motivatsion (qiziqish, hayajon, zavq) va didaktik (o'rganish, birlashtirish, rivojlantirish) funktsiyalarni birlashtiradi. Matematika darslarida o'yin texnologiyalari yordam beradi:

* bolalarning ta'lim motivatsiyasi va e'tiborini oshirishga , xato yoki qiyin vazifadan qo'rqishni engish;

* yechim topishga qiziqishni rivojlantirish;

* guruhda ishlash, hamkorlik qilish va muzokara qilish qobiliyatini shakllantirish; * nostandart vaziyatlarda bilimlarni qo'llashni o'rgatish

2. O'yindan foydalanishning psixologik va pedagogik asoslari Boshlang'ich maktab yoshi-bu bolaning etakchi faoliyati o'yin bo'lib qoladigan davr. O'yin orqali bola ijtimoiy rollarni o'rganadi, o'z harakatlarini rejalashtirishni, natijalarni baholashni o'rganadi. Matematika ko'pincha bolalar tomonidan diqqat va kuch talab qiladigan murakkab va mavhum mavzu sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun o'yin elementlarini joriy etish o'rganishni yanada tabiiy, hissiy jihatdan rang-barang va qulay qiladi. Psixologik nuqtai nazardan, o'yin muvaffaqiyat holatini yaratadi: bola xato qilishdan qo'rqmasdan o'rganadi, chunki har qanday xato jazoga emas, balki takroriy o'yin harakatlariga sabab bo'ladi. Bu ichki motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi, bu ayniqsa o'quv faoliyatiga doimiy qiziqish uchun muhimdir.

3. Matematikani o'qitishda o'yin texnologiyalarining

* Didaktik o'yinlar-bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

* Rol o'ynash o'yinlari-bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi.

* O'yinlar-musobaqalar-faollik va jamoaviy ruhni rag'batlantiradi.

* Kompyuter va interaktiv o'yinlar-zamonaviy raqamli texnologiyalar sizga onlayn viktorinalar, matematik topshiriqlar, interaktiv plakatlardan foydalanish imkonini beradi.

* Stol va karta o'yinlari-taktik o'zaro ta'sir elementini yaratadi va diqqat va xotirani rivojlantirishga yordam beradi. O'yin vazifalari darsning bir qismi bo'lishi mumkin (bilimlarni yangilash yoki mustahkamlash bosqichida) va uning asosiy shakli, masalan, tematik "o'yin darsi" yoki "matematik izlanish"formatida.

4. O'yinlardan foydalanishning uslubiy printsiplari O'yin samarali o'quv vositasiga aylanishi uchun bir nechta pedagogik tamoyillarga rioya qilish kerak:

* Maqsadga muvofiqlik-o'yin ma'lum bir didaktik muammoni hal qilishi kerak (takrorlash, mustahkamlash, mahoratni rivojlantirish).

* Mavjudligi-o'yin qoidalari va vazifalar darajasi bolalarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak

* Faoliyat va jalb qilish — har bir bola kuzatuvchi emas, balki jarayonning ishtirokchisi bo'lishi kerak

* Fikr-mulohaza-xulosa chiqarish, natijalarni tahlil qilish, xatolar va muvaffaqiyatlarni muhokama qilish muhimdir.

* Emotsionallik va ijobiylik — o'yin stress yoki raqobatbardosh tashvish emas, balki quvonch va qiziqish uyg'otishi kerak.

5. O'qituvchining roli. O'yin texnologiyasidagi o'qituvchi nafaqat tashkilotchi, balki yetakchi, sherik sifatida ham ishlaydi. O'yin o'quv jarayoniga qanchalik to'g'ri integratsiyalashganiga bog'liq. U materialni tanlaydi, o'yin elementi o'quv maqsadiga soya solmasligiga ishonch hosil qiladi, lekin unga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi o'yinni o'yin-kulgi sifatida emas, balki o'rganish usuli sifatida ishlatishi muhimdir. Keyin o'yin kognitiv kompetentsiyalarni shakllantirish uchun kuchli vositaga aylanadi: taqqoslash, tahlil qilish, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish qobiliyati.

6. O'yin texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi Boshlang'ich maktab o'qituvchilarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, matematik darslarda o'yinlardan muntazam foydalanish quyidagilarga yordam beradi:

* bilimlarni o'zlashtirish darajasini va matematik ko'nikmalarning mustahkamligini oshirish;

* diqqat, xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;

* mustaqillik va natija uchun javobgarlikni shakllantirish

* talabalarning o'zini o'zi qadrlashi va ishonchini oshirish;

* sinfda hamkorlik va xayrixohlik muhitini yaratish.

II. Didaktik o'yinlar boshlang'ich maktabda matematika darslarida kognitiv faoliyatni faollashtirish vositasi sifatida. Didaktik o'yinlar matematika darslarida ishlatiladigan o'yin texnologiyalari orasida alohida o'rin tutadi. Ular o'quv faoliyatini tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda kognitiv vazifalar o'ynoqi tarzda hal qilinadi, bu materialni o'zlashtirish jarayonini yanada qulayroq, qiziqarli va hissiy jihatdan rang-barang qiladi. Didaktik o'yinning asosiy xususiyati shundaki, u ikki tomonlama yo'nalishga ega: bir tomondan, bu hissiy dam olishni ta'minlaydigan o'yin — kulgi, boshqa tomondan-o'rganish, bilimlarni mustahkamlash va ko'nikmalarni shakllantirish vositasi. Didaktik o'yinning asosi o'yin harakatlari yordamida hal qilinadigan kognitiv vazifadir. Aynan shu narsa o'yinni shunchaki o'yin-kulgiga emas, balki o'rganish vositasiga aylantiradi. Matematika darslarida didaktik o'yinlar mavzuga qiziqishni shakllantirishga, diqqatni, xotirani, kuzatuvchanlikni, reaktsiya tezligini, shuningdek tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. O'yin

keskinlikni bartaraf etishga, xatolardan qo'rqishni engishga, muvaffaqiyat va o'ziga ishonch holatini yaratishga yordam berishi muhimdir. O'qituvchi didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarni o'yin o'zaro ta'siri orqali ma'lum bir o'quv natijasiga erishishga yo'naltiruvchi tashkilotchi va murabbiy vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'yinning maqsadini aniq tushunishi, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasiga qarab qoidalar va vazifalarni tanlashi, shuningdek, bolalar bilan o'yin natijalarini tahlil qilishi, hissiy o'yin tajribasini ongli bilimga aylantirishi kerak. Quyida boshlang'ich maktabda matematika darslarida samarali qo'llaniladigan didaktik o'yinlarning namunalari keltirilgan. Ular nafaqat bilimlarni mustahkamlash va tizimlashtirishga, balki talabalarning mustaqilligi, mantiqiy fikrlashi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

1. "Kapalaklar"o`yini. Maqsad: qo'shish va ayirish ko'nikmalarini mustahkamlash. O'yinning borishi: doskada raqamlar bilan gullar tasvirlangan va" kapalaklar " kartalarida misollar yozilgan. Talabalar misollarni hal qilishadi va tegishli gullarga kapalaklarni "ekishadi". O'yin ham frontal, ham jamoaviy musobaqa shaklida o'tkazilishi mumkin. Natija: hisoblash natijasini berilgan raqam bilan bog'lash qobiliyati shakllanadi, diqqat va vizual xotira rivojlanadi. l xotira rivojlanadi.

2. "Matematik baliq ovlash" Maqsad: og'zaki hisoblash ko'nikmalarini mustahkamlash. O'yin jarayoni: misollar qog'oz" baliq " da, javoblar orqa tomonda Bolalar" baliq tutqichlari " (magnit tayoqchalar) yordamida baliq tutishadi, misolni hal qilishadi va to'g'riligini tekshirishadi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, baliq "ushlangan". Natija: og'zaki hisoblash tezligi, diqqat, ixtiyoriy xotira rivojlanadi, shuningdek ijobiy hissiy fon yaratiladi. 3. "Raqamlar tartibida" Maqsad: tartib raqamlarini birlashtirish.'yin jarayoni: misollar " baliq " da, javoblar orqa tomonda yozilgan. Bolalar" baliq tutqichlari " (magnit tayoqchalar) yordamida baliq tutishadi, misolni hal qilishadi va to'g'riligini tekshirishadi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, baliq "ushlangan". Natija: og'zaki hisoblash tezligi, diqqat, ixtiyoriy xotira rivojlanadi, shuningdek ijobiy hissiy fon yaratiladi. 3. "Raqamlar tartibida" Maqsad: tartib raqamlarini birlashtirish. O'yin jarayoni: har bir bolaga o'zi ko'rmaydigan raqam bilan karta biriktirilgan. Signalda talabalar savollar berish va sinfdoshlarining raqamlarini kuzatish orqali o'sib borishi kerak. Natija: raqamlar ketma-ketligini tushunish, muloqot qobiliyatlari, e'tibor va o'zini o'zi boshqarish rivojlanadi. 4. "Zanjir" Maqsad: qo'shish va ayirish harakatlari o'rtasidagi munosabatni mustahkamlash. O'yin jarayoni: o'qituvchi birinchi ifodani chaqiradi (masalan, 2 + 3), natijani olgan talaba ushbu raqam bilan yangi ifodani hosil qiladi (masalan, 5 – 2) va "zanjir"shunday davom etadi. Natija: arifmetik amallar o'rtasidagi munosabatni barqaror tushunish shakllanadi, fikrlash tezligi va matematik nutq rivojlanadi.Natija: raqamlar ketma-ketligini tushunish, muloqot

qobiliyatlari, e'tibor va o'zini o'zi boshqarish rivojlanadi. 4. "Zanjir" Maqsad: qo'shish va ayirish harakatlari o'rtasidagi munosabatni mustahkamlash. O'yin jarayoni: o'qituvchi birinchi ifodani chaqiradi (masalan, 2 + 3), natijani olgan talaba ushbu raqam bilan yangi ifodani hosil qiladi (masalan, 5 – 2) va "zanjir"shunday davom etadi. Natija: arifmetik amallar o'rtasidagi munosabatni barqaror tushunish shakllanadi, fikrlash tezligi va matematik nutq rivojlanadi. 5. "Matematik almashinuv" Maqsad: og'zaki hisoblash ko'nikmalarini va ongda arifmetik operatsiyalarni bajarish qobiliyatini oshirish. O'yin jarayoni: talabalar jamoalarga bo'linadi, ularning har biri shartli "kapital"oladi. Jamoalar navbatma-navbat raqamlar va vazifalar bilan kartalarni olishadi ("7 ga ko'paytiring", "15 ga kamaytiring" va boshqalar). To'g'ri javob uchun jamoa "foyda" oladi, xato uchun — kapitalning bir qismini yo'qotadi. Natija: o'yin hisoblash ko'nikmalarini, e'tiborni, reaktsiya tezligini shakllantiradi, raqobatbardosh ruh va jamoaviy javobgarlikni rivojlantirishga yordam beradi.Maqsad: og'zaki hisoblash ko'nikmalarini va ongda arifmetik operatsiyalarni bajarish qobiliyatini oshirish. O'yin jarayoni: talabalar jamoalarga bo'linadi, ularning har biri shartli "kapital"oladi. Jamoalar navbatma-navbat raqamlar va vazifalar bilan kartalarni olishadi ("7 ga ko'paytiring", "15 ga kamaytiring" va boshqalar). To'g'ri javob uchun jamoa "foyda" oladi, xato uchun — kapitalning bir qismini yo'qotadi. Natija: o'yin hisoblash ko'nikmalarini, e'tiborni, reaktsiya tezligini shakllantiradi, raqobatbardosh ruh va jamoaviy javobgarlikni rivojlantirishga yordam beradi. 6. "Raqamli labirint" Maqsad: raqamlar qatorida yo'naltirish ko'nikmalarini rivojlantirish va arifmetik amallarni bajarish. O'yin jarayoni: talabalar o'yin maydonida harakat qilishadi-labirint, uning hujayralarida raqamlar yozilgan. Vazifa kartalari harakat yo'nalishini ko'rsatadi:" 8 dan katta raqamga o'ting","tarkibi 10 bo'lgan raqamni toping". Vazifani noto'g'ri bajarish oldingi bosqichga qaytadi. Natija: mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash va bilimlarni o'yin sharoitida qo'llash qobiliyati rivojlanadi.Maqsad: raqamlar qatorida yo'naltirish ko'nikmalarini rivojlantirish va arifmetik amallarni bajarish. O'yin jarayoni: talabalar o'yin maydonida harakat qilishadi-labirint, uning hujayralarida raqamlar yozilgan. Vazifa kartalari harakat yo'nalishini ko'rsatadi:" 8 dan katta raqamga o'ting","tarkibi 10 bo'lgan raqamni toping". Vazifani noto'g'ri bajarish oldingi bosqichga qaytadi. Natija: mantiqiy fikrlash, diqqatni jamlash va bilimlarni o'yin sharoitida qo'llash qobiliyati rivojlanadi. 7. "Sehrli jumboq kvadratlari" Maqsad: mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va raqamlar tarkibi bilan ishlash qobiliyati. O'yin jarayoni: talabalarga qisman to'ldirilgan qafasli 3×3 yoki 4×4 panjara beriladi. Qator va ustunlardagi summalar berilgan songa teng bo'lishi uchun raqamlarni tartibga solish kerak. Natija: analitik qobiliyat, e'tibor, fikrlash va o'z harakatlarini tekshirish qobiliyati rivojlanadi.

Tasviriy san’at fanining dasturiy-metodik ta’minotini ishlab chiqishga qo’yiladigan talablar. Ushbu fanlardagi amaliy ahamiyatga ega mavzular o’quvchilarda bilim, amaliy ko’nikmalar va ijtimoiy - emotsional fazilatlarni shakllantirishga yo’naltirilgan holda o’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda rivojlantirib boriladi. An’anaviy yondashuvdan farqli ravishda o’quvchilarda zaruriy bilimlarni shakllantirish bilan birga, tayanch va fanlarga oid kompetensiyalar va shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishga erishish lozim. Tasviriy san’at fanining mashg’ulotlarni o’tkazish jarayonida o’qitishning ilg’or metodikalari, maktab, oila, ijtimoiy institutlar va madaniy muassalalarning o’zaro hamkorlikdagi faoliyatiga asoslangan holda tashkil etilishi lozim.

O’quvchilar bilan oilada, dars, darsdan, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi:

– oila, sinf va maktabdagi o’quv faoliyati natijalarini integral diagnostika qilish;

– milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish, innovatsion ta’lim texnologiyalarni amalda qo’llay bilish malakalariga ega bo’lish;

– mazkur fanlar darslarida hamkorlik pedagogikasi imkoniyatlaridan foydalanish;

– o’quvchilar faoliyati natijalarini baholash, tahlil etish va prognozlash;

– darslarda o’quvchilarning individual xususiyatlari, yoshi, bilim darajasi, dunyoqarashi, qiziqishlari, qobiliyatlari, motivatsiya va ruhiy holatlarini hisobga olish;

– kreativ, ilg’or pedagogik texnologiyalari va o’qitish metodlaridan foydalanish orqali fanlarning maqsadlariga va o’qitishda natijaviylikka erishish.

Har bir fan o’qituvchisi kabi tasviriy san’at o’qituvchisi ham pedagogika nazariyasi va uning prinsiplarini mukammal o’rganishlarini talab qiladi. Didaktika (grekcha didasko – o’qitaman) ta’lim va ma’lumot haqidagi fandir. Insonning tarbiyasi rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida ta’lim va ma’lumot muhim ahamiyatga ega. Didaktika fani ta’lim va ma’lumotning muhim muammolarini o’rganish bilan birga “kimni o’qitish kerak”, “nimaga o’rgatish kerak”, “qanday o’qitish kerak” kabi savollarga ham javob bo’ladi. Hozirgi davrda ham didaktikaning muhim vazifasi ta’limning mazmunini bir asosiy masala barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga qaratish bo’lib qoldi. Ko’pgina tasviriy san’at o’qituvchilarning darslarida didaktik o’yinlar zarur. Tadqiqotlar shuni ko’rsatdiki, didaktik o’yinlar bolaning ko’rish va sezish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi.

Tasviriy san’at darslarida didaktik o’yinlardan foydalanish:

“Teginishni bilish” o’yini. Didaktik vazifa: obyektlarni shakli va rangi orqali idrok etish qobiliyatini rivojlantirish. O’yin vazifasi: Qanday sabzavot yoki

meva ekanligini bilish, xato qilmaslik. Materiallar: Meva va sabzavotlar to’plami, mato sumkasi.

O’yin harakatlari: Savatda sabzavot va mevalar yotadi. Bolalar o’z navbatida keladi, qo’lini sumkaga tushiradi, mahsulotni sezadi. Bu uning shakli, qattiq yoki yumshoq, uning yuzasi, silliq yoki qo’pol, odatda qanday rang ekanligini va oxir-oqibat u qanday sabzavot yoki meva ekanligini aytishi kerak. Vazifani to’g’ri bajargan kishi meva yoki sabzavot shaklida belgi oladi.

“Quvnoq naqsh” o’yini. Didaktik vazifa: Naqsh va uning elementlari haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi. Materiallar: Sabzavotlar, mevalar, gullar, barglar. O’yin harakatlari: Har bir jamoa oldida sinf doskasida naqsh yaratish bo’yicha jamoaviy ish uchun toza qog’oz chizig’i biriktirilgan. O’qituvchining buyrug’iga ko’ra, har bir jamoaning birinchi vakillari o’z guruhlariga mos keladigan, naqshning birinchi elementini tanlaydi va biriktiradi. Keyin ikkinchi vakillar, uchinchisi va boshqalar paydo bo’ladi, har bir kishi naqshning bir elementini tanlaydi va biriktiradi, shakli va rangi hisobga olinadi. O’quvchilar o’yin qoidalarini buzmasdan ishni to’g’ri, chiroyli va tezkor bajaradigan jamoa g’alaba qozonadi.

“Mening do’stlarim” o’yini. Didaktik vazifa: O’zbek xalq ertaklari va qahramonlari haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi. Materiallar: “O’yinchoqlar” dekorativ chizig’i, ertak qahramonlariga asoslangan multiplikatsiya (applikatsiya). Darsning vazifalari: Qadimgi o’zbek xalq va zamonaviy ertak qahramonlari va hayvonlarining yaxshi va chiroyli dunyosi haqidagi fikrni chuqurlashtirish.

“Sovuq va issiq ranglar” o’yini. Didaktik vazifa: rang va uning tuslari haqidagi tushunchalarni mustahkamlash, estetik hisni rivojlantirish, ritm, shakl, rang hissi. O’yin harakatlari: O’quvchilar ikki guruhga bo’linadi. Bir guruh qor malikasining tojini bezash uchun ranglarni tanlashi kerak, ikkinchi guruh esa qushning patlarida ranglarni tanlaydi. Har ikki guruh ranglar aralashmasi qanday rang hosilasini topadi. Ranglar hosilasini topgan guruh g’alaba qozonadi.

Tasviriy san’at darslarini tashkil etishga qo’yiladigan talablar:

Didaktik talablar:

– o’quv materiallarining to’liq o’zlashtirilishini ta’minlash;

– matnlar axborot berishga emas, balki o’quv fanining mazmunmohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

– qiziqarli, hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo’lishi;

– ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

– ta’limning kundalik hayot va amaliyot o’rtasidagi bog’liqligini ta’minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo’llay olish layoqatlari

shakllantirilishiga, boshqa o’quv fanlari bilan uzviy bog’liqlikni ta’minlashga yo’naltirilgan bo’lishi;

– rasmlar ko’rinishidagi illustrasiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo’lishi;

– yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta’riflar va shu kabilar lug’at ko’rinishida ifodalangan bo’lishi lozim.

Ilmiy-metodik talablar:

– fan-texnikaning so’nggi yutuqlarini o’zida aks ettirishi;

– o’quv fani mavzulari o’zbek adabiy tili qoidalariga to’liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

– mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

– milliy g’oya va mafkuraga zid bo’lmagan tegishli illustrasiyalar bilan boyitilishi;

– savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo’lishi;

– o’quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o’tkazishga o’rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo’lishi;

– kasbga yo’naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug’at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o’stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo’lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

– keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma’lumotlar, o’quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda chizmachilik fani bilan bog’liq voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug’ullanishga bo’lgan ehtiyojlarini to’laqonli qondirishga yo’naltirilgan bo’lishi;

– o’quv fani mavzularining o’quvchilarning yosh xususiyatlariga mos holda berilishi, ma’lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog’liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

– o’quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o’zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo’lishi lozim.

Estetik talablar:

– imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo’lishi;

– matnlar o’quvchi – yoshlarga ma’lum ijobiy hissiy ta’sirlarni o’tkazishi va o’quv faniga qiziqish uyg’otishi;

– bo’lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta’minlanishi;

– rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

Gigiyenik talablar:

– matn va illustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena meyyorlariga mos bo'lishi;

– harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

Bolalikda ma'lum bo'lganidek, bolaning hayollari juda muhim rol o'ynaydi. Ko'pchilik kattalar bolaning hayollarini rivojlantirishga etarlicha e'tibor bermaydi, bu esa kelajakda bolalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi. Ijodkorlik har bir inson hayotida juda muhim rol o'ynaydi. Tasavvur va fantaziya har ikki munosabatlarda ham, ishda ham odamlarga yordam beradi, lekin eng muhimi, ijodiy insonlar har qanday biznesda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan o'zligini namoyon eta oladi. Shunday qilib, agar bola tasavvurning etishmasligidan aziyat chekmasa ham, ota-onalar o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor berishlari kerak.

Ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va shakllantirish

Kundalik hayotda ijodiy qobiliyatlarning asosiy rivojlanishi o'yin orqali amalga oshiriladi. O'yinda bolalar, ehtimol, bolalarning eng qiziqarli faoliyat doirasini aniqlashga qodir bo'lgan o'yinlarni yoqtirishlari mumkin. Shuning uchun o'yin - bu ijodiy qobiliyatlarni aniqlashning asosiy usullaridan biridir. Psixologlar sizning tasavvurlaringiz qanday darajada rivojlanayotganini va bolaning fikrlash tarzini belgilashga imkon beruvchi o'yin shaklida maxsus testlarni ishlab chiqdi. Ba'zi bolalar tasavvur kuchi bilan harakat qilishadi, boshqalari esa xotiraning tasvirini suratga olishga moyil. Ba'zan bolalar bunday o'yinlarda qatnashishni rad etishadi, bu esa bolaga alohida yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish ham katta rol o'ynaydi. Ota-onalar bolaga nafaqat rivojlanish imkoniyatini berishlari, balki faol ishtirok etishlari kerak. Har qanday holatda ham bolaga bosim o'tkazmang, unga o'yinni o'ynashga yoki amaliy san'atda ishtirok etishga imkon bering. Bolalarda har qanday ijodiy qobiliyatni shakllantirish uchun

nafaqat chaqaloqning moyilligini aniqlash, balki to’g’ri yo’nalishda rivojlanish istagini kuchaytiradigan jiddiy ishlarni amalga oshirish kerak.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari va vositalari

Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish vositasi sifatida deyarli barcha atrofdagi narsalar va vaziyatlardan foydalanishingiz mumkin. Ijodkorlik yaratishni anglatadi. Shuning uchun bolaning darslaridagi asosiy maqsad - uni qanday qilib tasvirlashni o’rgatish va oxirida nimani kashf etganini tushunishdir. Ba’zida, biz bilmagan holda, o’yin va muloqot orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiramiz. Ammo, barkamol rivojlanish uchun mustahkamlik va uslubiyat zarur. Agar qiziqish sizni zaiflashtira boshlaganini his qilsangiz, o’yinni qoldiring. Ammo uzoq muddatli tanaffuslar ham amalga oshirilmaydi. . Bolalarda ijodkorlik rivojlanishining barcha usullari – vizual, og’zaki va amaliy bo’lishi kerak. Vizual usullar har qanday suratlarni ko’rish, chizilgan yoki haqiqiy ko’rishni o’z ichiga oladi. Masalan, bulutlarni o’rganayotganda, ular nimaga o’xshashligini aniqlang. Og’zaki usullarga aloqa, hikoyalar, suhbatlarning turli shakllari kiradi. Amaliy usullar o’yinlarni, turli modellarni yaratish va ulardan foydalanishni va rivojlanish mashqlarini bajarishni o’z ichiga oladi. Barcha usullarni birlashtirib, siz o’zingizning intellektual qobiliyatlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan bolaning keng qamrovli rivojlanishiga erishishingiz mumkin.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Boshlang’ich sinflarda tasviriy san’atni o’qitishning o’ziga xos xususiyatlari, avvalo bu sinflardagi ta’lim mazmuni kichik maktab yoshidagi bolalarning yoshlik xususiyatlari va psixologiyasi, qiziqishi, ulardagi mavjud bilim va qobiliyat hamda layoqatlariga qarab belgilanadi.

Ma’lumki, bolalarda tasviriy faoliyatga, xususan rasm chizishga ishtiyoq nihoyatda erta boshlanadi. Uni 2-3 yoshlardan boshlanishi tarixdan ma’lum. Shunisi xarakterliki, bolalar o’qish va yozishdan ko’ra rasm chizishni juda yoqtiradilar. Biroq ular chizadigan rasmlarning davomiyligi juda qisqa bo’ladi, 1-2 minut, ko’pi bilan 4-5 minutda har qanday rasmni tugallab qo’yadilar. Bolalar tomonidan chizilgan rasmlar savodli bo’lmasa-da, biroq mazmunan biron-bir ko’rinishni, voqeani yoki buyumni o’z iqtidorlariga yarasha, ularning xarakterli belgilarini tasvirlay oladilar. Bo’yoqlar bilan ishlash ularga ma’lum qiyinchiliklar tug’dirishi sababli ulardan foydalanishni aytarlik xush ko’rmaydilar. Lekin turli yorqin ranglar bilan bo’yalgan buyumlar bolalarda katta qiziqish uyg’otadi. Rasmlari yaxshi chiqmagan holda o’z ishlaridan ixloslari tez qaytadi. Bunday sharoitda o’qituvchining bolalarga yordam ko’rsatishi va kayfiyatini ko’tarishga harakat qilishi foydadan holi bo’lmaydi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarining tasviriy faoliyatlarining xarakterli jihatlaridan yana biri ularning chizadigan rasmlarini soddalashtirishga bo’lgan

xarakatlaridir. Ular ayrim narsalarning oldi ko'rinishini (uy, odam, kitob, soat, portfel) ayrimlarini yon tomonidan (mashina, hayvonlar, qushlar, baliqlar, bayroqcha), yana boshqalarini ustki tomonidan (kapalak, barg, ninachi, qo'ng'iz) tasvirlaydilar. Bunga asosiy sabab bu yoshdagi bolalar hali narsalarni yorug' soya, perspektiv qisqarishi va ularning qoidalarini uncha tushunib etmaganliklaridir.

Bolalar ijodiga xos yana bir jihat bor, u ham bo'lsa tasvirlarni (buyumlarni) bir-birlarini to'sib turgan (yoki qisman) holda tasvirlanmasligidir. Chunki bolalar narsalarni doimo butun holda idrok etadilar.

Yuqorida qayd qilingan tasviriy faoliyatlarning bu hususiyatlari bolalar tafakkurining konkret, obrazli va emotsional tarzda bo'lishligi bilan bog'lanadi.

Endi boshlang'ich sinflarda tasviriy san'at darslarini o'tkazish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak avvalo uning quyidagi to'rt turi qayd qilinishi lozim:

1. Borliqni idrok etish.
2. Badiiy qurish-yasash.
3. Naturaga qarab tasvirlash (naturaga qarab rasm ishlash, naturaga qarab haykal ishlash).
4. Kompozitsion faoliyat.

Borliqni idrok etish mashg'ulotlari 1-4- sinf dasturida aks etgan bo'lib, uning maqsadi bolalarni o'rab olgan borliq haqida, ulardagi narsa va hodisalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, o'lchov nisbatlari haqida tasavvur hosil qilishdir. Chunki, bolalar tevarak-atrofni, ya'ni tabiat, hayvonlar va qushlar olami, hashoratlar va baliqlar, odamlar, obi-havo, predmet va buyumlar, qurilish va transport vositalari haqida yaxshi tasavvurga ega bo'lganliklari taqdirdagina ularning rasmlarini aniq-ravshan tasvirlaydilar. Borliqni idrok etish mashg'ulotlarining mazmunidan kelib chiqqan holda amaliyotda ularni o'rganishi kerak bo'lgan quyidagi yo'llar qo'llaniladi:

1. Buyumni, tabiatni o'ziga qarab kuzatish orqali o'rganish.
2. Borliq haqida o'qituvchining suhbati orqali o'rganish.
3. Savol - javob orqali o'rganish.
4. Borliqni rasmini chizish orqali o'rganish.
5. O'qituvchining pedagogik rasmi orqali o'rganish.

O'qituvchilar uchun namoyish etiladigan narsalar va tasvirlar avvalo mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq holda bo'lib, ular o'z tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari bilan sodda, tushunarli, bolalarda his - hayajon uyg'otadigan bo'lishligi maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi, bunday materiallar o'quvchilarni o'ylashga majbur etadigan, bolalarni yangi tushunchalar bilan boyitadigan bo'lishligi muhim.

Namoyish etiladigan narsalar, ularning tasvirlari haqidagi ma'lumotlarni bolalarga og'zaki etkazishda ularning tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tahlil

bevosita narsalarning tuzilishi, shakli, rangi, o'lchovlari, ularning mohiyati haqida savol – javob tarzida o'tkazilishi maqsadga muofiqdir.

Quyida borliqni idrok etish mavzusiga doir mashg'ulot ishlanmasi beriladi.

Dasning mavzusi: Kuzgi tabiat manzarasini idrok etish.

Darsning vazifalari: Kuzatuvchanlik, sinchkovlik, diqqat va xotirani o'stirish. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilishga va qadrlay olishga o'rgatish. Kuzgi tabiat manzarasining o'ziga xos xususiyatlari va kuzgi ishlar bilan tanishtirish.

Darsning jihozlanishi: Kuz fasli tasvirlangan rasm. Kuzgi ishlarga doir manzara tasviri. Tabiat qo'yniga sayohat. Uni tashkil etishning imkoni bo'lmagani taqdirda san'at asarlarining reproduksiyalaridan foydalanish mumkin. Masalan: O'.Tansiqboevning "Tog'da kuz", Z.Inog'omovning "Kuz", N.Karaxanning "Oltin kuz", I.Haydarovning "Oltin kuz", H.Basharovning "O'zbek kuzi. Shaftolilar", G.Chernuxinning "Farzandlar va nabiralar", Usta Mo'minning "Xirmonda" asarlarini olishimiz kerak.

Bu asarlarning hammasi bilan o'quvchilarni tanishtirish shart emas. Ulardan ayrimlari (o'z xoxishiga ko'ra) tanlab olinadi.

Darsning mazmuni. Mashg'ulot asosan ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi, kuzgi tabiat manzarasining xarakterli xususiyatlarini estetik idrok etish, ikkinchisi kuzgi ishlarning o'ziga xos tomonlari bilan tanishtirish. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida o'qituvchi shunday obyektni tanlashi lozimki, bu obyekt ham kuz, ham kuzgi ishlar uchun xarekterli ko'rinishda bo'lsin.

Dars o'quvchilarni maktab bog'i yoki dalaga sayohatga olib chiqish va u yerda amalga oshirilayotgan ishlar bilan tanishtirishdan boshlanadi. Sayohat jarayonida o'qituvchi bolalar e'tiborini chiroyli kuz manzarasiga jalb etadi. Ularga kuz fasli va bu vaqtdagi o'zgarishlar haqida so'zlab beradi: "Bolalar, mana hozir kuz fasli. U nihoyatda chiroyli, chunki, kuzda havo soviy boshlaydi, natijada daraxtlarning barglari o'z rangini o'zgartiradi. Ba'zi barglar qizg'ish tusga kiradi. O't-maysalar sarg'aygan bo'ladi, qisqasi, ular oltin rangga burkanadilar. Osmonda yengil parcha-parcha bulutlar paydo bo'ladi. Ertalab kuzgi ekin va o'tlarning usti oppoq qirov bilan qoplanadi. Erga to'kilgan daraxt barglari oyoq ostida shitirlaydi. Oktyabr oyida kech pishar mevalar terib olinadi va tokdagi shirin-shakar uzumlar uziladi. Yong'oq qoqiladi. Kechki kartoshka, sabzi, piyoz, lavlagi kabi savzavotlar yig'ishtirib olinadi. Bunday ishlarni amalga oshirishda o'quvchilar ota-onalariga, maktab bog'ida esa maktab jamoasiga yordam beradilar. Kuzda shahar va qishloqlarda ko'chat o'tkazish oyligi boshlanadi. Bu ishlarda ham bolalar kattalar bilan bir qatorda qatnashadilar. Kuzgi yig'im-terim ishlari nihoyatda zavqlidir. Sayohat jarayonida o'qituvchi emotsional-estetik vaziyat hosil qilish maqsadida bolalarga kuz va kuzgi ishlar haqidagi she'rlardan namunalar o'qib beradi.

She’r o’qib bo’lingandan so’ng, tabiatning ko’rinishi bolalar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida kuzatilayotgan manzara yuzasidan bolalarga savollar beriladi. Bu savollar quyidagicha bo’lishi mumkin:

– kuzda tabiatda qanday o’zgarishlar ro’y beradi?

– qarshingizdagi manzarada qanday daraxt turlarini ko’ryapsiz?

– daraxtlarning o’lchovi bir xilmi?

– daraxtlarning shakli bir-biridan qanday farq qilib turibdi?

– e’tibor bering, daraxt shoxlarining yo’g’onligi bir xilmi?

– daraxtlarning tanasi va shox-shabbalarining tuzilishi qanday?

– osmonga ham razm soling, uning rangi qanday?

– osmondagi bulutlarning shakli yoki rangi qanday (bulutlar bor bo’lsa)?

– o’t va daraxtlarning rangida farq bormi?

– tabiatni kuzatish jarayonida yaxshi taassurot qoldirgan narsa nima?

Tabiatni kuzatish jarayonida bolalar ba’zi bir tabiiy materiallarni (urug’lar, barglar, mayda hashoratlar, ildizlar) kolleksiya uchun yoki tasviriy ishlar uchun yig’ishlari mumkin.

Kuzatilayotgan obyekt yuzasidan savol - javob tugagach, o’qituvchi suhbatga yakun yasab, bolalarning javoblarini aniqlashtiradi, kamchiliklarini to’ldiradi, xatolarini tuzatadi.

Agar dars sinfda o’tkaziladigan bo’lsa, o’qituvchi yuqorida nomlari qayd qilingan tasviriy san’at asarlarining reproduksiyalari, diapozitivlari, slaydlarini bolalarga ko’rsatib, sinfda o’quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Lekin, shuni ham qayd qilish lozimki, dars sinfda qanchalik ilg’or metodlar bilan olib borilmasin, baribir u aynan tabiat qo’yniga qilingan sayohatning o’rnini bosa olmaydi. Shuning uchun o’qituvchi darsni iloji boricha tabiat qo’ynida o’tkazishga harakat qilishi lozim.

Uyga bolalarni yashash joylaridagi bironta oltin rangga kirgan tabiat manzarasini kuzatish vazifa qilib topshiriladi. Badiiy qurish-yasash mashg’ulotlarini boshlang’ich sinflarda o’tkazish rejalashtirilgan. Bunday mashg’ulotlarni o’tkazish uchun bolalarga turli-tuman tabiiy va badiiy materiallar zarur bo’lganligi sababli, o’qituvchi bu masalaga o’z e’tiborini ko’proq qaratishi kerak bo’ladi O’qituvchi barcha bolalarni bunday materiallar bilan ta’minlay olmagani taqdirda bu ishga o’quvchilarni jalb etishi zarur bo’ladi. Tabiiy va badiiy, tashlandiq materiallarni to’plash uchun sinfda maxsus joy ajratilgan bo’lishligi, uni bolalar ishtirokida to’lg’izib turilishi kerak bo’ladi.

Qurish-yasash mashg’ulotlariga xos bo’lgan bir muhim jihat shundaki, bunda o’qituvchi va bolalar amaliy ishlarning bir vaqtni o’zida bajaradilar. Ayrim mashg’ulotlarda (ko’pincha 3–4-sinflarda) amaliy ish uchun hamma tayyorgarlik

ishlari tugangani va topshiriq barcha bolalar uchun tushunarli bo’lganidan so’ng asosiy ishga o’tiladi.

Badiiy qurish-yasash mashg’ulotlarida o’qituvchi bolalarni faqat bir xil material yordamida ishlash bilan chegaralab qo’ymasligi lozim. Ular ham tabiiy, ham badiiy materiallar bo’lishligi mumkin.

Bunday mashg’ulotlarda o’qituvchi tabiiy materiallar yordamida hashorat, qush, hayvon, odam kabilarning shaklini ko’rsatishi muhimdir. Masalan, ildizda ilon, kaltakesak, ilon baliq, yong’oq po’chog’ida toshbaqa kosasi, tuxum po’chog’ida pingvin, jo’xori o’zagida hayvon tanasi shakllarini ko’rish mumkin. Badiiy qurish-yasash ishlarida o’qituvchi materiallarning xususiyatlari (qattiq, yumshoq, mo’rt, og’ir, engil, yaltiroq, egiluvchan), ular bilan to’g’ri munosabatda bo’lishlik haqida ham bolalarga etarlicha va keng tushunchalar berishi kerak bo’ladi. Turli materiallardan yasalgan narsalarni to’plab, ularni bolalarga tez-tez namoyish etib turish, ularning ijodkorligini faollashtiradi, tabiiy va tashlandiq materiallardan samarali foydalanishga yo’naltiradi.

Mashg’ulotlarning samaradorligi bolalarni uyda, ko’chada, sayohat vaqtida tabiiy va tashlandiq materiallarni ko’plab yig’ish hamda maktabga olib kelishga ham bog’liq. Shuning uchun o’qituvchi har bir darsda bu haqda bolalarga ko’rsatma berishi, yangi bajarilgan orginal qurish-yasash ishlaridan ularga ko’rsatib turishi yaxshi natijalar beradi.

Tasviriy san’at darslarida ijodiy topshiriqlar yaratish

Bugungi kunda ta’lim tizimida o’quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va estetik dunyoqarashini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda san’at fanlari, xususan, **tasviriy san’at** muhim o’rin tutadi. Tasviriy san’at darslari o’quvchilarga atrof-muhitni go’zallik bilan idrok etish, tabiat va jamiyat hodisalarini estetik jihatdan anglash, o’z ichki kechinmalarini badiiy obrazlar orqali ifodalash imkonini beradi.

Shu bois, tasviriy san’at darslarining samaradorligini oshirishda **ijodiy topshiriqlar** katta ahamiyatga ega. Ijodiy topshiriqlar o’quvchilarda san’atga bo’lgan qiziqishni uyg’otadi, ularni izlanishga, yangi g’oyalarni ilgari surishga undaydi. Bu topshiriqlar orqali o’quvchilar o’z tasavvur doirasini kengaytiradi, estetik didi shakllanadi, badiiy ifoda vositalaridan to’g’ri foydalanishni o’rganadi. Ayniqsa, bugungi tezkor axborotlar davrida bolalarning individual yondashuvi, yangilikka intilishi, mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini rivojlantirish ta’limning ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, ijodiy topshiriqlar orqali o’quvchilar faqatgina nusxa ko’chiruvchi emas, balki **yaratuvchi**, **g’oya egasi** sifatida shakllanadi. Bu topshiriqlar dars jarayonini zerikarli bo’lishidan asraydi, bolalarning ishtirokini faollashtiradi, ularni darsga jalb etadi. Darsning bunday interaktiv shakllanishi esa

nafaqat tasviriy san’at, balki boshqa fanlardagi muvaffaqiyatlarga ham ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu mavzuda tasviriy san’at darslarida ijodiy topshiriqlarni to’g’ri tashkil etishning metodik asoslarini, ularning turlarini, amaliy misollarini hamda bolalar ijodiyotiga ta’sirini ko’rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ijodiy topshiriqlarning ahamiyati

Tasviriy san’at darslarida ijodiy topshiriqlarning ahamiyati o’quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, badiiy-estetik tafakkuri va umumiy dunyoqarashining shakllanishida katta rol o’ynaydi. Ijodiy topshiriqlar o’quvchining nafaqat chizmachilik ko’nikmalarini rivojlantiradi, balki uning ichki dunyosini ochishga, mustaqil qaror qabul qilish, o’z g’oyasini ilgari surish, muammoni badiiy yo’sinda hal etish salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

1. Ijodiy fikrlashni shakllantiradi

Ijodiy topshiriqlar yordamida o’quvchilar tayyor qoliplar asosida emas, balki o’z tasavvuri, his-tuyg’ulari va shaxsiy tajribasi asosida ishlashni o’rganadilar. Bu esa ularning divergent (yo’nalgan emas, keng doiradagi) fikrlash salohiyatini oshiradi, har xil vaziyatlarda noodatiy yechimlar topishga undaydi.

2. Estetik didni rivojlantiradi

Badiiy obrazlar yaratish jarayonida o’quvchi rang, shakl, kompozitsiya, muvozanat kabi san’at elementlariga e’tibor qaratadi. Bu esa unda go’zallikni idrok qilish, noziklikni anglash, atrof-muhitdagi san’atiylikni qadrlash ko’nikmasini shakllantiradi. Shu orqali o’quvchi estetik ongga ega bo’lgan shaxs sifatida voyaga yetadi.

3. Ijodiy erkinlik va mustaqillikni ta’minlaydi

Har bir ijodiy topshiriq o’zida erkin yondashuvni talab qiladi. O’quvchiga muayyan mavzu doirasida o’z fikrini erkin bayon etish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o’z-o’zini ifoda etish, o’zini anglash va ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

4. Shaxsiy qiziqish va qobiliyatlarni aniqlashga xizmat qiladi

Ijodiy topshiriqlar orqali o’qituvchi har bir o’quvchining individual qobiliyatini, qiziqish doirasini, kuchli va zaif tomonlarini aniqlay oladi. Bu esa u bilan keyingi ishlarda individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi.

5. Badiiy tafakkur va obrazli fikrlashni rivojlantiradi

Tasviriy san’at darslaridagi ijodiy faoliyat o’quvchining badiiy tasavvurini kengaytiradi. U har bir mavzuni o’zicha talqin qiladi, real hayotdagi yoki fantaziyaviy obrazlar orqali fikr bildiradi. Bu esa obrazli tafakkur va tushunchalar asosida fikr yuritish ko’nikmasini shakllantiradi.

6. Madaniy va ma’naviy tarbiyada muhim vosita

Ijodiy topshiriqlar orqali milliy urf-odatlar, tarixiy obidalar, xalq amaliy san’ati unsurlari dars mazmuniga kiritiladi. Bu orqali o’quvchilarda milliy o’zlikni anglash, qadriyatlarga hurmat, san’at orqali vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirish mumkin.

7. Kommunikativ va ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantiradi

Ba’zi ijodiy topshiriqlar jamoaviy ishlashga mo’ljallangan bo’lib, o’quvchilarni bir-biri bilan fikr almashishga, g’oyalarni muhokama qilishga, hamkorlikda rasm yoki loyiha yaratishga undaydi. Bu esa ular orasida ijtimoiy faoliyatni, muloqot madaniyatini va o’z fikrini asoslash ko’nikmalarini rivojlantiradi.

8. O’quvchining darsga bo’lgan qiziqishini oshiradi

Oddiy va an’anaviy mashqlar o’rniga ijodiy topshiriqlar berilganda o’quvchilar darsni zavq bilan kutishadi, faol qatnashishadi. Bu esa o’z navbatida o’quv motivatsiyasini oshiradi va o’zlashtirish samaradorligini ta’minlaydi.

Ijodiy topshiriqlar tasviriy san’at darslarining mazmunini boyitibgina qolmay, o’quvchilarning shaxs sifatida shakllanishiga, o’z ijtimoiy o’rnini anglashiga, jamiyatda faol ishtirok etishga tayyor bo’lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bunday topshiriqlarni rejalashtirish va darsga integratsiyalash pedagogning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ijodiy topshiriqlar turlari

1. Ijodiy topshiriqlar – bu o’quvchilarning individual yondashuvini, tasavvur va fantaziyasini rivojlantirishga qaratilgan mashg’ulotlar bo’lib, ularni dars jarayonida didaktik maqsadlarga muvofiq tanlash va qo’llash muhimdir. Quyida bunday topshiriqlarning asosiy turlari keltiriladi:

1. Kompozitsion ijodiy topshiriqlar

Maqsadi:

O’quvchilarni sahna, manzara yoki voqeani badiiy tasvirlashga o’rgatadi. Bu topshiriqlar orqali tasviriy tafakkur, joylashtirish, mutanosiblik, asosiy va ikkinchi darajali elementlarni aniqlash qobiliyatlari shakllanadi.

Xususiyatlari:

Rejaga asoslangan chizma

Markaziy obraz va fon ishlanmasi

Rang va shakl muvozanati

Misollar:

“Do’stlik haqida hikoya” (kompozitsion voqea sahnasi)

“Yozgi bog’da” (manzara)

“Maktabimda bayram” (jamiyat hayotidagi sahna)

2. Obrazli-fantastik topshiriqlar

Maqsadi:

O’quvchilarning xayolotini kengaytirish, ularni real bo’lmagan, ammo tasvir orqali ifodalab bo’ladigan obrazlar ustida ishlashga o’rgatish.

Xususiyatlari:

Fantaziyaga keng imkoniyat

Real va ixtiro qilingan shakllarning uyg’unligi

Ranglarda erkinlik

Misollar:

“Sehrli shahar”

“Kosmosdagi hayot”

“Agar men robot bo’lganimda…”

3. Kollaj va aralash texnikadagi topshiriqlar

Maqsadi:

Turli materiallar bilan ishlash ko’nikmasini rivojlantirish, estetik va konstruktorlik yondashuvni uyg’unlashtirish.

Xususiyatlari:

Gazeta, mato, to’qima, tabiat materiallari, fotosuratlar bilan ishlash

Faktura va tekstura bilan tanishish

Tajriba asosida ijod qilish

Misollar:

“Tabiiy materiallardan hayvonlar”

“Gazeta bilan kompozitsiya: Mening oilam”

“Teksturada tajriba: faktura orqali tabiat”

4. Mavzuli-tarixiy topshiriqlar

Maqsadi:

Tarixiy voqealar, milliy qadriyatlar, xalq san’ati bilan bog’liq obrazlarni tasvirlash orqali estetik va vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish.

Xususiyatlari:

Tarixiy kontekstga asoslangan obrazlar

Xalq uslublariga taqlid

Milliy bezaklar, naqshlar

Misollar:

“Temuriylar davri madaniyati”

“O’zbek do’ppilarining naqshi”

“Ipak yo’lidagi karvonsaroy”

5. Jamoaviy ijodiy topshiriqlar

Maqsadi:

Hamkorlikda ishlash, birgalikda qaror qabul qilish va badiiy ifoda ko’nikmalarini shakllantirish.

Xususiyatlari:

Guruh yoki sinf bilan birga bajariladi

Ijodiy muhokama va rollarni taqsimlash

Yakuniy mahsulotni taqdim etish

Misollar:

“Mening maktabim kelajagi” – devoriy maket

“O’zbekiston – mening Vatanym” – sinfiy rasm

“Ekofestival” – ekologik plakatlar tanlovi

6. Muammoli-topqirlikka asoslangan topshiriqlar

Maqsadi:

Bolalarni izlanishga, muammoni hal qilishga, noodatiy badiiy yondashuvlar topishga yo’naltiradi.

Xususiyatlari:

Savol asosida boshlanadi

Erkin fikrlash va original yondashuv talab qilinadi

Har xil echimlarga ochiq

Misollar:

“Faqat 3 ta rang bilan rasm chiz!”

“Narsalarni to’g’ri joylashtir: nima qayerda bo’lishi kerak?”

“Shaklsiz shakllar: rasmda voqeani yashiring”

7. Dizayn va loyihaviy topshiriqlar

Maqsadi:

O’quvchini atrof-muhitni obodonlashtirish, predmetlar dizayni va funksional badiiy ishlarga tayyorlash.

Xususiyatlari:

Real obyektlar va muhit bilan bog’liq

Raqamli yoki eskizli tasvir

Ergonomik va estetik yondashuv

Misollar:

“O’quvchi daftarining muqovasini loyihala”

“Bolalar o’yin maydonchasi maketi”

“Choyshab to’plami uchun bezak loyihasi”

8. Didaktik-topshiriqlar (o’rgatuvchi ijod)

Maqsadi:

Tasniflash, solishtirish, ranglarni farqlash, shakllarni aniqlash orqali badiiy bilimlarni mustahkamlash.

Xususiyatlari:

Bilimga asoslangan mashqlar

Nazariy bilimlarni mustahkamlovchi faoliyat

Ijod bilan bilimni uyg’unlashtirish

Misollar:

“Issiq va sovuq ranglar bilan manzara chiz”

“Shakllarni joylashtir va kompozitsiya tuz”

“Naqshdagi simmetriya va ritmni top”

Tasviriy san’at darslarida topshiriqlarning har bir turi o’zining metodik vazifasiga ega. O’qituvchi bu turlarni o’quvchilarning yoshiga, qiziqishiga, dars mavzusiga va maqsadiga qarab muvofiq tanlasa, dars interaktiv, mazmunli va tarbiyaviy jihatdan boy bo’ladi.

Ijodiy topshiriqlarni ishlab chiqishda e’tibor beriladigan jihatlar

Ijodiy topshiriqlar samarador bo’lishi uchun ularni ishlab chiqish jarayonida o’qituvchi nafaqat estetik va metodik talablarni, balki psixologik, pedagogik va individual xususiyatlarni ham hisobga olishi lozim. Quyida topshiriqlarni yaratishda e’tiborga olinadigan asosiy jihatlar bayon etilgan:

1. Pedagogik maqsadga muvofiqligi

Ijodiy topshiriq darsning asosiy maqsadi bilan bog’liq bo’lishi zarur. U nazariy bilimlarni mustahkamlashi, yangi mavzuni o’zlashtirishga xizmat qilishi yoki ilgari o’rganilgan bilimlar asosida yangi g’oya yaratishga yo’naltirilgan bo’lishi kerak.

Masalan: “Naqshdagi ritm” mavzusiga mos topshiriq – “Naqshdan foydalangan holda idish yoki mato bezak chizish”.

2. O’quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mosligi

Ijodiy topshiriq o’quvchilarning aqliy, emotsional va psixomotor rivojlanish darajasiga mos kelishi kerak. Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun sodda, ko’proq tasvirli, qiziqarli obrazlarga boy bo’lgan topshiriqlar tanlanadi. Yuqori sinflarda esa mavzuning chuqurlashtirilgan, tahliliy va kompozitsion yondashuvini talab qiladigan topshiriqlar maqsadga muvofiq bo’ladi.

Misol: 2-sinf uchun – “Hayvonot bog’i”

8-sinf uchun – “Mening orzu bog’im – landshaft dizayn loyihasi”

3. Ijodkorlik va mustaqil fikrlashga yo’naltirilganligi

Topshiriq o’quvchini takrorlashga emas, balki erkin fikrlashga, fantaziya qilishga, muammoni o’ziga xos tarzda hal qilishga undashi zarur. Har bir o’quvchining ishlanmasi boshqalarnikidan farq qilishi kutiladi – bu ijodiy topshiriqning muhim belgisidir.

Yaxshi savol: “Sen kelajakdagi shahringni qanday tasavvur qilasan?”

Yomon savol: “Ana shu rasmdan ko’chirib chiz.”

4. Ish uslubi va texnikalar xilma-xilligi

Topshiriqlarda turli grafik, rangli, kollaj, bo’yoq, pastel, guash, suv bo’yoq, tuzilmaviy texnikalardan foydalanish imkoniyati bo’lishi lozim. Bu

o’quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni sinab ko’rishga, tajriba qilishga undaydi.

Misol: “Ranglar bilan hissiyot ifoda etish” – faqat ranglar orqali kayfiyat yaratish

5. Vaqtni inobatga olish

Ijodiy topshiriqning hajmi va murakkabligi dars davomiyligiga mos bo’lishi kerak. Bir darsda tugallanishi kerak bo’lgan topshiriq bir necha bosqichli yoki murakkab bo’lib qolmasligi lozim. Katta hajmli topshiriqlar uchun esa rejalashtirilgan bosqichma-bosqich ishlash shakli belgilanadi.

Masalan: “Sinf devor gazetasi” – 2 darsga rejalashtiriladi.

6. O’zaro hamkorlik va ijtimoiylashuv imkoniyatlari

Ba’zi topshiriqlar o’quvchilar o’rtasida guruhlarda ishlashni talab qiladigan tarzda yaratilishi mumkin. Bu ularning jamoaviy faoliyatga jalb etilishini, muloqot, fikr almashish, ro’l taqsimoti kabi ijtimoiy ko’nikmalarni shakllantiradi.

Misol: “Maktab bayramiga devoriy rasm” – guruhda bajariladi.

7. Estetik tarbiyaviy yondashuv

Topshiriq nafaqat rasm chizish, balki estetik tarbiyani ham maqsad qilishi lozim. Unda go’zallikni ko’rish, tasvirlash, obrazli fikrlash, muvofiqlik, proporsiya, rang uyg’unligi elementlari ustuvor bo’lishi zarur.

Misol: “Bahor manzarasi” – ranglar uyg’unligini sezishga yo’naltiriladi.

8. Fanlararo integratsiyaga yo’naltirilganlik

Ijodiy topshiriqlar boshqa fanlar bilan bog’liq bo’lishi, interdisiplinar yondashuvni targ’ib qilishi mumkin. Bu o’quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi.

Misol: Tarix fani bilan – “Amir Temur davridagi me’moriy obidalarni chizish”

Biologiya bilan – “Tabiat va ekologiya” plakatlari

9. Natijani taqdim etish imkoniyati

Topshiriq natijasi o’quvchi uchun muhimdir. Uning ijodiy mehnatini sinfdoshlariga taqdim etish, baham ko’rish, ko’rgazma qilish imkoniyati bo’lishi lozim. Bu motivatsiyani kuchaytiradi.

Misol: "Mening rasmlarim" mini-ko’rgazmasi

10. Baholash mezonlari aniq va rag’batlantiruvchi bo’lishi

Ijodiy topshiriqlarda baholash mezonlari har doim ochiq, tushunarli va qo’llab-quvvatlovchi bo’lishi kerak. Har bir o’quvchining individual yondashuvi, g’oya yangiligi, mehnati qadrlanishi lozim.

Baholash mezonlari misoli:

G’oya va mavzuga moslik – 5 ball

Kompozitsiya va tasvir sifati – 5 ball

Rang uyg’unligi – 5 ball

Tinish va tozalikka rioya – 3 ball

Ijodkorlik – 7 ball

Ijodiy topshiriqni ishlab chiqishda didaktik, estetik, psixologik va pedagogik yondashuvlar uyg’unligi zarur. O’qituvchi topshiriqni o’quvchilarning qiziqishlari va individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda loyihalasa, natijada u nafaqat samarali dars usuliga, balki o’quvchilarni tarbiyalovchi, ruhlantiruvchi vositaga aylanishi mumkin.

Tasviriy san’at darslarida ijodiy topshiriqlarning samarali tashkil etilishi o’quvchilarda mustaqil fikrlash, san’atga bo’lgan mehr, va ijodiy salohiyatni rivojlantiradi. Ustozning vazifasi – o’quvchini rag’batlantirish, yo’l ko’rsatish va unga erkin ijod uchun imkon yaratishdir.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Boshlang’ich sinf tasviriy san’at darslarini tashkil etish tamoyillari haqida so’zlab bering?
2. Tasviriy san’at darslarini tashkil etishga qo’yiladigan talablar nimalardan iborat?
3. Boshlang’ich sinf tasviriy san’at darslarida qanday didaktik o’yinlardan foydalanish mumkin?
4. Tasviriy san’at darslariga qanday ta’ablar qo’yilgan?
5. Tasviruy san’at darslarida orqali o’quvchilarda qanday hususiyatlar shakllanadi?
6. Kompozitsiya nima?
7. Tasviriy san’at darslarini tashkil etishdanimalarga e’tibor berish kerak?

1. S. F. Abdirasulov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi – T.: “Fan va texnologiya”, 2012-y, 232- bet.
2. . Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. -T ., “Aloqachi”, 2007.
3. Tasviriy san’at [Matn]: 1-sinf uchun darslik / A. Salixova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 72- b.
4. Q. Miraxmedov, Z. Xoshimova “Tasviriy san’at” o’qituvchi uchun metodik qo’llanma 2-sinf uchun / – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021-y, 112 -b.
5. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish https://uz.everaoh.com/ijodiy-qobiliyatlarni-rivojlantirish/

6. O’quvchilar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda illyustratorlar hayoti va ijodiy faoliyatini o’rganishning ahamiyati https://ares.uz/storage/app/media/2020-yil/Oktabr/pp.%20370- 1377.pdf
. S. F. Abdirasulov. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi- T.: “Fan va texnologiya”, 2012-y, 232- bet.
. Abdirasilov S. F., Tolipov N. X. Tasviriy san’at o’qitish metodikasi. – T ., “Aloqachi”, 2007-y.
. Q. Miraxmedov, Z. Xoshimova Tasviriy san’at. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. Toshkent – 2021-y, 121- bet.
. Tasviriy san’at [Matn]: 1-sinf uchun darslik / A. Salixova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021-y, – 72- b..

3.6.3-mavzu: Informatika va axborot texnologiyalari darslari orqali o’quvchilarni hayotiy vaziyatlarga tayyorlash.

(2soat amaliy)

Maktab.uz - bu xalqaro standartlarga javob beradigan va maktab o’quvchilari uchun yuqori sifatli uzluksiz masofaviy ta’limni ta’minlaydigan ilg’or raqamli ta’lim texnologiyasi. Platforma o’qituvchilarga ham, ota -onalarga ham o’quvchilarning rivojlanish darajasini kuzatish va mavzular mazmuni bilan tanishish uchun keng imkoniyatlar beradi. Nafaqat masofaviy, yanada mukammal qo`shimcha bilim olishlari hamda o`qituvchilar darslari davomida foydalanishlari mumkin bo`lgan videodarslar mavjud.

Platforma o’qituvchilarga ham, ota -onalarga ham o’quvchilarning rivojlanish darajasini kuzatish va mavzular mazmuni bilan tanishish uchun keng imkoniyatlar beradi. Nafaqat masofaviy ,yanada mukammal qo`shimcha bilim olishlari hamda o`qituvchilar darslari davomida foydalanishlari mumkin bo`lgan videodarslar mavjud

Kundalik. com

Kundalik.com platformasi bilan yanada kengroq va mukammal ishlash, barcha bolalarni ta’limga to`liq ta’minlanishiga erishishdir. Ota-onalar va o’qituvchilar o’rtasida muntazam aloqa o’rnatish, bolalarning yutuqlari va qiyinchiliklari haqida mulohaza yuritish.

EDUCARE.UZ

https://educare.uzedu.uz/

O’zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi ko`magi bilan ITSM- Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi, Respublika tashxis markazi- O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish va psixologik pedagogik tashxis markazi hamkorligida tashkil etilgan loyiha.

Google Classroom – o’qituvchilar va o’quvchilar uchun mo’ljallangan, o’qitish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi online platforma. O’qituvchilarga o’quvchilar bilan ishlashda bir qator afzalliklar taqdim etadi:

1. Oson tashkil etish va boshqarish

- Darslarni rejalashtirish: O’qituvchilar darslarni osongina tashkil etishi va ularga kerakli resurslarni qo’shishi mumkin.
- Beshta tartibi: Mazkur platforma strukturalashtirilgan tarzda darslarni yuritish imkonini beradi va dars materiallarini to’g’ri joylashtirishga yordam beradi.

2. Resurslar va materiallarni ulashish

- Hujjatlar va materiallar: O’qituvchilar Google Drive orqali resurslar, fayllar va materiallarni osonlik bilan ulashishi mumkin.
- Multimedia: Video, audio va boshqa formatdagi materiallardan foydalanish mumkin, bu o’quvchilarning qiziqishini oshiradi.

3. Qayta aloqa va baholash

- Dars natijalari: O’qituvchilar o’quvchilarning ishlarini baholashi va ular bilan tezkor aloqada bo’lishi mumkin.
- Kirish va qabul qilish: O’quvchilar ishlarini topshirishlari va natijalarini olish oddiy, bu esa baholash jarayonini soddalashtiradi.

4. O’qituvchilar va o’quvchilar o’rtasidagi hamkorlik

- Hamkorlik proyektlari: O’quvchilar guruhlar shaklida ishlashlari va birgalikda loyihalar ishlab chiqishlari mumkin.
- Forum va muhokama: O’quvchilar o’z fikrlarini bildirishlari va muhokama qilishlari uchun platformada joylar mavjud.

5. Shaxsiylashtirilgan ta’lim

- Individuallashtirilgan materiallar: O’qituvchilar o’quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda materiallarni tayyorlashlari mumkin.
- Qobiliyatga mos darslar: O’quvchilarning qobiliyatiga qarab darslar o’tkazilishi orqali o’rganish jarayoni moslashtiriladi.

6. Vaqtni tejash

- Avtomatlashtirish: Topshiriqlar berish va baholash jarayonlarini tezlashtirish mumkin, bu esa vaqtni tejashga yordam beradi.
- Eslatmalar va xabarnomalar: O’quvchilar uchun muhim ma’lumotlar va vazifalarga oid xabarnomalar jo’natish orqali tartibni saqlash mumkin.

7. Nazorat qilish va monitoring

- Izohlash va baholash: O’qituvchilar o’quvchilarning faoliyatini nazorat qilishlari va ularning rivojlanish jarayonini kuzatishlari mumkin.
- Natijalarni ko’rish: Har bir o’quvchining yutuqlari va muammolari haqida yaxshiroq tushuncha hosil qilish uchun statistik ma’lumotlar olish mumkin.

8. Bepul va foydalanish oson

- Yoshga moslik: Google Classroom bepul foydalanish mumkin bo’lib, o’qituvchilar uchun yaxshi imkoniyatlarni taqdim etadi.
- Qulay interfeys: Platforma oson va intuitiv foydalanish imkonini beradi, bu esa o’qituvchilarga va o’quvchilarga tezda ko’nikma hosil qilish imkonini beradi.

Xulosa

Google Classroom platformasi o’qituvchilarga o’quvchilar bilan samarali ishlashda ko’plab afzalliklarni taqdim etadi. Bu platforma o’rganish jarayonini soddalashtirib, o’qitish sifatini oshirishga va o’quvchilar bilan ishlashni yanada samarali o’tkazishga yordam beradi.

Khan Academy

MATEMATIKA:⬡ Boshlang‘ich matematika — @kau_boshlangich_matematika

Ibrat farzandlari – nodavlat notijorat tashkilot bo‘lib, dastlab xorijiy tillarni ommalashtirishga qaratilgan loyiha sifatida ish boshlagan. 2024-yil 5-mart kuni Adliya vazirligi tomonidan nodavlat notijorat tashkiloti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

"Ibrat farzandlari" platformasi quyidagi tarzda ishlaydi:

- Ta’lim resurslari: Platforma orqali turli tillarni o’rganish uchun ta’lim materiallari va resurslar taqdim etiladi. Bu materiallar o’quvchilarning o’zlashtirishini yaxshilash maqsadida ishlab chiqildi.
- Interaktiv kurslar: Yoshlar uchun interaktiv darslar va onlayn kurslar tashkil etildi. Bu kurslar orqali o’quvchilar o’z bilimlari va ko’nikmalarini oshirish imkoniyatiga ega bo’lishadi.
- Mutaxassislar ishtiroki: Til o’rgatishda malakali mutaxassislar ishtirok etadi, ular o’quvchilarga o’z bilimlarini taqdim etish va individual yondashuvni ta’minlashga yordam beradi.
- Muloqot platformasi: O’quvchilar o’zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo’lishi uchun maxsus forumlar va suhbat guruhlari tashkil etiladi.
- O’rganishning rag’batlantirilishi: O’quvchilarning muvaffaqiyatlari va yutuqlari tan olinadi, sertifikatlar beriladi, bu esa ularni til o’rganishga yanada rag’batlantiradi.

’ **Boshlang’ich ta’limda inkluyuziv ta’lim yondashuvlari**

’

’

’yoriy asoslari

’limning maqsadi va vazifalari

’

’ 4. Ta’lim modellari

Inklyuziv ta’limga huquqiy tarafdan birinchi maratoba 1994-yilda nazar tashlandi. Inklyuziv ta’lim‖ termini ilk bor Ispaniyaning Salamanka shahrida 1994-yilning 7-10-iyunida o’tkazilgan Maxsus ehtiyojlarga ega bo’lgan shaxslarning ta’lim sohasidagi prinsiplar, siyosati va amaliy faoliyati haqidagi Salamanka Deklarasiyasining 25-bayonotida rasman belgilangan.

Mazkur Deklarasiyasida 92 hukumat va 25 xalqaro tashkilot vakili bo'lgan uch yuzdan ortiq ishtirokchilar 1994 yil 1-10 iyun kunlari Salamankada (Ispaniya) barcha uchun ta'lim maqsadlarini ilgari surish va ta'lim uchun zarur bo'lgan asosiy siyosatga kiritilishi kerak bo'lgan o'zgarishlarni ko'rib chiqish uchun yig'ilishdi. Unda inklyuziv ta'lim yondashuvini ilgari surish, ya'ni maktablar barcha bolalar, ayniqsa, alohida ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar uchun ochiq bo'lishini ta'minlash masalalari ko'rib chiqildi hamda Ispaniya hukumati tomonidan YUNESKO bilan hamkorlikda tashkil etilgan konferensiyada oliy darajadagi ta'lim xodimlari, ma'murlar, rahbarlar va mutaxassislar, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti va ixtisoslashtirilgan idoralar, boshqa xalqaro hukumat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va donorlik agentliklari ishtirok etdilar. Konferensiyada Alohida ehtiyojli shaxslarni ta'lim olish tamoyillari, siyosati va amaliyoti va Harakatlar asosi to'g'risida‖gi Salamanka deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatlar barchani birlashtiradigan, farqlarni hurmat qiladigan, o'rganishni rag'batlantiradigan va individual ehtiyojlarga javob beradigan institutlarni – Maktablar hamma uchun‖ni yaratish yo'lida harakat qilish zarurligini tan olgan

1holda inklyuzivlik tamoyiliga asoslanadi. Ushbu maktablar barcha uchun ta'lim maqsadlariga erishish va maktablarning o'qitish samaradorligini oshirishga muhim hissa qo'shadi.

Keyingi o'rinda, Inklyuziv ta'lim‖ termini 2006-yilning 13-dekabrida «Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyasiumumiy yig'ilishining 61/106-rezolyutsiyasisida rasman qayd etilgan.

Ushbu Konventsiyaning maqsadi barcha nogironlarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklaridan to'liq va teng foydalanishini rag'batlantirish, himoya qilish va ta'minlash, shuningdek, ularning ajralmas qadr-qimmatini hurmat qilishni rag'batlantirishdan iborat. Nogironlarga uzoq muddatli jismoniy, aqliy, intellektual yoki hissiy nuqsonlari bo'lgan shaxslar kiradi, ular turli to'siqlar bilan o'zaro ta'sir qilish natijasida boshqalar bilan teng ravishda jamiyatda to'liq va samarali ishtirok etishlariga to'sqinlik qilishi mumkin.

Inklyuziv ta'limning xalqaro huquqiy-me'yoriy asoslari:

1. Inson huquqlari‖ umumjahon Deklaratsiya.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yilda qabul qilingan "Inson huquqlari" Umumjahon Deklaratsiyasi barcha insonlarning huquq va erkinliklarini, Ta'lim olish har bir insonning asosiy va ajralmas huquqi‖, uning barcha moddasi maxsus ehtiyojli insonlarga ham tegishli ekanligini kafolatlaydi.

2.Bolalar huquqlari to'g'risidagi‖ Konvensiya.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1989-yilda ishlab chiqilgan Bolalar huquqlari to'g'risidagi‖ Konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlar ko'ngilli tarzda zimmalariga mazkur kelishuv qoidalarini ma'muriy qonunchilik, sud va boshqa chora-tadbirlar yordamida hayotga tadbiq etish majburiyatini oldilar.

Konvensiyadagi barcha huquqlar maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun ham tegishli bo'lib, ularga barcha bolalar qatori teng munosabatda bo'lish kafolatlanadi. Kelishuvning 23 va 28-moddalarida ishtirokchi davlatlar barcha bolalarning ilm olish huquqini teng imkoniyatlar asosida amalga oshirishga asta-sekin erishish maqsadida, bepul va majburiy boshlang'ich ta'limni joriy etishlari,

2nogiron bolaning maxsus ehtiyojlarini aniqlab, uning ijtimoiy hayotga qo’shilishi va shaxs sifatida rivojlana olishiga yetaklovchi vosita hisoblangan ta’lim olishga har tomonlama yordam berilishi lozimligi ko’rsatilgan.

3. Nogiron shaxslar huquqlari to’g’risida‖gi Konvensiya

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2006-yilda qabul qilingan Nogiron shaxslar huquqlari to’g’risida‖gi Konvensiyasida nogironlar shaxsiyatini hurmat qilish huquqining tug’ilishi bilan mavjud bo’lishi, nogironlikning kelib chiqishi, darajasidan qat’iy nazar, fuqaro o’z yoshidagi tengdoshlari bilan bir xil huquqlarga ega bo’lishi, ular mumkin qadar to’laqonli yaxshi hayot kechirish huquqiga ham ega ekanliklari ta’kidlanadi.

4. Inchxon Deklaratsiyasi.

Koreyaning Inchxon shahrida Butunjahon ta’lim forumida sayyoramizdagi barcha shaxslarning ta’limi hamda zaruriy bilim va malakalarni egallashlarini ta’minlashga qaratilgan 2030-yilga qadar Rivojlanish Deklaratsiyasi hamda Global rejasi qabul qilinib, ularda ta’lim shaxsning rivojlanishi, o’z-o’zini namoyon etishi, jamiyat hayotiga uyg’unlashuvi, ijtimoiylashuvi hamda shaxsiy hayotida muvaffaqiyatga erishishining zaruriy sharti ekanligi alohida ta’kidlanib, 2030-yilga qadar barcha shaxslarga maktabgacha, boshlang’ich, o’rta, yuqori va kasbiy-texnik tayyorgarlik pog’onalarida sifatli ta’lim olishlari uchun inklyuziv va teng ravishdagi sharoitlarni yaratishni rasman qabul qildilar.

Inklyuziv ta’limning milliy huquqiy-me’yoriy asoslari:

1. O’zbekiston Respublikasining Ta’lim to’g’risida‖gi Qonun.

O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi 637-son Ta’lim to’g’risida‖gi Qonuni asosan deskreminatsiyani oldini olish, ijtimoiy hayotda teng huquqlilik asosida, hech qanday cheklovlarsiz ishtirok etish, barcha jabhalarda nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga va umuman olganda nogironligi bo’lgan shaxslarni ijtimoiylashuviga qaratilgan.

2. Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida‖gi qonun.

O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi 641-son Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida‖gi qonunning 5, 9, 15, 20, 34, 38, 51,

355-moddalari nogironligi bo’lgan bolalar ta’lim olishlari borasida - jumladan, 5- moddada nogironligi bo’lgan bolalarning ota-onalar bolalari uchun ta’limni tanlash huquqiga ega ekanliklari; 9-moddada nogironligi bo’lgan bolalar uchun ta’lim tashkilotlari ko’rsatilgan; 15-moddada inklyuziv ta’lim shakli ta’kidlab o’tilgan; 20-moddada nogiron bolalar uchun ta’lim tashkilotlarida inklyuziv talim tashkil etilishi; 34-moddada nogiron shaxslar alohida dasturlar asosida o’qitilishi; 38- moddada nogironligi bo’lgan bolalar TPPK (tibbiy pedagogik-psixologik komissiya) bilan ta’limga qabul qilinishlari; 51-moddada nogiron bolalar uchun uyda yakka tartibdagi nizomni qo’llash; 55-moddada nogiron bolalar uchun bepul ta’lim shakllari ta’kidlab o’tilgan.

3. Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida‖gi qonun.

O’zbekiston Respublikasining 2007-yil 23-noyabrdagi Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risidagi qonunda 29-moddasida jismoniy va (yoki) ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo’lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari bo’yicha ta’lim muassasalarida o’qish va

tarbiyalanish hamda o’z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo’lgan ta’lim olish huquqiga ega.

4. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida‖gi qaror.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son ‘Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori asosida maxsus ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, shu jumladan inklyuziv ta’lim joriy etish va inklyuziv ta’lim jarayonining tashkil etish masalalari batafsil tarzda yoritib berilgan.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son ‘Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qaror asosida inklyuziv ta’limni targ’ib va tashkil etish tartibi belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 638-son qarori asosidagi inklyuziv ta‗limning maqsadi:

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo’llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to’siqsiz moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to’laqonli uyg’unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o’rta ta’lim berishni ta’minlashdan iborat.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 638-son qarori asosidagi inklyuziv ta‗limning vazifalari:

1. rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo’lgan o’quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo’lishni ta’minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;

2. jamoatchilik hamda ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan o’quvchilar muammolariga nisbatan bag’rikenglik munosabatini shakllantirish;

3. ta’lim jarayonida sog’lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;

4. barcha o’quvchilar uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq umumiy o’rta ta’lim dasturlarini o’zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;

5. o’quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko’nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

6. alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta’lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metod va vositalarini qo’llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo’llab-quvvatlash.

Xozirgi kungacha ko’pgina pedagoglar nogironligi bo’lgan bolalar bilan ishlashda turli xil yondashuvlardan foydalanib kelmoqdalar. Masalan, o’qituvchilar aksariyat hollarda quyidagi 2 xil yondashuvdan foydalanadilar:

1-yondashuv. Nogironligi bo’lgan o’quvchi oxirgi partalardan birida. O’qituvchi dars yakunida nogironligi bo’lgan o’quvchiga vaqt ajratadi. Aksariyat

Eksklyuziya – (lot. exclusio istisno qilish) Bola ta’lim olishda qiyinchiliklarga uchraganligi uchun mos ta’limni taqdim etish imkoni bo’lmaganligi sababli ta’limdan chetlatish holati.

hollarda vaqt kam qoladi va oqibatda nogironligi bo’lgan o’quvchi e’tiborsiz qoladi.

2-yondashuv. Nogironligi bo’lgan o’quvchi birinchi partada va asosiy e’tibor nogironligi bo’lgan bolaga qaratiladi. Oqibatda sog’lom o’quvchilarga kam vaqt ajratiladi.

Bundan tashqari, nogironligi bo’lgan bolalarni ijtimoiy hayotga yo’naltirish maqsadida quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish mumkin:

1. Tibbiy – bu nogironlikni operatsion aralashuvlar asosida to’g’irlash va nogironlarni sog’lomlashtirish jarayoni.

2. Ijtimoiy – afsuski, so’nggi tibbiyot yangiliklari ham nogironlikni to’g’irlashda ojizlik qiladi va ijtimoiy yondashuv ularni jamiyatning qarashlari asosida ularni ijtimoiy hayotga yo’naltirishga yordam beradi. Masalan, nogironligi bo’lgan shaxslarga qo’maklashuvchi yordamchi texnologiyalar va korreksiya, kompensatsiya jarayonlari.

Turli ta’lim modullarining ta’rifini ko’rib chiqishdan avval, biz ta’lim modullari turlarini sanab o’tamiz:

Eksklyuziya
Segregatsiya
Integratsiya
InklyuzivEksklyuziya ta’limida quyidagi ta’lim sharoitlari kuzatiladi:
An’anaviy ta’lim
Sog’lom bolalar
An’anaviy pedagoglar

Eksklyuziya ta’limida ta’lim olishga qodir bo’lgan bolalardan ta’lim olishga qodir bo’lmagan bolalarni ajratib olgan holda, ta’lim olishga qodir bo’lgan bolalarga ta’lim berish jarayoni hisoblanadi.

Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun ilk maktablar XVII asr o’rtalari tashkil etilishni boshlagan. Ilk maktab ko’rishda nuqsoni bo’lgan bolalar uchun tashkil etilgan. XVIII -asrgacha dunyo ko’zi ojizlar uchun ta’lim muassasalarini bilmas edi. Valentin Gayui birinchi bo’lib o’zi ixtiro qilgan shrift yordamida ko’rlarni uslubini uslubini ko’rsatdi. Valentin Gayui 1784-yilda Parijda hukumat va xayriya jamiyatlari ko’magisiz, o’z uyida o’z mablag’lari evaziga ko’zi ojiz bolalar uchun dunyodagi birinchi ―Ishchi ko’zi ojizlar ustaxonasi‖ni ochdi. Valentin Gayuining birinchi talabasi cherkov ayvonida tilanchilik qiluvchi bola Fransua de Lesueur edi. Keyin yana 11 nafar uysiz tengdoshlari maktabga jalb qilinadi.

Ko’zi ojiz bolalarni o’qitish va tarbiyalash Valentin Gayui tomonidan ilmiy asosga qo’yilgan. U ―unsial‖ relyef-chiziqli yozuvni ishlab chiqdi. Ushbu shrift o’z nomini lotincha so’zdan olgan, ―uzunligi bir untsiyaga teng‖ degan ma’noni anglatadi. Bu qalin qog’ozga bo’rtma naqshli katta harflar edi. ―Uncial‖ ning asosiy afzalligi shundaki, bu shrift yordamida ko’zi ojiz bolalarni ko’zi ojizlar uchun mo’ljallangan kitobni o’qish va chop etishga o’rgatish mumkin edi. Shrift mobil edi va bu ko’r bolalarga to’g’ri matnni yozishga yordam berdi. Bundan

tashqari, Valentin Gayui ko’zi ojizlar uchun moslamalar va relyefli ko’rgazmali qurollar, geografik xaritalar va globuslar tayyorlash uchun matritsalarni ishlab chiqdi. U shogirdlariga bu hunarni o’rgatgan. Ko’zi ojizlar uchun kitoblar yarat ish g’oyasi ham Valentin Gayuiga tegishli.

Katta moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, Valentin Gayui maktabda bosmaxona qurdi va unda bir nechta kitoblarni chop etdi. Bu ko’rlar uchun birinchi

kitoblar edi. Ko’rlar Lui Brayl bo’rtma olti nuqtali shriftni ixtiro qilguniga qadar (1829 yilda) Valentin Gayui kitoblariga ko’ra o’qitilgan.

Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun keyingi maktablar eshitishda nuqsoni bo’lgan bolalar uchun tashkil etilgan. Vyborg tumanidagi 1-sonli maktab-internat Rossiyadagi kar bolalar uchun birinchi ta’lim muassasasidir. U 1806-yil dekabrda imperator Pol I ning rafiqasi Mariya Fedorovna hisobidan tashkil etilgan. 200 yildan ortiq vaqt mobaynida ta’lim muassasasi kar bolalar uchun tovushlarga to’la dunyo eshigini ochmoqda.

Keyingi o’rinda, aqliy rivojlanishda nuqsoni bo’lgan bolalar uchun mo’ljallangan maktablar tashkil etilgan. Birinchi tajribalar 1871-yilda Hansen (Hans Hansen) va Lippestad (Johan Anton Lippestad) surdopedagoglar tomonidan o’tkazildi. 1877-yilda ular aqli zaif bolalar uchun birinchi maktabni yaratdilar. Undan keyin o’g’il bolalar va qiz bolalar uchun alohida o’qituvchilar tomonidan yaratilgan boshqa maktablar paydo bo’ldi.

1892-yilda Norvegiya ―Majburiy maktab ta’limi to‘g‘risida‖gi qonunni qabul qilib, barcha maktablarni, shu jumladan, korreksion maktablarini ham davlat nazoratiga o‘tkazdi. Natijada, Norvegiya va Saksoniya Evropada aqli zaif shaxslarni o’qitish majburiy bo’lgan yagona davlatlarga aylanadi.

Albatta bu ma’lumotlarni berishdan maqsad, Segregatsiya ta’limining paydo bo’lish tarixini ochib beradi va keyingi o’rinda Segregatsiya ta’limini ko’rib chiqamiz.

Segregatsiya - (lot. segregatio — ajratish, izolyatsiya qilish, olib tashlash, ajratish) — kundalik hayotda odamlarni irqiy, etnik yoki boshqa guruhlarga majburan ajratish.

Segregatsiya ta’limida quyidagi ta’lim sharoitlari kuzatiladi:

Maxsus maktab

Nogironligi bo’lgan bolalar

Maxsus pedagoglar

Maxsus shart-sharoitlar

8Segregatsiya ta’limida qobiliyatlari, imkoniyatlari va shaxsiy sifatlarini inobatga olgan holda ta’limga ajratish, bo’lish jarayoni kuzatiladi.

Integratsiya - (lot. integratio - tiklash, to’ldirish, bog’lanish so’zidan) - qismlarni bir butunga birlashtirish jarayoni.

Integratsiya ta’limida quyidagi ta’lim sharoitlari kuzatiladi:

Ta’lim tizimi o’zgarmas

Bola talablarga moslashishga majbur

Bola tizimga moslashadi yoki tizim murakkablik qiladi

Sog’lomlashish jarayoni oqsaydi

Integratsiya ta’limi birgalikdagi, biroq alohida ta’lim turi hisoblanadi. Inklyuziv – (lot. include – o’zi ichiga olish, kiritish) – nogironligi bo’lgan

shaxslarni faol ijtimoiy hayotga qo’shilish jarayoni. Ta’lim sohasida esa ularga barcha kerakli shart-sharoitlarni yaratgan holda ta’limga jalb etishdir.

Inklyuziv ta’limida quyidagi ta’lim sharoitlari kuzatiladi:

Barcha bolalar turlicha

Barcha bolalar ta’lim shaklini tanlay oladilar

Bolalarning qobiliyatlari, imkoniyatlari, yoshi, turli darajadagi kelib chiqishi inobatga olinadi

Tizim bolalarga moslashtiriladi

Inklyuziv ta’lim bolaning ta’lim ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashuvchi ta’lim jarayoni hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Qaysi qaror asosida inklyuziv ta’limni tashkil etish va targ’ib etish tartibi belgilanadi?

2. Inklyuziv so’zining ma’nosi nimani anglatadi?

3. Inklyuziv ta’limga qanday bolalar jalb qilinadi?

4. ―Inklyuziv ta’lim‖ termini ilk bor qaysi hujjatda qayd etilgan?

O’zbekistonda inklyuziv ta’lim ilk bor Xalqaro Yunisef tashkiloti tomonidan moliyalashtirilgan “Do’stona munosabat muhitidagi maktab” loyihasi doirasida 2005-2006-yillar davomida boshlangan.

Loyihani amalga oshirishda Respublikamizdagi barcha yetakchi defektolog olimlar, muaxassislar, psixonevrolog, pediator, oftalmolog ixtisosligidagi shifokorlar ishtirok etib, 4 ta viloyatning 10 ta tumani o’rganildi. O’rganilgan 4 ta viloyatning 10 ta tumanidan ta’limga jalb qilinmagan va uyda ta’lim olayotgan 741 nafar bola o’rganilgan (tashxis qilingan.

150 nafar rahbar xodimlar seminarlarda va tadqiqot jarayonida ishtirok etishdi (Xalq ta’limi boshqarmasi, sog’liqni saqlash, Hokimiyat, mahalla vakillari);

220 nafar inklyuziv sinf o’qituvchilari birinchi bosqich o’qishda qatnashdilar;

80 nafar ota-ona ishtirok etdi;

711 ta oilaga kirib borilda, joylarda ularga pedagogik, maxsus psixologik korreksiya ishlari bo’yicha maslahat va metodik yordam berildi;

Loyiha tatijasida integratsiya asosida 2005-2006-o’quv yillaridan boshlab O’zbekistonda ilk bor 102 ta maktabda dastlabki inklyuziv ta’lim boshlandi.

Keyingi o’rinda, 2006-2008 yillarda “Imkoniyati cheklangan bolalar umumiy ta’limi” (JFPR- Yaponiya kambag’allikni kamaytirish jamg’armasi 9091- UZB) ORB loyihasi doirasida inklyuziv ta’limning birodarlashgan maktablar tarzidagi inklyuziv ta’lim sinovdan o’tkazildi. Loyiha doirasida Respublikamizning

16 ta viloyatida 8 ta maxsus maktab va maktab-internatlar va 16 ta umumta’lim maktablarida inklyuziv sinflari tashkil etilib, 350 nafar alohida ehtiyojli maktab- internat o’quvchilari umumta’lim maktablarida integratsiyalashgan ta’lim asosida ta’limi tashkil etildi.

Inklyuziv ta’limni tashkil etishda quyidagi tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi:

loyiha ishtirokchilari bo’lgan maxsus maktab-internatlar va birodarlashgan umumta’lim maktablari binosi va maktab-internatdan birodarlashgan maktabgacha bo’lgan yo’llarni ta‟mirlandi;

maktablar nuqson turlarini inobatga olgan holda rekonstruksiya qilishga erishildi;

o’quvchilarni maktabga to’siqsiz qatnovini ta‟minlash maqsadida maxsus avtobuslar ajratildi;

maxsus ta’lim muassasalarini korreksion texnik vositalar, maxsus jihozlar bilan ta‟minlashga erishildi;

o’quv metodik baza yaratildi, metodik ta‟minot ishlarini mustahkamlandi; umumta’lim maktablari o’qituvchilari uchun maxsus seminar o’quvlari

tashkil qilindi joylarda ilgg’or pedagogik tajribalarni o’rgatish orqali ta’limning integratsiyalashgan jarayoniga tayyorlandi;

modernizatsiya qilingan umumta’lim DTSlarni maxsus inklyuziv ta’limga moslashtirildi;

Bugungi kunda esa, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida inklyuziv ta’lim tan olinmoqda. Respublikamizda ta’lim tizimini jahon standartlariga tenglashtirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezidentimizning inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan farmonlari, qarorlari:

O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi 637-son “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni; O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi 641-son “Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi qonuni;

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori.

Inklyuziv ta’limning maxsus ta’limdan afzalligi

Inklyuziv ta’lim – bu rivojlanishida va ta’limda alohida ehtiyoji bo’lgan bolalarning umumta’lim maktabida alohida sinfda emas, balki sog’lom tengqurlari bilan bir sinfda ta’lim olishidir.

Hamkorlikdagi (inklyuziv) ta’lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olingan. Respublikamizda inklyuziv ta’lim jahon tajribasi va siyosati kabi eng muhim, zamonaviy siyosat bo’lib kelmoqda.

inklyuziv ta’lim – bu shunday ta’lim-tarbiya jarayoni-ki unda jismoniy, ruxiy, aqliy va boshqa muammolaridan qat’iy nazar barcha bolalar umumiy tarzda o’z uyi va hududida ularning ehtiyojlariga mos barcha sharoitlar yaratilgan, ularning ta’limdagi ehtiyojlari hisobga olingan holda maxsus yordam ko’zda tutilgan maktablarda o’z tenqurlari bilan ta’lim olishi demakdir.

Inklyuziv ta’limning joriy etilishida yuzaga kelayotgan muammolar

Ko’p yillar davomida nogironligi bo’lgan shaxslar ijtimoiy tengsizlik oqibatida ko’pgina to’siqlar va muammolarga duch kelganlar. Aynan inklyuziv ta’lim ularga ijtimoiy hayotda tenglikni ta‟minlash garovi bo’lishi mumkin.

Eng avvalo inklyuziv ta’limga o’tishdagi muammolarni sanab o’tamiz. Bu jarayonlarni ko’rib chiqish orqali inklyuziv ta’lim jarayonida kelib chiqishi mumkin bo’lgan muammolarni bilib olamiz. Demak, inklyuziv ta’limga o’tishdagi muammolar quyidagilardan iborat:

- Moliyaviy; - butun tizimni o’zgartirish va moliyalashtirish eng asosiy va eng qiyin jarayonlardan biri ekanligi, inklyuziv ta’lim maktabida maktab yangi ko’rinishlarga ega bo’lgan holda yangicha talarlarga ega bo’lishi zarur, ya‟ni alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’limiy ehtiyojlariga javob beruvchi

3shart-sharoitlarni ta‟minlash hamda ularga ta’lim beruvchi o’qituvchilarni rag’batlantirish va ularni kasbini jozibali qilish orqali alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’limini yanada sifatli qilish mumkin.

- Muhit; - inklyuziv ta’limga kirishdan avval odatiy ravishda ko’rishimiz mumkinki, umumta’lim maktabi shart-sharoitlar jihatidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ta’limiy ehtiyojlariga va talablariga javob bermaydi. Buning oqibatida esa, turli xil to’siqlar va qiyinchiliklar paydo bo’ladi. Inklyuziv ta’lim muhitini yaratish uchun to’siqlarsiz va bolalarning ehtiyojlariga mos muhitni yaratish ham juda zarur masalalardan biri hisoblanadi. Muhitga nafaqat shart-sharoitlar balki, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga nisbatan butun jamoaning qarashlari ham kiradi.

- Steriotiplar; - xozirgi kunda nogironligi bo’lgan shaxslarga nisbatan umuman olganda jamiyatning qarashlari va munosabatlarini ijobiy deb bo’lmaydi. Aksar jamiyat a‟zolari sog’lom bolalari bilan nogironligi bo’lgan bolalar birgalikda ta’lim olishlariga qarshilik bildiradilar. Inklyuziv ta’limni maqbul darajada targ’ib qilish uchun eng avvalo jamiyatning sreriotiplari ya‟ni, qarashlarini ijobiy tarafga o’zgartirishimiz kerak. Bu ishlarni jamoatchilik asosida turli xil treninglar va seminarlar orqali amalga oshirishimiz mumkin. Ota-onalar, pedagoglar va bolalarning barchasida qotib qolgan sreriotiplarni o’zgartirganmizdan so’ng alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning inklyuziv ta’limda ishtirok etishlari qulay kechadi.

- Manbalar; - inklyuziv ta’limni joriy qilishda manbalar va tadqiqot ishlari hamda ma‟lumotning kamligi ham asosli qiyinchilik bo’lishi mumkin. Inklyuziv ta’limni targ’ib qilayotgan maktab rahbari xorijiy tajribalarni o’zganish va tahlil qilish uchun majbur bo’ladi, negaki, milliy manbalar yetarli emas. Eng katta muammo rahbar til bilmakligi yoki mazkur manbani tushunmasligi emas, balki bu manbalarni bizni mentalitetimizga to’g’ri kelmasligi yoki uni bizni madaniyatimizga moslashtirish kerakligidadir. Bu kabi murakkab jarayonlardan iborat bo’lgan qiyinchiliklarni oldini olish uchun inklyuziv ta’limni joriy qilish

4sohasidagi milliy manbalar va tadqiqot ishlari ko’paytirishga talabni kuchaytirish zarur.

- Pedagogik tayyorgarlik; - umumta’lim maktablari pedagoglarining tayyorgarlik darajasi va alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning o’ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarning yetarli emasligi ham odatiy muammo hisoblanadi. Chunki, umumta’lim maktabi uchun inklyuziv ta’lim yangilik va yangiliklarga tezda moslashib bo’lmaydi. Bu kabi qiyinchiliklarni yengish

maqsadida turli xil kurslar tashkil etilgan va o’qituvchilarni kurslarga jalb etish orqali bu kabi muammolarni bartaraf etish mumkin.

-Ota-onalar; - sog’lom bolalar ota-onalarning alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga nisbatan ijtimoiy munosabatlarining yaxshi emasligi va ularning ijtimoiy qiyinchiliklari va nuqsoniga nisbatan befarqliklari juda jiddiy qiyinchiliklardan biri hisoblanadi. Nogironligi bo’lgan bolalar ota-onalarning kechinmalarini his qilmasliklari oqibatida bu kabi qiyinchiliklar kelib chiqadi. Inklyuziv ta’limni targ’ib etishda eng katta muammo bu sog’lom bolalar ota - onalarning qarshiliklari hisoblanadi. Bu kabi qiyinchiliklarni yengish maqsadida turli toifadagi bolalarning ota-onalari bilan uchrashuvlar va yig’ilishlar o’tkazish kerak. Bu kabi uchrashuvlar va yig’ilishlarda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ota-onalari o’z kechinmalari va hayotda uchrashlari mumkin bo’lgan to’siqlar va ularni qanday qilib yengishlari haqida gapirib o’tadilar. Bu ko’rinishdagi ishlar turli xil ijtimoiy tabaqadagi ota-onalar o’tasida katta tajribalarni orttirishga yordam beradi.

Albatta barcha muammolar sekin-astalik bilan vaqt o’tishi bilan va albatta tajriba ortishi bilan yechish mumkindir. Bu kabi muammolar jarayonda yengib o’tiladi va faqatgina vaqtni talab etadi.

Inklyuziv ta’lim sinfida yuzaga keluvchi muammolar

Baʻzi muammolar faqatgina vaqt o’tishi bilan emas balki, mehnatni talab qilish mumkin. Biz sizlar bilan mehnatni talab qiluvchi muammolar va ularning yechimlarini ko’rib chiqamiz.

Inklyuziv ta’lim sinflarida yuzaga kelishi mumkin bo’lgan muammolar: 51-muammo. O’qituvchi say-harakatlari o’quvchilarni o’zaro birlashtira olmasligi va tarbiyaviy soatlarning besamar bo’lishi;

Yechim: Inklyuziv ta’lim sinfi o’qituvchisi sinf oltin qoidalarini ishlab chiqishi kerak. Bu qoidalarga amal qilish naqadar zarurligini ham o’qituvchi tushuntirib o’tishi kerak.

2-muammo. Bola darsda turib yurishi va darsni tinglashni xohlamasligi; Yechim: Aksar hollarda alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalar dars

qiziqarli bo’lmasa yoki o’qituvchi uni darsga qiziqtira olmasa darsda turli ko’rinishdagi noqulayliklarni tug’dirishi mumkin. Bu kabi holatlarga uchramaslik uchun o’qituvchi darslarda ko’rgazmalilikni ko’paytirishi va guruhli ishlarni mutazam olib borish kerak.

3-muammo. Bolani tilini tushunmaslik (masalan imo-ishora nutqi yoki bolani gapira olmasligi);

Yechim: Yordamchi pedagog yordamida uning nutqini tarjima qilish orqali yoki nutq yo’qligida yozishmalar orqali muloqot qilish mumkin.

Bundan tashqari, doimiy ravishda yechimini hal qilish kerak bo’lgan muammolar ham mavjud. Bu sog’lom bolalar ota-onalarining qarshiliklaridir. Bu kabi qarshiliklarni yengish maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

- Sinf rahbari kamida har chorakda volontyor ota-onalar jamoasini tuzgan holda nogiron bolalar ota-onalarining psixologik xususiyatlari haqida majlislar o’tkazish, ularning qiyinchiliklari haqida maʻlumotlar berish;

- Nogironligi bo’lgan bolalarning ota-onalari boshlaridan kechirgan va kechirayotgan qiyinchiliklar va kechinmalarni qolgan ota-onalar jamoasiga so’zlab berish. Ularning asosiy maqsadlari bolalarini sog’lom bolalarga qo’shish orqali ijtimoiy hayotga tayyorlash ekanligini tushuntirish.

Inklyuziv ta’lim jarayonida ta’limiy ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda qo’llaniluvchi usullar quyidagilarga tayanishi kerak:

ko’rgazmalilikka;

o’quvchining amaliy faoliyatiga;

yetakchi o’yinli faoliyatga;

qisqa va aniq ko’rsatmalarga;

o’quvchilarning shaxsiy tajribalariga;

o’quvchilarning shaxsiy tajribalariga.

Inklyuziv ta’lim jarayonida faoliyat yurituvchi har bir pedagog yuqorida berilgan usullarga tayangan holda darslarini olib borsalar samaraliroq bo’ladi va bolalardan natijalarni tezda olishlari mumkin bo’ladi.

Keyingi o’rinda, yuqoridagilarga tayangan holda guruhda ishlash jarayonini ko’rib chiqamiz.

Nogironligi bo’lgan bolalar va sog’lom bolalar o’rtasida o’zaro to’g’ri munosabatlarni shakllantirishda guruhli ishlarning ahamiyati ham kattadir. Masalan, guruhda ishlash jarayonida bolalar bir guruhga birlashadilar va ma‘‘lum bir muammoni yechish borasidagi malakalarini rivojlantirishga imkon beruvchi faoliyat turi yo’lga qo’yiladi.

Guruhda ishlash bolalarda quyidagi ko’nikmalarni rivojlantirga yordam beradi:

- Fikrlar birlashadi va bir-birlarini to’ldiradilar;

- Guruhdagi ishlar aksariyat hollarda yutuqlarga olib keladi;

- Guruhda o’zaro muloqot qiladilar hamda tajriba va fikrlar almashinadi;

- Guruhda ishlash jarayonida hamkorlikda ishlash ko’nikmalari rivojlanadi. Guruhli ishlar - alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar va sog’lom bolalar

o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tezroq yaxshilashga va do’stona munosabatlarni o’rnatishga imkon beradi. Shuning uchun ham, guruhli ishlarni muntazam ravishda olib borish tavsiya etiladi.

Inklyuziv ta’limda alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar uchrashi mumkin bo’lgan muammolarni rahbariyat yoki ota-onalar jamoasi yoki bolalar jamoasi alohida-alohida qatlamga bo’lingan holda yenga olmaydilar.

Bu kabi qiyinchiliklarni barcha birgalikda birlashgan holda yengishi mumkin.

Demak, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning ijtimoiylashuvi uchun barchamiz birgalikda harakat qilishimiz kerak!

1. O’zbekistonga inklyuziv ta’limning kirib kelishi
2. Inklyuziv ta’limning joriy etilishida yuzaga kelayotgan muammolar
3. Inklyuziv ta’lim jarayonida qo‘‘llanuvchi metodlar

3.7.2.Mavzu: Amaliy topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv orqali rejalashtirish.

(2soat)

Mashg’ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	3.Boshlang`ich ta’limda zamonaviy yondashuvlar	**Zarur jihozlar**	**Natija**
O‘quv modul	Tanlov moduli	1- 3-slaydlar	O’qituvchilar mashg’ulotga tayyor bo’lishadi.
Mavzu	Amaliy topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv orqali rejalashtirish	4-slayd	O’qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag’batlanadi.
	daqiqa	5-13-slaydlar	O’qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o’rganadi.
Mashg’ulotni	1. O’qituvchilarga kompetensiyaviy yondashuvining ahamiyati va afzalliklarini tushuntirish. 2. Amaliy topshiriqlarni kompetensiyaviy yondashuv orqali o’qitish usullarini ko’rsatish. 3. Dars rejasida kompetensiyaviy yondashuvidan foydalanish uchun zarur vositalar va g’oyalarni taqdim etish**.**	14-21-slaydlar	O’qituvchilar interfaol vositalar yordamida amaliy ko’nikmalar hosil qiladi.
Mashg’ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	22-23-slaydlar	O’qituvchilar o’z tajribalarini o’rtoqlashadi va yangi g’oyalarni o’zlashtiradi.
1.Tashkiliy qism	- -Salomlashish - -Maqsad va reja bilan tanishtirish - -Mashg’ulotning dolzarbligini asoslab berish	24-slayd	O’qituvchilar o’z faoliyatini baholaydi va o’rganilgan ma’lumotlarni qayta ko’rib chiqadi.
2. Motivatsiya	- -Qiziqarli muammoli savol - -“Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	So’rovnoma tashkil qilish	O’qituvchilar mashg’ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo’naltiriladi.
3. Nazariy qism	5E yondashuvning ta’limdagi ahamiyati va roli Boshlang’ich sinflarda 5E yondashuvining amaliy topshiriqlarga qo’shgan hissasi - -Slaydlar bilan tushuntirish	15	Taqdimot, ko’rgazmali tushuntirish
4.Amaliy	- - Guruhlarda ishlash: amaliy	30	Guruhlarda ishlash

mashg'ulot	topshiriqlar bajarish - Misollar va vaziyatlarni muhokama qilish		
5.Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo'yicha taqdimotlar - Qiyinchiliklarni muhokama qilish - Mashg'ulot jarayoni bo'yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil
6. Refleksiya	Qiziqarli savollar	5	Refleksiya usullari
7. Yakunlash va baholash	- Savollarga seminar va dars haqida fikrlar	5	Suhbat

Zamonaviy ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu topshiriqlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishda ham muhim vositaga aylanadi. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Amaliy topshiriqlarni tuzishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarur:

Mazmun va maqsadga yo'naltirilganlik – topshiriq o'quv dasturidagi maqsadlarga mos bo'lishi lozim.

O'quvchi faoliyatiga yo'naltirish – o'quvchi darsda faol ishtirok etadi, fikr yuritadi, muammoni hal qiladi.

Hayotiylik – topshiriqlar real hayot bilan bog'liq bo'lishi, o'quvchida qiziqish uyg'otishi kerak.

Yosh xususiyatlarini inobatga olish – topshiriqlar bolaning psixologik, intellektual va jismoniy rivojlanishiga mos bo'lishi zarur.

Mustaqil fikrlashni rag'batlantirish

Interfaollik va kreativlik

Amaliy topshiriqlarni rejalashtirishda: dars maqsadiga mos kompetensiyalarni aniqlash.

Ularni tashkil etishda: guruh va juftlik shaklidan faol foydalanish.

5E modelini joriy qilishda: har bir bosqichni sinchkovlik bilan rejalashtirish

Baholashda: nafaqat to'g'ri javoblar, balki o'quvchining fikrlashi, izlanishi, harakatini ham inobatga olish.

Kompetensiyaviy yondashuv – o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini integratsiyalashgan, real hayotga tatbiq qila oladigan holatda rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bu yondashuvda o'quvchi markazda turadi.Kompetensiyaviy yondashuvda asosiy e'tibor o'quvchining bilimni egallashiga emas, balki uni **hayotiy vaziyatlarda qo'llash**ga qaratiladi. Shu bois amaliy topshiriqlarni rejalashtirishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

O’quvchi qanday kompetensiyalarni egallashi kerakligi aniq belgilanadi.Har bir amaliy topshiriq o’ziga xos kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.Baholash mezonlari aniq bo’lishi – o’quvchining faol ishtiroki, ijodkorligi, muloqot ko’nikmasi hisobga olinadi.Guruhiy va juftlikda ishlashga yo’naltirilgan topshiriqlar kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali bo’ladi.

5E modeli va uning ta’lim sifatini rivojlantirishdagi roli

5E modeli – bu konstruktiv yondashuv asosida yaratilgan o’quv jarayoni modeli bo’lib, quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Engage (Jalb qilish):** O’quvchilarning diqqatini jalb qilish, muammoli savol yoki hayotiy vaziyat orqali darsga kirish.
2. **Explore (O’rganish):** O’quvchilar tajriba asosida mustaqil izlanish olib boradilar.
3. **Explain (Tushuntirish):** O’quvchilar o’zlari kashf qilgan bilimlarni tahlil qiladi, o’qituvchi umumlashtiradi.
4. **Elaborate (Chuqurlashtirish):** Yangi bilimlar boshqa kontekstlarda qo’llaniladi, amaliy topshiriqlar orqali mustahkamlanadi.
5. **Evaluate (Baholash):** O’quvchilar o’z-o’zini va o’zaro baholaydi, o’qituvchi yakuniy baho beradi.

5E modeli orqali o’quvchilar o’zlashtirish darajasini chuqurlashtiradi, mustaqil fikrlashga o’rganadi va yangi bilimlarni real hayotda qo’llay oladi.

1. Namunaviy dars ssenariysi (Matematika, 2-sinf)

Mavzu: To’g’ri to’rtburchak perimetri

Dars turi: Yangi bilim berish

Metod: 5E modeli asosida

Kompetensiya: Matematik fikrlash, amaliy qo’llash, muammoli vaziyatni hal qilish

1. Engage (Qiziqtirish):

Topshiriq: O’quvchilarga oddiy bir tajriba ko’rsatib, ular nima sodir bo’layotganini tushunishga harakat qilishlarini so’rash. Masalan, bir necha turdagi o’simliklar (yashil, sariq va qizil barglar)ni ko’rsatib, "Bu barglarning ranglari nima sababdan o’zgaradi?" deb savol berish.

Ma’lumot: O’simliklarning fotosintez jarayoni, meva va o’simliklarning o’sish davrlari haqida qisqacha tushuntirish.

2. Explore (O’rganish):

Topshiriq: O’quvchilarga tabiatda mavjud bo’lgan turli o’simliklar va hayvonlar haqida kichik guruhlarda tadqiqot o’tkazish vazifasini berish. Har bir guruh o’zi tanlagan o’simlik yoki hayvonning o’zgacha xususiyatlarini o’rganib, natijalarni taqdim etadi.**Ma’lumot:** O’simliklar va hayvonlar dunyosida mavjud

bo’lgan o’zgarishlar, ularning yashash sharoitlari, va ularga ta’sir etuvchi omillar haqida mavzularni yoritish.

3. Explain (Tushuntirish):

Topshiriq: O’quvchilarga o’simliklarning fotosintezi haqida qisqacha tushuntirish berish va ularga fotosintez jarayonini raqamli yoki rasmli diagramma yordamida tushuntirishni so’rash.**Ma’lumot:** Fotosintez jarayoni, suv, quyosh nuri, karbonat angidridning rolini tushuntirish.

4. Elaborate (Kengaytirish):

Topshiriq: O’quvchilarga ekosistemalardagi o’zgarishlar haqida masala qo’ying. Masalan, "Agar biror o’simlik turi yo’qolsa, bu ekosistemaning boshqa qismlariga qanday ta’sir qiladi?" deb savol bering.**Ma’lumot:** Ekosistemalarning uyg’unligi, hayvonlar va o’simliklarning bir-biriga ta’siri, shuningdek inson faoliyatining ekologik ta’siri haqida maslahatlar.

5. Evaluate (Baholash):

Topshiriq: O’quvchilarga tadqiqotlar va tajribalar natijalari haqida qisqacha hisobot yozishni va guruh bo’yicha baholashni taklif qiling. Masalan, "Fotosintez jarayonining asosiy elementlarini qanday aniqlash mumkin?" deb savolni qoldiring.**Ma’lumot:** O’quvchilarning fotosintez haqidagi bilimlarini baholash, ularning savol va javoblarini qayta ko’rib chiqish.

O’qituvchining kasbiy mahorati – muvaffaqiyat garovi Amaliy topshiriqlarni mazmunli tashkil etish va 5E modelini samarali joriy etishda o’qituvchining kasbiy mahorati katta rol o’ynaydi. Quyidagilar muhim hisoblanadi:

Innovatsion yondashuv – zamonaviy texnologiyalar, interfaol metodlar, STEAM usullaridan foydalanish.

Pedagogik refleksiya – o’z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan saboq olish.

O’quvchilar bilan samarali muloqot – har bir bolaning shaxsiga e’tibor qaratish, motivatsiyani shakllantirish.

Doimiy o’z ustida ishlash – yangi metodikalarni o’rganish, tajriba almashish

Boshlang’ich ta’limda amaliy topshiriqlarning mazmunli tashkil etilishi o’quvchilar bilimini chuqurlashtiradi, ularni faol fikrlashga undaydi va hayotga tayyorlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv va 5E modeli esa ushbu jarayonni samarali yo’lga qo’yishga xizmat qiladi. O’qituvchining kasbiy mahorati esa barcha pedagogik yondashuvlarning muvaffaqiyatli qo’llanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun:

1.Har bir dars uchun kamida 1 ta 5E asosidagi topshiriq kiritish

2.O’quvchilarni baholashda kompetensiyalarni e’tiborga olish

3.O’z ustingizda ishlashni to’xtatmang – innovatsiyalarni sinab ko’rish

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni / O`RQ -637-son 23.09.2020 y.

2. O’zbekiston Respublikasining Qonuni/“Nogironligi bo’lgan shaxslarning huquqlari to’g’risida”gi O`RQ-641-son 15.10.2020 y.

3. O’zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.

4. «2017-2021yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi».

5. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktyabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to’g’risida”gi qarori.

Internet resurslari:

1. . https://inclusionbc.org/our-resources/what-is-inclusive-education/

2. https://resilienteducator.com/classroom-resources/inclusive-education https://karnatakaeducation.org.in/KOER/en/index.php/Portal:Inclusive_Education/Resources